

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI**  
**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**DINSHUNOSLIK**

o'quv qo'llanma

Toshkent 2019

O'quv qo'llanma O'zMU "Falsafa va ma'naviyat asoslari" kafedrasи 2019 yil  
-----bayonnomasi asosida tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

**Tuzuvchilar:** - f.f.n., dotsent Jalilov B.X.

**Mas'ul muharrir** - f.f.n., dotsent R.Qo'chqorov

**Taqrizchi** - t.f.n., dotsent B.Farmanova

O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilishi, milliy an'ana va qadriyatlarning tiklanishi bilan ijtimoiy fanlar, xususan, dinshunoslikka bo'lган munosabat o'zgardi. Dinshunoslik fanidan o'quv va uslubiy qo'llanmalar yaratishga talab kuchaydi. Mazkur o'quv qo'llanma Toshkent davlat yuridik instituti talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ma'ruza matnlari, asosiy tushuncha va atamalar, tayanch so'zlar izohini o'z ichiga olgan.

## KIRISH

Din insoniyat ma'naviy hayotining tarkibiy qismidir. O'zbekiston Respublikasida ziylolar oldiga ma'naviy barkamol insonni shakllantirish vazifasi qo'yilgan bir paytda din masalasini chetlab o'tish mumkin emas.

Mustaqillik yillarida dinga yangicha qarash va munosabat natijasida biz uchun nisbatan yangi bo'lган dinshunoslik fani vujudga keldi. Shu sababdan mazkur fan bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish muhim masalaga aylandi.

Dinshunoslik fanining vazifasi talabalarda din, uning turli shakllari, ta'limotlari, yo'nalishlari, mazhablari haqida to'g'ri ilmiy xulosalar chiqara oladigan, diniylik va dunyoviylik munosabatlarini asosli tahlil qila oladigan ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

Din va qonunning, dunyoqarash va e'tiqodning o'zaro munosabatlarini yaxshi bilish respublikamizda bunyod etilayotgan demokratik, huquqiy jamiyat poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur fan talabalarga qonunga hurmat hissini o'zinigina emas, balki boshqalarning ham diniy his-tuyg'ulari bilan hisoblashish lozimligi, o'z shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga tazyiq bilan o'tkazish, turli norasmiy diniy mazhab va guruhlarga jalb etish g'ayriqonuniy xatti-harakat ekanligi, diniy masalalarda zo'ravonlik, mutaassiblikka yo'l qo'ymaslikni chuqr tushunib yetishida yordam beradi.

Dinshunoslik fanidan dars mashg'ulotlari oliy o'quv yurtlarining ikkinchi kurs talabalariga bir o'quv semestri davomida o'tiladi. Dars mashg'ulotlari asosan ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim-tarbiya va ta'lim berishning boshqa zamonaviy shakllari yordamida amalgalashishga oshiriladi.

Mazkur o'quv qo'llanma Toshkent davlat yuridik instituti talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, u ma'ruzalar matnlari, asosiy tushuncha va atamalar, tayanch so'zlar izohini o'z ichiga oladi.

Soha mutaxassislari o'quv qo'llanmaning sifatini yanada yaxshilash borasida o'z fikr-mulohazalarini bildirib, uning keyingi nashrlari yanada mukammal bo'lib chiqishiga yordam beradilar, degan umiddamiz va ularga oldindan o'z minnatdorchilikimizni bildiramiz.

## “DINSHUNOSLIK” FANIGA KIRISH.

### “DINSHUNOSLIK” FANINI O’QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

**Reja:**

- 1. Dinshunoslik fanini o’qitishning maqsad va vazifalari.**
- 2. Dinning paydo bo’lish masalasi** (din ta’rifi; din e’tiqodning o’ziga xos ko’rinishi sifatida; dinning paydo bo’lishi haqidagi nazariyalar).
- 3. Dinning ijtimoiy funksiyalari** (kompensatorlik, integratorlik, regulyatorlik, legitimlovchilik; dinning falsafiy, nazariy jihatlari).
- 4. Dinlar tasnifi** (tarixiy geografik tasnif, etnik tasnif; dinlarning ta’limotiga ko’ra turlari).
- 5. Dinning ibtidoiy shakllari** (totemizm, fetishizm, animizm, shamanizm).

**Tayanch so’zlar:** e’tiqod, animizm, totemizm, fetishizm, shamanizm, magiya, politeizm, monoteizm, vijdon erkinligi, kompensatorlik, regulyatorlik, legitimlovchilik, ibtidoiy dinlar, milliy dinlar, jahon dinlari.

**Maqsadi:** “Dinshunoslik” fanini o’rganishning maqsad va vazifalarini, dinning paydo bo’lishi, uning insoniyat tarixiy taraqqiyotida tutgan o’rni, birlashtiruvchilik, qonunlashtiruvchilik, tartibga soluvchilik, tasalli beruvchilik kabi jamiyatdagi vazifalarini, ilk ibtidoiy diniy tasavvurlarni, dinning kelib chiqishi to’g’risidagi turli xil qarashlarni tahlil qilish.


Din insoniyat ma’naviy hayotining tarkibiy qismidir. Ko’p asrlar davomida xalqimizning milliy qadriyatiga aylanib qolgan islom dinining Markaziy Osiyo mintaqasi tarixida, ushbu hudud xalqlari hayotida tutgan o’rnini bilish har bir vatandoshimizning muhim burchi hisoblanadi. Chunki milliy va diniy qadriyatlarni bilmay, ularning hurmatini o’rniga qo’ymay turib, inson yuksak ma’naviyatli bo’la olmaydi. Dinshunoslik fanining asosiy vazifalaridan biri xalq hayoti bilan chambarchas bog’liq bo’lgan din, unda jamlangan yuksak insoniy qadriyat, yaxshilikka undov va yomonlikdan qaytarish

kabi omillar bilan talabalarni yaqindan tanishtirib, to'g'ri dunyoqarashga ega yuksak ma'naviyatli insonlarni tarbiyalashdan iborat.


*Dinshunoslik fanining vazifasi* nafaqat islom dini, balki jahondagi turli xalqlar e'tiqod qiladigan mavjud dinlarni ham o'rghanishdan iborat. Chunki dunyodagi turli xalqlar bilan muloqot qilishda ularning dunyoqarashi, urf-odatlari va qadriyatlarini bilish katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa, avvalo, mazkur xalqlarning qadimgi va hozirgi diniy e'tiqodlarini o'rghanish zarur. Bundan tashqari Markaziy Osiyoga islom dini kirib kelguniga qadar bu yerda buddaviylik, zardushtiylik, moniylik, xristianlik kabi dinlar mavjud bo'lган. Bu dinlar islom kirib kelganidan keyin ham bir qism saqlanib qolgan va kishilar hayoti, dunyoqarashiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Shuning uchun islom dini bilan birga mazkur dinlarning ham tarixi, ta'limoti va hayotdagi o'rmini bilish muhim masalalar qatoriga kiradi.



Olimlarning dinshunoslik sohasidagi izlanishi muxim xulosalar chiqarishga olib kelgan. Birinchidan, har qanday din ijtimoiy hodisa hisoblanib, ijtimoiy ong shakllaridan biridir; ikkinchidan, diniy tasavvur va e'tiqodlar jamiyat taraqqiyotining muayyan ijtimoiy sharoitlari ta'sirida turli-tuman shakl va ko'rinish kasb etgan; uchinchidan, ibridoiy diniy tasavvurlardan tortib jahon dinlarigacha bo'lган dinlar rivojlanishi evolyutsiyasini e'tirof etish dinshunoslik haqida to'g'ri ilmiy xulosa chiqarish imkoniyatini beradi.



Dinshunoslik din va diniy e'tiqodlarga murakkab ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy ongning ifodasi, insonning yon-atrofni, olamni bilishga intilishining bir ko'rinishi sifatida qaraydi.



O'zbekiston mustaqilligi yillarda din va diniy e'tiqodlarga yangicha munosabat shakllandi. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq respublikamizning barcha fuqarolari haqiqiy e'tiqod erkinligini his qila boshladilar.

Dinshunoslik ijtimoiy fanlar turkumiga kiradi. U falsafa, psixologiya, tarix, madaniyatshunoslik, etnografiya, arxeologiya, pedagogika, sotsiologiya, siyosatshunoslik, huquqshunoslik kabi bir qator fanlar bilan bog'liqdir. Lekin u o'z tadqiqot ob'ekti, maqsadi va vazifalari nuqtai nazari bilan boshqa fanlardan farq qiladi.

Dinshunoslik fanining barcha oliy o'quv yurtlarida o'qitilishi: birinchidan, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunni amalga oshirish uchun kafolat yaratadi; ikkinchidan, bir dinning boshqa din, bir e'tiqod egalarining boshqa e'tiqod egalariga nisbatan imtiyozli bo'lishining oldi olinadi; uchinchidan, din va diniy qadriyatlarning ma'naviy madaniyatda o'z o'rnini egallashi ta'minlanadi; to'rtinchidan, dinning siyosatlashmasdan to'la sofliги saqlanadi; beshinchidan, yoshlar dindorlikni diniy mutaassiblikdan farqlay olishiga olib keladiki, ular diniy partiyalar, harakatlar tuzish behuda, zararli ekanligini, bunday harakatlar dinda qoralanishini bilib oladilar.

**Din ta'rifi.** "Din" tushunchasi ifoda etgan ijtimoiy hodisa ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli jarayondir. Undan o'tmishda va hozirgi murakkab sharoitda har xil ijtimoiy-siyosiy harakatlar turli maqsadlar yo'lida foydalanishga intilganlar va intilmoqdalar.

**Din** so'zi o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan bo'lib, ishonch, inonmoq ma'nosini bildiradi. **E'tiqod** so'zi ham arabcha ildizga ega va chuqur, mustahkam ishonch ma'nosini anglatadi. Demak, diniy e'tiqod deganda mustahkam, chuqur ishonch, maslak tushuniladi. Din haqida jamiyatda yagona fikr mavjud emas. U to'g'risida dinshunoslik, falsafa va ilohiyotshunoslikdagi turli olimlar turlicha javob beradi. Bu javoblarning bir qismi esa bir-birini inkor qiladi.

Dunyoviy nuqtai nazar bo'yicha din ijtimoiy-tarixiy hodisa. Kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ma'lum bosqichida paydo bo'lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri.

*Din – muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyati orqali namoyon bo'ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o'ziga xos usuli, olamda insoniyat paydo bo'lganidan to bizgacha o'tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks ettirishdir.*

Diniy ulamolar fikricha, din Alloh tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. U azaldan insonning Alloh bilan aloqa qilish ehtiyojidir.

*Din tabiat, jamiyat, inson va uning ongini, yashashdan maqsadi hamda taqdirini bevosita qurshab olgan, atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, insonni yaratgan, ayni zamonda unga birdan-bir "to'g'ri", "haqiqiy" va "odil" hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta'limotdir.*

Dinning nima ekanligi turlicha izohlansa-da, umumiyligi nuqtai nazar shuki, din ishonmoqlik tuyg'usidir. Bu tuyg'u insonning eng teran va go'zal ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2000 yil sentabrda Toshkentda bo'lib o'tgan dindorlarning xalqaro anjumani ishtrokkilariga tabriknomasida dinga shunday baho berilgan: "**Din inson ruhini poklashi, odamlar o'rtasida mehr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlashi, milliy an'analarni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan har qanday jamiyat hayotida muhim o'rinni tutadi**". Bunga mamlakatimiz tarixida islom dinining tutgan o'rni yaqqol dalil bo'la oladi.

## JAHONDAGI MAVJUD BARCHA DINLAR O'ZIGA XOS BIR QANCHА BELGILARGA EGA

Muayyan e'tiqod va ta'limotning mavjudligi.  
Har bir din dunyoni o'z nuqtai nazaricha izohlaydi va ishonuvchilarda muayyan e'tiqod shakllantiradi

Har bir din o'ziga xos marosim va rasm-rusumlarga ega

Diniy marosim va rasm-rusumlarning faqat belgilangan joylarda jamoa bo'lib bajarilishi. Masalan, yahudiy va xristian dinida ibodatning asosiy qismi faqat sinagoga va cherkovda bajariladi. Islom dinida erkaklar tomonidan namoz asosan jome' masjidlarida o'qiladi

## DIN JAMIYATDA MUAYYAN IJTIMOIY, MA'NAVIY VA RUHIY VAZIFALARINI BAJARADI

**Birinchidan**, har qanday din o'z ergashuvchilari uchun to'ldiruvchilik, ovutuvchilik (kompensatorlik) vazifasini bajaradi. Masalan, insonda doimiy ehtiyoj hosil bo'lishi hodisasini olib qaraylik. Inson hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlari jarayonida shaxsiy va ijtimoiy talablarini qondirish, maqsadlarga yetishishi qiyin, ilojsiz bo'lib ko'ringanda bunday ma'naviy-ruhiy ehtiyoj vujudga keladi. Aksariyat inson hayotidagi quvonchli yoki tashvishli onlarida, ayniqsa orzular ro'yobga chiqishi ilojsiz bo'lgan paytda dindan najot izlaydi. Insoniyatning dinga ehtiyoji jamiyat bo'lib yashash pallasida kuchaygan va din bu o'rinda ma'naviy-ruhiy ehtiyojni qondiruvchi, tasalli beruvchilik vazifasini bajaradi.

**Ikkinchidan**, muayyan din o'z ta'limot tizimini vujudga keltirgach, o'ziga e'tiqod qiluvchilar jamoasini shu ta'limot doirasida saqlashga harakat qiladi. Bu ijtimoiy hodisa dinning birlashtiruvchilik (integratorlik) vazifasi deb ataladi. Bunda din ijtimoiy, etnik va ma'naviy hayotning o'z ta'siri doirasida bo'lishini ko'zda tutadi. Masalan, islom dini Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayotiga, axloqiy munosabatlariga, hattoki adabiyoti va san'atiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Xristianlikda ham e'tiqod qiluvchilarni unga yanada ko'proq jalb etish uchun diniy, me'moriy, tasviriy san'at, musiqadan unumli foydalilanildi.



**Uchinchidan**, din dindorlar hayotini tartibga solish, nazorat qilish (regulyatorlik) vazifasini bajaradi. Har qanday dinning ma'lum urf-odat, marosim va bayramlari bo'lib, ularni o'z vaqtida, diniy ta'limot va talab asosida bajarilishi shart qilib qo'yiladi. Masalan, islom dinida kuniga besh vaqt namoz o'qilishi, har hafta juma namozi jamoat bo'lib ado etilishi, ramazon oyida o'ttiz kun ro'za tutilishi musulmonlarning hayot tarzini tartibga solib turadi.



**To'rtinchidan**, din aloqa-bog'lovchilik (kommunikativ) vazifasini bajaradi. Dinning bu vazifasi orqali dindorlarning birligi, jamiyat bilan shaxsning o'zaro aloqasi ta'minlanadi. Bunda muayyan bir dinga e'tiqod qiluvchi kishi shu dindagi boshqa kishilar bilan bog'liq bo'lishi, urf-odat va ibodatlarni jamoa bo'lib ado etishi ko'zda tutiladi. Masjid, cherkov va boshqa diniy tashkilotlar dinning bu vazifasini amalga oshirishga ko'maklashadi, ayni paytda bu holatni nazorat qiladi.



**Beshinchidan**, din qonunlashtiruvchilik (legitimlovchilik) vazifasini ham bajaradi. Har qanday dinda qonun darajasiga ko'tarilgan axloq normalari ishlab chiqiladi. Din bu normalarni qonunlashtiribgina qolmay, ularga bo'lган munosabatni ham belgilaydi.

Bulardan tashqari dinning falsafiy vazifasi ham mavjud. Bu vazifa insonda yashashdan maqsad, hayot mazmunini, bu dunyo va narigi dunyo masalalariga munosabatini bildirib turishni o'z ichiga oladi. Dinning ijtimoiy hayotga ta'siri hamma vaqt ham bir xil bo'lган emas. U zamonga, hududga, sharoitga qarab o'zgarib turgan.

Kishilik jamiyatida din qanday paydo bo'lган, degan savolga turli fikrlar bildirilgan. Shu o'rinda dinning kelib chiqishi haqidagi asosiy ta'limotlar borasida to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi.

Antropologiya fanining uqtirishicha, yer yuzida dastlabki odamlar (preantroplar) bundan 5-6 million, ilk diniy tushunchalar esa 40 ming yil (Markaziy Osiyoda 10 ming yil) avval paydo bo'lган. Demak, bu qarashga ko'ra, diniy tasavvurlar ma'lum bir ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan. Biroq dinning kelib chiqishi haqida turli, goho qarama-qarshi fikrlar mavjud.

**Birinchisi** – dinning kelib chiqishi juda oddiy, u kishining g'ayritabiiy kuchlarga ishonishi va tabiat kuchlari oldidagi ojizligidan, nodonligidan kelib chiqqan degan tushunchadir.

**Ikkinchisi** – diniy qarashlar ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar natijasida yuzaga kelgan, degan fikrdir. Materializm tarafdorlari ushbu qarashni ilgari surar ekan, dinni ijtimoiy ong shakllaridan biri, iqtisodiy bazis natijasi deb qaraydi. Bizningcha, bu bироqlamalikdir. Iqtisodiy omillar kishi ongiga qanday ta'sir qilsa, ong, shu qatori din ham, iqtisodiy hayotga shunday ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari diniy tushunchalar iqtisodiy bazis bilan o'lchanganida edi, har bir din ko'rinishi o'z davrining iqtisodiy munosabatlarini ifoda etgan va u bilan birga tarix sahnasidan tushib qolgan bo'lardi. Har bir yangi iqtisodiy munosabatlar esa yangi diniy tushunchalarni va dinni shakllantirgan bo'lardi.

**Uchinchisi** – diniy tushunchalar ma'lum bir doirada, “xarizmatik yo'lboshchilar”ning g'oyalari ta'sirida yuzaga keladi, degan fikrdir. Ayrim shaxslarning diniy qarashlar shakllanishida katta rol o'ynashini inkor qilmagan holda shuni aytish zarurki, diniy tushunchalarda nafaqat ayrim shaxslar, shu bilan birga muayyan elat, millat, xalqqa oid qarashlar, urf-odatlar ham o'z aksini topadi.

**To'rtinchisi** – diniy tushunchalar “axloqiy burchlarning ta'siri” (I.Kant) va “mavhumlik oldidagi qo'rquv”dan kelib chiqadi (B.Rassel), degan qarashdir.

**Beshinchisi** – taniqli teolog va olim A.Men din “insondan tashqarida, insonning u (ya'ni, o'sha insondan tashqaridagi) bilan aloqasi” natijasi deb isbotlashga harakat qiladi.

Xullas, diniy tushunchalarning kelib chiqishi haqidagi fikrlar har xil, ba'zan esa ular bir-biriga ziddir.

O'zbekistonlik olimlar ham ilk diniy tushunchalarning kelib chiqishiga oid turli nuqtai nazarlarni ilgari suradilar. Masalan, faylasuf olim Iso Jabborov kishilarning tabiat kuchlari oldidagi ojizligi diniy tushunchalarning kelib chiqishiga asos bo'lgan, degan qarashni yoqlaydi. F.Nabiev va U.Shokirovlar “diniy ong, diniy tasavvurlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumining xarakteriga muvofiq ravishda kelib chiqqan va rivojlangan” deb hisoblaydilar. U.Jo'raev va Y.Saidjonovlar dinning paydo bo'lish sababini “tabiat kuchlari va hodisalarining odamlar ustidan hukmronligi, ularning bu kuchlar tabiatini va hodisalar sabablarini bilmasliklari, buning oqibatida ularning bu kuchlar, hodisalardan qo'rquvga, dahshatga tushib qolganliklarida” ko'radilar. Bu singari fikrlar va yondashuvlarning har xilligiga qaramay, diniy tushunchalarning kelib chiqishi insonning

tabiat va jamiyat bilan munosabatlarining natijasidir. Uning negizida, eng avvalo, inson tomonidan borliqni idrok etishga, bilishga intilish yotadi.

Diniy tushunchalar negizida ijtimoiy munosabatlar ham yotadi. Ushbu munosabatlar esa, ba'zi adabiyotlarda ko'rsatilganidek, iqtisodiy munosabatlardangina iborat emas. Ularda oilaviy, urug'-aymoqchilik, siyosiy va kishilararo munosabatlarning ildizlarini ham uchratish mumkin. Demak, diniy tushunchalarning kelib chiqishiga keng ijtimoiy munosabatlar ta'sir qilgan.

Ilk diniy tushunchalarning vujudga kelishiga ibtidoiy-iqtisodiy munosabatlar, kishilarning mehnat tarzi kabi omillar ham ta'sir qilgan. Ov qilish, ekin ekish, maydonlarni sug'orish, oziq-ovqat topish va jamlash, hayvonlarni qo'lga o'rgatish va ular kuchidan foydalanish kabilar kishilarni yon-atrofda sehrli kuch bor, deb ishonishiga olib kelgan.

Shunday qilib, ilk diniy tushunchalar ma'lum bir ijtimoiy-tarixiy va madaniy rivojlanish bosqichida, kishilarning olamni, yon-atrofini bilishga intilishlari, ichki ruhiy kechinmalari, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari ta'siri natijasida paydo bo'lgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'z oldiga huquqiy, demokratik davlat qurishni asosiya vazifa qilib qo'ydi va jamiyatningadolatli, huquqiy asoslari Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yildi. Inson huquqi va erkinligining ajralmas qismi – bu vijdona erkinligi bo'lib, Konstitutsiyamizning 31-moddasida: "*Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi*" deyilgan.

O'zbekistonda ma'naviy hayotning asosini mustahkamlashda dinga va diniy qadriyatlarga munosabat muhim o'rinnegizini fan, bilim asoslarini egallash tashkil etadi. Dinga jamiyatning ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlanishining muhim omili deb qaralmoqda.

Dinga faqat tarixiy, ijtimoiy va etnik hodisa sifatidagina emas, balki, eng avvalo, ma'naviy hodisa deb qarab, u odamning jamiyatdagi o'rni, ya'ni uning jamoalashgan odamga aylanishi ehtiyojidan kelib chiqqanligiga e'tiborni qaratish kerak. Zero, o'rtada

odamning o'ziga insoniy xislatlarni singdirishining ma'naviy-ruhiy omili bo'lgan imon masalasi turibdiki, odamzot dinga ishonch asosida o'z ichki olamini poklashga, havoyi nafsi jilovlashga intiladi.

**Dinlar tasnifi.** Dinlar, ta'limotiga ko'ra, monoteistik va politeistik dinlarga bo'linadi. **MONOTEISTIK** – yakkaxudolik dinlariga islom, yahudiylilik, xristianlik dinlari; **POLITEISTIK** – ko'pxudolik dinlariga esa hinduiylik, brahmanlik, konfutsiylik, daosizm, sintoiylik, buddaviylik kabi dinlar kiradi.

Hozirgi kunda dinlarning quyidagi tasniflari mavjud:

- tarixiy-geografik jihatga ko'ra;
- etnik jihatga ko'ra;
- hozirgi davrda mavjudligi jihatidan.

Dinlar unga e'tiqod qiluvchilarning miqyosi, o'zining ma'lum millatga, xalqqa xosligi yoki millat tanlamasligiga ko'ra uch guruhga bo'linadi (etnik tasnif):

1) **Urug'-qabila dinlari** – totemizm, animizm, fetishizm, magiya va shamanizm kabi dinning ibtidoiy shakllari. Ular milliy va jahon dinlari tarkibiga singib ketgan. Avstraliya, Afrika va Janubiy Amerikadagi ayrim qabilalarda hozir ham saqlanib qolgan;

2) **Milliy dinlar** – faqatgina bitta millatga xos bo'lib, boshqa millat vakillari qabul qilmaydigan dinlar (yahudiylilik, hinduiylik, jaynizm, konfutsiychilik, sinkxiylik, sintoizm);

3) **Jahon dinlari** – dunyoda eng ko'p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat'i nazar unga e'tiqod qilishlari mumkin bo'lgan dinlar (buddaviylik, xristianlik va islom dinlari).

### Dinning ibtidoiy shakllari

**Totemizm.** Keyingi bir-ikki asr davomida fanda qilingan ajoyib kashfiyotlar tufayli dinning ilk shakllari 30-40 ming, balki 100 ming yillar muqaddam kelib chiqqanligi isbotlanibgina qolmay, hatto hozirgi davrda yashayotgan ayrim xalqlar turmushida ularning hamon saqlanib kelayotganligi aniqlandi. Atoqli dinshunos olim S.A.Tokarev taklif qilgan tasnifga ko'ra, ibtidoiy dinning eng qadimgi shakllaridan biri totemizm

bo'lib, u yuqori paleolit, ya'ni ilk urug'chilik jamiyati davrida paydo bo'lgan. "Totem" yoki "o'totem" aslida Shimoliy Amerikada yashovchi tub aholining algonkin qabila tilidan olingan so'z bo'lib, "uning urug'i" degan ma'noni anglatadi. Totemizm tushunchasi ayrim shaxsning yoki bir guruh kishilarning, urug' yoki qabilalarning ko'pincha qandaydir bir hayvon yoki o'simlik bilan g'ayritabiyy yaqinligi, hatto qon-qarindoshlik aloqasi bor, degan e'tiqodni anglatadi. Bu dinga sig'inuvchilar o'zi yoki urug'doshlarining barcha a'zolarini muayyan hayvon yoki o'simlikdan kelib chiqqan, degan tasavvurga tayanadi. Etnograf A.M.Zolotaryovning ta'rificha, "totemizm qarindoshlik munosabatlarini diniy anglashning dastlabki shaklidir".

Agar urug' o'zini bir totemdan kelib chiqqan deb hisoblasa, shu urug'ning barcha a'zolari totemni o'zining qarindoshi deb tasavvur qilgan. Totemizmning asl vatani hisoblangan Avstraliyada, masalan, bir urug' kenguru totemiga tegishli bo'lsa, uning a'zolari kenguruni "bu mening akam", "mening otam" yoki "mening birodarim" deb ta'riflaydi. Avstraliyada har bir mahalliy qabila bir necha totem guruhlariiga yoki urug'lariga bo'linadi va totem nomi bilan, masalan, tuyaqush urug'i, ilon urug'i, burgut urug'i deb ataladi. Urug' a'zolariga totem hisoblangan hayvonni o'ldirish yoki iste'mol qilish man etilgan. Totemistik tasavvurlar Okeaniya xalqlarining ko'pchiligidagi, Afrika, Shimoliy va Janubiy Amerika xalqlarida, Rossiyaning asosan Sibir xalqlarida saqlangan. Totemizm elementlarini hatto jahon dinlarida ham uchratamiz. Ayrim totemistik elementlarni Markaziy Osiyo xalqlarining urf-odatlarida ham uchratish mumkin. Muqaddas hisoblangan ba'zi hayvon va qushlarning tirnog'i, tishi, pati va hokazolarni tumor shaklida ishlatish totemistik tasavvurlarning qoldiqlari ekanligini tadqiqotchilar qayd qilganlar.

**Fetishizm.** Afrika va qisman Avstraliya xalqlarining ko'pchiligidagi, G'arbiy Afrika qabilalarida har xil jonsiz buyumlarga sig'inish keng tarqalgan. Bunday diniy tasavvurlar fonda fetishizm (portugal tilida – "feytisho" – tumor, sehrlangan buyum, degan ma'noni anglatadi) deb atilib, eng qadimgi ibridooy din shakllaridan biri hisoblanadi. Fetishizm nihoyatda xilma-xil shaklda namoyon bo'ladi va din taraqqiyotining barcha pog'onalarida ibodatning muhim qismi sifatida dastlabki oddiy dinlardan to hozirgi murakkab dunyo dinlarigacha hammasida uchraydi.

Albatta, ibridoiy kishilar moddiy imkoniyatlarining cheklangan, ishlab chiqarishning juda past rivojlangan, mehnat quollarining kamligi, ma'naviy qashshoqlik va bilimning pastligi odamni tabiat kuchlari oldida ojiz qilgan, amaliy faoliyatda qator noto'g'ri hayoliy tasavvurlarni, shu jumladan, fetishizmni paydo etgan, asosiy sababdir. Fetish odatda kishini juda hayratda qoldirgan har qanday buyum – tosh, yog'och, hayvon yoki daraxtning bir qismi va boshqa narsalardan tashkil topgan. Ibtidoiy odamlar mazkur buyum – fetishlarning mo'jizali va o'zlarining hayotiga ta'sir qilish kuchiga ega ekanligiga ishongan, undan madad va yordam kutgan. Ko'p afrikalik ovchilar omad keltiradigan buyum (fetish)siz ovni boshlamagan.

Hozirgi zamondagi barcha dinlarda ham fetishizm elementlari saqlanib qolgan. Xristianlikda xoch va ikonalarga cho'qinish, ayrim dindor kishilarning “muqaddas” daraxt va toshlar, avliyo-anbiyolarga sig'inishi, har xil tumor va duolardan madad istashi, shuningdek, buddaviylikda sanam, but va boshqa buyumlarni muqaddaslashtirish kabilar ham fetishizm bilan bog'liq tasavvurlar ekanligi isbotlangan.

**Magiya (sehrgarlik).** Totemistik tasavvurlar va fetishizm bilan bog'liq, nihoyatda keng tarqalgan ibridoiy dinlarning yana bir turi magiya (sehrgarlik) urug'chilik tuzumi davrida muhim rol o'ynagan. Sehrgarlik ibridoiy odamlarning mashaqqatli og'ir hayotini noto'g'ri, soxta yo'1 bilan bo'lsa-da yengillashtirishga yoki yovuzlikning oldini olishga qaratilgan tasavvurlardir. Magiya yolg'on va ko'zga ko'rinxmaydigan sehrli aloqa va ta'sirlarning tabiatda mavjudligiga ishontirish, ayrim hollarda odam bilan tabiat orasidagi munosabatlarga ham o'zaro ta'sir o'tkazish, bir odamning ikkinchi bir shaxsga ta'sir qila bilish qobiliyatiga ega ekanligini uqtirishdan iborat diniy e'tiqoddir. Bunday e'tiqod asosida ibridoiy odamlarda muayyan usul va vositalar orqali tabiatga va boshqa odamlarga o'zi istaganicha foyda yoki zarar yetkazishi mumkin, degan tushuncha hosil qilingan. Ikkinci tomondan, shu e'tiqoddan kelib chiqadigan tegishli harakatlar sehrgar shaxs yoki guruh orqali amalga oshirilgan. Oqibatda ibridoiy dinning bu ikki xususiyati rivojana borib, sehrgarlik kuchiga ishonish – e'tiqodga, maxsus maqsaddagi turli harakatlar – ibodatga aylanadi.

Shamanlar sehrgarlik yo'li bilan xavf-xatardan saqlanish yoki dushmaniga zarar yetkazish maqsadida uzoq masofada bo'lsa-da, jismoniy ham, nojismoni yoki ta'sir

o'tkazishga harakat qilgan. Sehrgarlik bilan tabiiy hodisalarini o'ziga bo'yundirish maqsadida o'tkaziladigan xatti-harakatlar shu kungacha saqlanib kelgan. Sehrgarlik e'tiqodi ibtidoiy davrda paydo bo'lib, muhim element sifatida barcha dinlarga kirgan. Masalan, xristian dinidagi cho'qintirish ibodati shaytonni haydash, zararli ruhlardan saqlanish maqsadida o'tkaziladigan har xil magik xatti-harakatlardan iborat. Barcha dinlardagi duo, fotiha o'qishlar ham aslida so'zning sehrgarlik kuchiga ega ekanligiga ishonish bilan bog'liq e'tiqoddir.

S.A.Tokarevning tasnifiga ko'ra, sehrgarlikning maqsadiga ko'ra quyidagi turlari mavjud: davolash, yomonlik yoki yovuzlikdan qo'riqlash, maftun qildirish yoki sovutish, zarar yetkazish, harbiy maqsadlarga qaratilgan sehrgarlik, kasb-hunar (ovchilik, baliqchilik, chorvachilik, dehqonchilik va hokazo), meteorologik (ob-havoga ta'sir qilish) maqsadlarida o'tkaziladigan sehrgarliklar.

Hozirgi ilmiy texnika taraqqiyoti zamonida ham sehrgarlik bilan kishilarni davolash, taqdiriga ta'sir qilish mumkin, degan tasavvurlarga ega bo'lган, folbinlik bilan shuqullanuvchi shaxslarni uchratamiz. Hozir G'arb mamlakatlarida, shu jumladan, AQSHda magiya, xiromantiya, spiritizm, akultizm kabi sehrgarlik turlariga qiziqish ommaviy tus olgan. Millionlab amerikaliklar haliyam "balodan saqlovchi", "omad keltiruvchi" sehrli quyon oyog'ini olib yuradi. G'arbiy Germaniyada esa mashinalarda tumor osish shunchalik keng tarqalganki, hukumat uni man qilishga majbur bo'lган. Davolash magiyasi yoki duoxonlik asosida paydo bo'lган va keyinchalik jahon dinlarida keng tarqalgan shifokor xudolar yoki avliyolar, xristian diniga krest (salib), islom va yahudiylit dinlariga Qur'on va Tavrot so'zлари yozilgan har xil tumorlar dastlabki diniy tushunchalardan o'tgan bo'lib, dindor kishining e'tiqodiga aylangan.

**Animizm.** Ibtidoiy dinning tabiatga sig'inish va itoatgo'ylik shaklidagi taraqqiyoti ilk din shakllaridan biri hisoblangan animizmning rivojlanishi asosida ro'y bergan. Ingliz etnografi Eduard Teylor tomonidan kiritilgan bu nom (lotincha "anima" – jon, ruh degani) o'z mohiyati jihatidan ancha cheklangan va Teylor ta'riflaganidek, animistik tushuncha eng dastlabki din shakli hisoblanmaydi, chunki din taraqqiyotining dastlabki bosqichida jon haqida odam alohida tasavvurga ega bo'lman. Animizmda, ruhlarning borligiga ishonch, inson, hayvonot, o'simlik va hatto jonsiz jismarda ham ruh, ong va

tabiiy qudrat bor deb hisoblanadi. Animizm qadimgi diniy tasavvurlarning eng yuksak shakli bo'lib, ruhlar tabiiy hodisalarni boshqaradilar, deb tushuniladi. Animizmda jon tanadan chiqib ketadi, ammo o'lmaydi, abadiy yashaydi deb hisoblanib, abadiy ruh to'g'risida ilk tasavvur paydo bo'lgan. Ibtidoiy odamlar uyquni jonning tanani vaqtincha tashlab ketishi, tushni esa kishi uqlab yotganida boshqa uzoq joydagi jonlarning yoki o'lgan kishilarning joni qaytib kelib uchrashi, deb tushunganlar. Keyinchalik esa o'lganlarning ruhlari osmonda yashaydi, degan tasavvur paydo bo'lgan. Odam ruhlarni o'ziga yaqinlashtirish uchun ularga shakl bergen, ya'ni muayyan buyumlar (but, fetish, sanamlar) yaratgan va ularga sajda qilgan.

**Shamanizm.** “Shaman” tunguscha so’z bo’lib, “jazavali kishi” degan ma’noni anglatadi. Bu so’z keyinchalik butun Sibirga, so’ngra Yevropaga tarqalib, xalqaro atamaga aylangan.

Bu dinning ruhoniysi shaman hisoblanadi. Shamanlar o’z qavmlariga, odam yaxshi va yovuz arvoqlar panohida yashaydi, odamning sog’lig’i, baxti va taqdiri shularning qo’lida, deb tushuntiradi. Shamanlar odamlar va ruhlar o’rtasida go’yo vositachilik qila olish qudratiga ega bo'lgan kishilardir. Ular kelajakni oldindan aytib berish, uzoq joylardagi voqealarni bilish, kasalliklarni daf etish, tabiat hodisalarini o’zgartirish kabi xislatlarga ega bo'lgan ruhoniylardir. Ular g’ayritabiiy qobiliyatga ega bo'lib, ashula aytish, raqsga tushish, nog’ora, childirma chalish yo’li bilan jazavaga tushib, yovuz va saxiy ruhlar bilan “bevosita munosabatga” kirishganlar. Tajribali shamanlar odatda iste'dodli gipnozchi, folbin, qo'shiqchi, shoir, baxshi bo'lgan. Shamanlar urug’-qabilaning obro’li homiysi va qo’riqchisi hisoblangan. Shamanlikka da'vogar bo'lgan odam “shamanlik kasali”ga yo’liqishi, xususan, ruhiy kasalga uchrashi kerak edi. Shamanlik iqtidori nasliy hisoblangan.

Turli xalqlarning shamanlari turfa rasm-rusumlarga rioya qilishgan, har xil kiyinishgan, muqaddas buyumlar va ruhlar to'g'risidagi tasavvurlari ham rang-barang bo'lgan.

Shamanizm hozirgi vaqtda ham taraqqiyot yutuqlari yetishi qiyin bo'lgan chekka o'lkalarda qisman saqlanib qolgan.

## **Savol va topshiriqlar**

1. Dinning kelib chiqishi haqida qanday qarashlar mavjud?
2. Dinning ijtimoiy hayotdagи o’rni va rolini tahlil qiling.
3. Din jamiyatda qanday vazifalarni bajaradi?
4. Dinshunoslik fanining maqsad va vazifalari nimadan iborat?
5. Ilk diniy tasavvurlar, ularning shakllari to’g’risida ma’lumot bering.

## **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O’zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.I. – T., “O’zbekiston”, 1996.
2. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T., “O’zbekiston”, 1997.
3. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. –T., 1999.
4. Karimov I.A. O’z kelajagimizni o’z qo’limiz bilan qurmoqdamiz. –T., 1999.
5. Karimov I.A. Ogohlikka da`vat. –T., 2000.
6. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch, “Ma’naviyat”, 2008.
7. Mo’minov A., Yo’ldoshxo’jaev X. va boshqalar. Dinshunoslik (darslik). –T., “Mehnat”, 2004.
8. Мифы народов мира. В 2-х томах. М., 1991.
9. Религиозные верования. Свод этнографических понятий и терминов. М., 1993.
10. Религиозные традиции мира. В 2-х томах. М., 1999.
11. Тайлор Э. Первобытная культура. М., 1989.
12. Фрейд З. Тотем и табу. Тбилиси, 1991.
13. Фрэзер Дж. Золотая ветвь: исследования магии и религии. М., 1986.

## MILLIY DINLAR

### Reja:

- 1. Yahudiylikning vujudga kelishi va ta'limoti** (yahudiylikdagi oqimlar; muqaddas manbalari; marosim va bayramlari; yahudiylar Markaziy Osiyoda).
- 2. Veda dinlari** (vedalarning vujudga kelishi; braxmanlikda jamiyatning tabaqalarga bo'linishi; hinduiylik ta'limoti).
- 3. Konfutsiychilik** (konfutsiychilik ta'limoti; Konfutsiy shaxsining ilohiylashtirilishi; konfutsiychilikning marosimlari).
- 4. Daosizm** (daosizm asoschisi; daosizmda axloq masalalari; daosizm sektalari).
- 5. Sintoizm** (sintoizmning vujudga kelishi; ta'limoti; marosimlari; muqaddas kitobi).

**Tayanch so'zlar:** Yahve, Tavrot, Talmud, ravvin, sinagoga, Pasxa, Yahudo, Muso, Isroil, saduqiylik, farziylik, yesseylar, sionizm, massonizm, Veda, Braxma, Vishnu, Shiva, Rigveda, Yajurveda, Samaveda, Atxarvaveda, Upanishadlar, vishnuizm, shivaizm, braxmanlik, kasta, Konfutsiy, imператор, Jen, Syao, Dao, Lao-tszi, Jinna, digambar, shvetambar, Jaynasutra, sinto, mikado, kama, sinkh, guru, Adigrantx, Susanovo, Kodziki.

**Maqsadi:** milliy dinlarning o'ziga xos xususiyatlariga ta'rif berish; yahudiylikning vujudga kelishi va ta'limotini, oqimlari va muqaddas manbalarini, veda, konfutsiychilik, daosizm, sintoizm kabi milliy dinlarning vujudga kelish tarixini o'rganish; milliy dinlarning jahon dinlariga aylanmaganligi sabablarini tahlil qilish.

### YAHUDIYLIK DINI



Yahudiylik dini mil.av. 2000 yillarning oxirlarida Falastinda vujudga kelgan. U yakkaxudolikni targ'ib qilgan birinchi dindir. Yahudiylik dini faqat yahudiy xalqiga xos.

“Yahudiy” so'zi Ya'qub payg'ambarning o'g'li Yahudo nomidan kelib chiqqan. Yahudiy xalqining yana bir nomi Bani Isroil – “Isroil bolalari” bo'lib, Isroil – Ya'qub payg'ambarning

ikkinchi ismi, bani – bolalar ma'nosini bildiradi. Yahudiy xalqiga nisbatan “yevrey” atamasi esa “yahudiy” so'zining bir shakli sifatida ishlataladi.

## YAHUDIYLIKNING ASOSIY AQIDALARI QUYIDAGILARDAN IBORAT

### TA'LIMOTI

**Olamni yaratgan yagona Xudo – Yahvening mavjudligi.** Xudo Yahve Isroil xalqi bilan ikki tomonlama shartnoma – “ahd” orqali bog’langan bo’lib, shunga ko’ra, yahudiylar o’zlarini “Xudo tomonidan tanlab olingan mumtoz xalqmiz” deyishadi. Xudo Ibrohim va uning avlodlariga Misr daryosidan Efrat daryosigacha bo’lgan hududlarni abadiy mulk qilib bergen. Shuning uchun yahudiylar bugungi kungacha bu yerlar bizga “va’da qilingan yerdir” degan e’tiqodga amal qilib kelmoqdalar

**Messiya – xaloskorning kelishi.** Yahudiylikda ilohiy xaloskor, milliy qahramon haqida aqidalar ham mavjud. Unga ko’ra, Yahve yahudiylar orasidan bir xaloskorni chiqaradi va u quyidagi vazifalarni bajaradi:

- dunyoni isloh qilgan holda qaytadan quradi;
- butun yahudiylarni Sinay (Quddus yaqinidagi tepalik) atrofida to’playdi;
- yahudiylarning barcha dushmanlarini jazolaydi

**Oxiratga ishonish.** Narigi dunyoga ishonch, oxiratda har kimning o’z qilmishiga yarasha javob berishi, jannat va do’zaxning mavjudligi, muqaddas kitoblarning benuqsonligiga ishonish


**Yahudiylik ta’limotiga ko’ra, Muso Yahvening yerdagi elchisi hisoblangan.** Muso yahudiylarni Misrdagi qullikdan qutqarib, ularni Misrdan olib chiqib ketgan. Yahve Musoga Tur tog’ida 10 ta lavhani taqdim etgan. Bu lavhalar (vasiyatlar) yahudiylik dinining asosini tashkil qiladi: **Yahvedan boshqa xudolarga ishonmaslik; but, sanam va rasmlarga sig’inmaslik; bekordan-bekorga Xudo nomi bilan qasam ichmaslik; shanba kunini hurmat qilish; ota-onani e’zozlab, hurmatini joyiga qo'yish; qotillik qilmaslik; boshqa millat vakillari bilan nikohga kirmaslik; o'g'rilik qilmaslik; yolg'on guvohlik bermaslik; birovniing mol-mulkiga xiyonat qilmaslik**

## YAHUDIYLARNING MUQADDAS KITOBLARI

### “Bibliya” (Qadimgi Ahd qismi)



### “Talmud” (O’rganish)



“Bibliya” ikki qismdan – “Qadimgi Ahd” va “Yangi Ahd”dan iborat. Bibliyaning “Yangi Ahd” qismi xristianlik dinining kitobi, “Qadimgi Ahd” qismi esa yahudiylilik dinining kitobi hisoblanadi.

“Qadimgi Ahd” (ahd so’zi – xudo bilan ahndlashuv, kelishuv degan ma’noni anglatadi) 39 kitobdan iborat. Uning dastlabki beshtasi **“Musoning besh kitobi”** deb ataladi va quyidagicha nomlanadi: **“Borliq”** (Ibtido), **“Chiqish”**, **“Lovi”**, **“Sonlar”**, **“Ikkinchchi Qonun”**. Bu besh kitob bitta nom bilan - **“Tora”** (Tavrot) deb ataladi. U yahudiylilik diniy ta’limotining asosi hisoblanadi.

“Talmud” miloddan avvalgi IV asrlarda vujudga kelgan va Toradan farqli ravishda avloddan-avlodga og’zaki tarzda o’tib borgan. Shuning uchun Torani yozma qonun, Talmudni og’zaki qonun deb ham atashadi. Talmudning Falastin va Vavilon nusxalari mavjud.

“Talmud”da yahudiylikning qoida va tartiblari, aqidalari, marosimlari, urf-odatlari bayon etilgan bo’lib, ular 248 ta buyruq va 365 ta taqiqni o’z ichiga oladi.

Oxirat haqidagi tasavvurlar asosan Talmudda bayon etilgan.

***Yahudiylikning marosimlari.*** Yahudiylilik ta’limotiga ko’ra, xudo Yahve butun olamning yaratuvchisi bo’lib, olamni yaratishni yakshanba kuni boshlab, olti kunda, ya’ni shanbada tugatadi, shuning uchun yahudiylar shanbani eng ulug’ kun hisoblashadi. Ular shanba kuni dam olishadi, turli ibodatlarni amalga oshirishadi. Shu kuni hech qanday mehnatga qo’l urilmaydi.

Yahudiylikda juda ko’p urf-odatlar, marosimlar, bayramlar, ta’qiq va buyruqlar mavjud. Ularda kundalik turmush tarzi ya’ni yeylimadigan ovqatdan tortib kiyimlargacha, kun bo’yi qilinadigan yumushlar ham belgilab qo’yilgan. Qisqasi, yahudiylar biror qadamini duosiz bosa olmaydi. Bolalarga 5-6 yoshidanoq diniy ta’lim beriladi.

Yahudiylar tuya, cho'chqa, quyon, ot, eshak go'shtini yemaydilar, ular yeydigan hayvon go'shtida qon dog'i bo'lmasligi kerak, shuning uchun ham hayvonlar maxsus qassoblar tomonidan so'yiladi.

Yahudiy erkaklarining kiyimlari uzun, bir xil matodan to'qilgan bo'lishi, boshi hatto uyqusida ham biror narsa bilan berkitilgan bo'lmosg'i lozim. Haftaning shanba kuni qat'i ravishda dam olish kuni deb belgilangan, bu kuni hech qanday ish qilinmaydi, ovqat pishirilmaydi, olov yoqilmaydi, hatto pulga qo'l tekizilmaydi. *Mana shunday qattiq ta'qiqlari hamda yahudiylarning boshqa xalqlardan ustunligi to'g'risidagi g'oyalari tufayli yahudiylilik dini – milliy din bo'lib, jahon dini darajasiga ko'tarila olmagan.*

Yahudiylarning bir necha bayramlari bo'lib, ular Pasxa, Shabuot (o'rim-terim) bayrami, Rosh-Ashona (yangi yil), Yom-Kipur (gunohlardan poklanish bayrami), "Bibliya" tarixiga bag'ishlangan bahor bayrami kabilarni keng nishonlaydilar.

***Yahudiylilikdagi oqimlar.*** Yahudiylilikdagi oqimlar qadimiy oqimlar va zamonaviy oqimlarga bo'linadi. **Qadimiy oqimlarga** saduqiylar, farziylar, yesseylar kiradi. **Zamonaviy oqimlarga** sionizm kiradi.



Yahudiylilikdagi eng qadimgi ramz

*Saduqiy* nomi podsho Dovud payg'ambar davrida yashagan ruhoniq Saduq nomi bilan bog'liq. Ko'plab mansabdor ruhoniylar saduqiy bo'lganlar. Ular diniy ishlarda faqat qonun (Musoning besh kitobi)ni tan olganlar. Qonunda ruhoniylar, qurbanliklar, ibodatlar haqida so'z boradi, lekin oxirat va qiyomat haqida hech nima deyilmagan. Saduqiylar oxiratga ishonmaydilar.

*Farziy* nomi qadimiy yahudiy tilidagi "tushuntirish", "ajratib ko'rsatish" so'zidan olingan bo'lib, ular Musoning qonunini sharhlaganlar va oddiy odamlarga o'rgatganlar. Farziylar Muso zamonidan beri og'zaki an'ana davom etib kelyapti, deb hisoblaydilar. Ular har bir avlod o'z ehtiyojlari uchun qonunni sharhlay oladi, deb ishonganlar. Farziylar qiyomatga, oxiratga ishonishgan.

*Yesseylar* Quddusda ibodat va qurbanlik qilish qonunga to'g'ri kelmay qoldi, deb hisoblaganlar va Quddusni tashlab, yahudiy sahrolariga chiqib ketganlar. O'sha yerda o'z

jamoalarini tashkil qilib, Xudo tomonidan keladigan xaloskor – Messianing kelishini kutib, ibodat qilib yashaganlar.

*Sionizm* - Quddus yaqinidagi Sion (Sinay) tepaliklaridan birining nomidan olingan bo'lib, shu tepalikda Musoga ilohiy kitoblar nozil qilingan. Sionizm dastlab yahudiylarning jahon miqyosida ta'qib qilinishiga qarshi tuzilgan harakat bo'lib, 1897 yili Shveytsariyaning Bazel shahrida yahudiylarning I Jahon kongressi chaqirilib, unda siyosiy oqim – ta'limot sifatida tashkil topgan.

Sionizmning maqsadi dastlab butun dunyodagi yahudiylarni bir joyga to'plab, yagona Isroil davlatini barpo etishdan iborat edi. Lekin u keyinchalik yahudiylarning millatchilik, shovinistik mafkurasi bo'lib qoldi.

Ayrim yahudiylar o'zlarini “oliy millat”, Xudo tomonidan tanlangan nufuzli xalq degan millatchilik kayfiyatini kuchaytirib, sionizmga ozuqa bermoqdalar. Sionistlar esa yahudiylar masalasi abadiy, har qanday sinflardan yuqori turadi, deb da'vo qilib, sionizmni jahondagi yahudiy millatning milliy-ozodlik harakati, deb e'lon qildilar.

Jahon hamjamiyati yahudiylarning iltimoslarini inobatga olib, BMT Bosh Assambleyasining 1947 yilgi qaroriga binoan Falastinda Isroil davlatini tuzishga ruxsat berdi. 1948 yil 14 mayda Isroil davlati tashkil topdi, yahudiylik uning rasmiy davlat dini deb e'lon qilindi, sionizm esa davlat mafkurasiga aylandi. Sionizm tashkilotining markazi AQShda bo'lib, u bugungi kunda juda katta kuchga ega.

***Yahudiylar Markaziy Osiyoda.*** Yahudiylar taxminlarga ko'ra Assuriya quvg'inlari natijasida mil.av. VII-VI asrlarda Eronga ko'chib kela boshlaganlar. Ahmoniyalar O'rta Osiyoni bosib olgan davrda yahudiylar Eron orqali bizning o'l kamizga ko'chib kelib turli shaharlarga joylasha boshlaganlar. Yahudiylar qayerga ko'chib bormasin, yahudiylik dini va uning muqaddas kitobi – “Tavrot”ni o'z e'tiqodining asosi qilib olganlar. Garchi ular Buxoro yahudiylari deb atalsa-da, ko'proq Samarqand, Kattaqo'rkon, Shahrisabz, Karmana va boshqa shaharlarda mahalliy aholidan chetroqda tinch hayot kechirishni afzal ko'rganlar. Keyinchalik ular Toshkent, Andijon, Qo'qon va boshqa shaharlarga ham tarqalganlar. Hozirgi paytda ularning aksariyati Isroil va yahudiylar jam bo'lib yashaydigan boshqa mamlakatlarga ko'chib ketishgan.

## VEDA DINLARI




Miloddan avvalgi I ming yillikda Hindiston aholisining ko'pchiligi e'tiqod qilgan din bo'lib, unda dastlab tabiat hodisalari ilohiylashtirilgan. Vedalar – “ilohiy bilim” yoki “muqaddas bilim” ma'nosini bildiradi. Bu dinda xudolar, tabiat kuchlari va hodisalari inson qiyofasiga o'xshatib tasvirlangan.

Vedalar tarkibiga turli davrlarda yozilgan bir necha kitoblar kirgan bo'lib, ular o'z ichiga ibodat, marosimlar, falsafiy ta'lilotlar, tarixiy xabarlarni olgan edi, lekin boshqa dinlardan farqli o'laroq, ular nihoyasiga yetkazilmagan va keyinchalik ularga qo'shimchalar kiritish imkoniyati saqlab qolningan.

### VEDALAR TO'RT YIRIK TO'PLAMDAN IBORAT

RIGVEDA	ATXARVAVEDA	SAMAVEDA	YAJURVEDA
“Madhiyalar vedasi”	“Afsun va jodular vedasi”	“Qo'shiqlar vedasi”	“Qurbanliklar vedasi”

Vedalarda 33 ta, ba'zi manbalarda 333 ta, hatto 3339 ta afsonaviy xudolar tilga olinadi. Bu xudolarning eng mashhurlari – Agni – olov xudosi, Indra – yomg'ir va momaqaldiroq, Surya – quyosh, Varuna – osmon, Soma – oy va kayf beradigan ichimliklar, Vritra – qurg'oqchilik xudosi kabilardir. Bu dinda xudolarga qurbanlik qilish, sig'inish asosiy ibodat hisoblanib, xudolarga ovqat, hayvonlar, maxsus ichimliklar (soma) ehson qilish va boshqa rasm-rusumlar bajariladi. Unda dastlab alohida ruhoniylar va ibodatxonalar bo'lмаган. Keyinchalik kohinlar va ularning yuqori tabaqalari – braxmanlar kelib chiqdi.



***Braxmanlik*** vedalar dini marosimlarining o'ta murakkablashib ketishi va aholining ularni bajarishi qiyinlashganligi oqibatida kelib chiqdi. Dastlabki davrda kohinlar hali

tabaqa bo'lib ajralmagan, barcha ibodat marosimlari oddiy taqvodorlar tomonidan ado etilgan. Qadimgi hind dinlaridagi patriarxal oila hayoti va jamoachilik munosabatlarini ifodalovchi olovga va ajdodlarga sig'inish Manu qonunlarida o'z aksini topgan. Unda aytilishicha, ota-bobolar dastlabki xudolardir. Veda kitoblarining diniy madhiyalarida ham ajdodlar ruhiga sig'inish muhim o'rinni egallaydi.

Hind jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichida ijtimoiy tabaqalanish kuchayib, yangi dinlar yuzaga keladi. Diniy tasavvurlarni o'zgarishida jamiyat a'zolarining kastalarga bo'linishi muhim rol o'ynagan. Asosiy kastalar:

- braxmanlar – kohinlar;
- kshatriylar – harbiylar;
- vayshiylar – savdogarlar va hunarmandlar;
- shudralar – xizmatkorlar, kambag'allar va qullar.

Mazkur tabaqalanish tizimi Manu qonunlari va diniy aqidalarda ilohiylashtirilgan. Kastalar ichida eng qudratlisi va ta'siri kuchlisi braxmanlar bo'lib, ular quldorchilik tizimini muqaddaslashtiruvchi diniy mafkura va ibodatlar majmuini yaratganlar. Braxmanlik ayrim quldorlarga atalgan nihoyatda murakkab qurbanlik ibodati va har xil marosimlardan tashkil topgan. Marosimlarda dastlabki davrlarda hatto asir tushgan odamlarni olov xudosiga qurban qilganlar. Keyinchalik odamlar o'rniga hayvonlarni qurban qiladigan bo'lishgan. Asirlar esa qulga aylantirilgan.

Braxmanlikda Vedalar dinidagi ko'pgina xudolarning o'rniga uchta xudo: Braxma, Shiva, Vishnu qabul qilingan. Braxma – koinotni yaratuvchisi, unga jon ato etuvchi, Shiva – tabiatni vayron etuvchi, ya'ni yovuz, Vishnu – tabiatni saqlovchi, muruvvatli deb tushunilgan. Ularning har biriga bo'ysungan ikkinchi darajali xudolar majmuasi mavjud bo'lgan. Ularga atab dabdabali ibodatxonalar qurilgan, toshdan, metalldan ajoyib haykallar yaratilgan. Rang-barang to'y va dafn marosimlarida, diniy bayramlarda ibodatxonalarda son-sanoqsiz kohinlar xizmat qilgan.

Ko'pchilik Hindistonda sigir hozirgacha muqaddas deb e'zozlanishini, ko'chalarda, odamlar yashaydigan joylarda va hatto bozorlarda bemalol yurishini, xohlasa ko'kat va mevalarni yeb qo'yishini biladi. Bu braxmanlikdan qolgan bo'lib, bu dinda sigir bilan birga maymun, ayrim o'simliklar ham muqaddas sanalgan.



**Hinduiylik** termini Yevropaliklar tomonidan XIX asrda kiritilgan. Bu din, asosan, Hindistonda tarqalgan bo'lib, mamlakat aholisining 83 foizi shu dinga e'tiqod qiladi. Bundan tashqari, Bangladesh, Indoneziya, Shri Lanka, Pokiston, Malayziya va AQShda ham hinduiylarning yirik jamoalari mavjud. Bugungi kunda 750 mln. kishi shu dinga e'tiqod qiladi.

Hinduiylik juda murakkab din. U bir tomondan yirik ijtimoiy tashkilot, ikkinchi tomondan turli dinlar qorishmasidir. Qadimgi vedalar va braxmanlik asosida mil.av. V asrda vujudga kelgan. U diniy tasavvurlar, urf-odatlar, diniy marosimlar va hayotiy tartibotlar yig'indisidan iborat. Alovida diniy e'tiqod sifatida o'rta asrlarda hukmron mafkuraga aylangan.

**Hinduiylik brahmanlik bilan buddaviylik o'rtasida kastachilik masalasi** *dagi kurash oqibatida vujudga kelgan*. Buddaviylik dini kastachilik tartibini bekor qilishni targ'ib qilgan. Kastachilik tartibi bekor bo'lsa, jamiyatda hukmron mavqeni yo'qotishlarini yaxshi bilgan brahmanlar o'z oldilariga brahmanlikni isloh qilish vazifasini qo'yganlar. Shu tariqa brahmanlik dinini isloh qilish natijasida hinduiylik dini paydo bo'lган. Ibodatxonalar buddaviylik ibodatxonalaridan ham kattaroq qilib qurilgan. Brahmanlik dinida samoviy tarzda aks ettirilgan xudolarni hinduiylikda odamlarga yanada "yaqinlashtirish" maqsadida insonga o'xshatib tasvirlaganlar. Shu tariqa, avval samoviy bo'lган xudolar, endilikda xalq xudolariga aylangan. Hinduiylik milodning I ming yilligi boshlarida vujudga kelgan bo'lsa, oradan 500 yil o'tib davlat diniga aylangan.

Hinduiylikning tez orada Hindistonda keng tarqalishiga sabab, bu din buddaviylikning insonparvarlik g'oyalarini qabul qilgan. Aholining eng imtiyozsiz tabaqalariga ham ibodatda ishtirok etishiga ruxsat berilgan va ular ham yaxshi sifat bilan qayta tug'ilish istiqboliga ega, deb ta'lim bergen. Bu din boshqa dinlar bilan kelisha olish xususiyatiga ega. **Hinduiylikning milliy din chegarasidan chiqa olmaganligining asosiy sababi esa kastachilik to'g'risidagi ta'limotdir**. Chunki hinduiylikka qabul qilishning asosiy sharti – bu dinga kirishni istagan odam 4 kastaning birortasiga mansub bo'lshlikdir.

Hinduiylik ta'limoti ko'p xudolikka asoslangan. Hinduiylikda, ta'kidlanganidek, **Braxma**, **Vishnu**, **Shiva** xudolari asosiy xudolar sanaladi. Bu dinning ta'limotiga ko'ra, olamni Braxma yaratgan. Biroq hozirgi davrda faqat Vishnu va Shivaga sig'iniladi. Hinduiylikning ikki asosiy oqimi ham *Vishnuga sig'inuvchilar* va *Shivaga sig'inuvchilarga* bo'linadi.



Shiva oddiy xalq ommasi – kambag'allarning xudosi hisoblanadi. U vedalarda Agni, Maxadeva (buyuk xudo) nomlari bilan ham ataladi. Xalq orasida Shivaning 1008 ta nomi bor. Shivaga sig'inuvchilar o'ndan ortiq oqimlarga bo'linadilar. Ayrim mayda oqimlari odamlarni qurbanlik qilishi bilan ajralib turadi.

Vishnu – tabiatga jon ato etuvchi quyosh xudosidir. Rigvedada Vishnu juda saxiy qilib tasvirlangan. Uni Savitar, Roxita, Surya, Adita nomlari bilan ham ataydilar. Yarim inson, yarim xudo shaklidagi Krishna Vishnuga qo'shilib ketgan, deb tasavvur qilinadi. Vishnuga sig'inuvchilarning ommaviy ibodat marosimlari juda ham murakkab bo'lib, uzoq vaqt davom etadi. Ammo inson yoki hayvonlar qurbanlik qilinmaydi. Hinduiylik ta'limotiga ko'ra, olam ma'lum davr ichida yashaydi. Olamning har bir yashash davri 4 milliard 320 million yilga teng deb hisoblanadi. Bu vaqt ichida yuksak taraqqiyot so'nib, yemirilish sodir bo'ladi, deb tasavvur qilinadi.

Bu dinda ajdodlar ruhiga, tog'lar, daryolar (xususan Gang), nilufar o'simligi, hayvonlardan sigir, fil, maymun, ilon va boshqalarga sig'inishadi, ularni muqaddas hisoblashadi. *Ruhning ko'chib yurishi to'g'risidagi ta'limot* hinduiylikda barcha dindorlar uchun asosiy ta'limotdir. Unga ko'ra, kishi o'lgandan keyin uning joni o'simlik, hayvon yoki inson tanasiga kirib olish yo'lli bilan qayta tug'iladi. Yangi ruhning qayta tug'ilishi karma qonuniga, ya'ni kishining hayoti davridagi hulq-atvoriga bog'liq. Hayotning asl maqsadi ruhiy mutlaqqa – Braxmaga erishish, unga qo'shilib ketishdir.

Hinduiylikning muqaddas  
kitoblari



***VEDALAP UPANISHADLAR,  
MAHABHORAT, BHAGAVADGITA,  
RAMAYANA***

Hinduiylik dini talablariga ko'ra, murda ko'milmaydi, kuydiriladi. Murda Gang daryosi yoqasida kuydirilsa u jannatga tushadi. Kishilar daryo suvidan idishlariga solib

o'zлари билан олиб келиб, мархумнинг ко'mish маросимида иштирок этишга улгурмаган qариндош-уруг'ларига улашиб ичирадилар. Унинг яна ко'пгина маросимлари мавjud.




Jaynizmning ramzi

**Jaynizm** - mil.av. VI asrda Hindistonda vujudga kelgan.

Jaynizmning kelib chiqishi haqida ko'plab kitoblarda afsonaviy rivoyatlar mavjud. Rigvedada jaynizm ta'limotining asoschisi Rishabxanining Vishnu xudosida mujassamlashgani haqida yozilgan. Bu ma'lumotlardan jaynizm veda dinlaridan ham qadimiyroq ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Jaynizm dini vakillarining e'tiqod qilishicha, bu din ta'limotiga 24 tirtxakar (payg'ambar yoki avliyo) asos solgan. Ushbu payg'ambarlarning 22 tasi haqida ma'lumot deyarli yo'q, 23-si – Vardxamana Maxavira (u Jinna ham deyilgan) bo'lган. Jinna (g'olib) barcha to'siqlarni yenggan shaxs sifatida tanilgan. Jinna tarafdorlari o'zларining afsonaviy payg'ambariga xudoga sig'ingandek sig'inishgan.

Jaynizm falsafiy oqim sifatida mil.av. II-I asrlarda shakllangan. Bu falsafaning *asosiy manbai "JAYNASUTRA"* (jayna aforizmlari)dir.



deyarli barcha hind dinlari uchun umumiyo bo'lган karmalar va nirvana haqidagi ta'limot hisoblanadi. Nirvanaga erishgan inson qayta tug'ilishdan ozod bo'ladi. Bunga esa faqat tarkidunyo qilganlargina erishishi mumkin, deb hisoblanadi

Jaynizm tarafdorlari olamni ilohiy kuch yaratgani va uning borliq ustidan nazorat qilib turishini tan olmaydilar. ***Jaynizm ta'limotiga ko'ra ruh – abadiy, olam esa azaliy va o'z-o'zidan mavjud.*** Ular olam ikki xil – jonli va jonsiz moddiyatdan iborat deydilar. Maxaviraning fikricha, dunyodagi har bir jism, uning jonli yoki jonsiz bo'lishidan qat'i nazar, qandaydir darajadagi anglash xususiyatiga ega. Shuning uchun bu dinda axinsa – zarar yetkazmaslik qoidasiga ko'proq e'tibor beriladi, ya'ni jonli yoki jonsiz narsalarga ozor yetkazmaslik talab qilinadi.

Bu din kastachilik tuzumiga qarshi edi. Jaynizmda moddiy dunyo yovuzliklardan iboratligi va odam ana shulardan xalos bo'lishi uchun kurashmog'i kerakligi ta'limot


darajasiga ko'tarilgan. Lekin bunga faqat taqvodorlik bilan hayot kechirish orqaligina erishiladi.

## JAYNIZMDA IKKITA ASOSIY YO'NALISH MAVJUD

**Digambarlar** (“moviy kiyim kiyganlar”) – hayotning barcha lazzatlaridan, hatto nikohga kirishdan ham voz kechuvchilardir, ular oddiy hashoratlarga ham ziyon yetkazmaydilar. Jaynizmning asl holatini saqlab qolishga ko'proq ahamiyat bergenlar

**Shvetambarlar** yoki **svetambarlar** (“oq kiyim kiyganlar”) bo'lib, ular eski qonun va aqidalarni tiklab, ularga qonun tusini berish, hayotning hamma lazzatlaridan ham voz kechmaganlarga bo'linadilar

*Jaynizmning talablari g'oyatda qattiq bo'lganligi va tarkidunyochilikni targ'ib qilgani uchun Hindistonda keng tarqalmay qolgan.*



**Sinkhiylik** – XVI asrda Shimoli-G'arbiy Hindistonda vujudga kelgan din. Hozirgi davrda sinkhiylik diniga e'tiqod qiluvchilarning soni 17 million atrofida bo'lib, Hindistondagi dinlarning kattaligi jihatidan to'rtinchi o'rinda turadi. Hindiston siyosatida sinkhiylik omili katta o'rin tutadi va bu dinga qiziquvchilarning soni ortib bormoqda.

“Sinkh” so'zi sanskritcha bo'lib, “shogird” degan ma'noni bildiradi. Uning asoschisi Panjobda tug'ilgan guru (ustoz) Nanakdir (1469-1539). Unga ergashganlar o'zlarini shogirdlar deb atashgan.

**Sinkhiylik dinining vujudga kelishiga 2 ta sabab bor. Birinchisi – Hindistonda uzoq vaqt insonlarning sha'ni va huquqini kansitib kelgan kastachilik va ikkinchisi – musulmonlarning mamlakatga bostirib kirishi bo'lgan.**


Bu dinga keyinchalik dehqonlar ham qo'shiladi va diniy jamoa harbiy-demokratik tashkilot tusini oladi. Sinkhiylikdagi asosiy g'oya diniy tabaqlanishni tugatish, hammani yagona dinga birlashtirishdir.

Sinkhiylik harakati XVII asrda Panjobda kuchli davlatni tuzish bilan yakunlandi. Bu davlat inglizlar bosib olgungacha, ya'ni 1859 yilgacha yashadi.

***Sinkhiylik ta'lilotiga ko'ra, xudo yagona va abadiydir.*** Hinduiylikdagi Braxma, Vishnu, Shiva va islomdagi Alloh bir ilohda mujassam bo'ladi. Xudoga bo'lgan ishonch, sadoqat va muhabbat yo'lini tutgan inson unga yetishishi va u bilan birlashib ketishi mumkin. Xudoni sevish ayni paytda odamlarga mehr-muhabbatni ham ifodalaydi. Bu esa o'z navbatida kastachilikni, insonning jamiyatdagi mavqeini va uning diniy e'tiqodini hisobga olmaydi, xudo oldida boy ham, bechora ham, boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar ham tengdir. Xudo har bir odamning qalbida bo'lmosg'i lozim. "Har bir sinkhiyning hayotdagi asosiy maqsadi, - deb ta'lim beradi bu din, - xudoni to'la anglab yetishidir". Bu dinda o'zini xudoga baxshida etish uning dunyoviy hayotdan yuz o'girishini bildirmaydi, aksincha, bu din faollik bilan hayot kechirishni qo'llab-quvvatlaydi, uning asosida mehnat yotishi kerak, deb hisoblaydi.

Sinkhiylikda inson taqdiri haqidagi aqida mavjud bo'lib, uning taqdiri hayotligida qanday ishlar qilganligiga bog'liq. Insonda 5 ta qusur mavjud, deb ta'lim beradi bu din. Bular *nafrat*, *kibr-havo*, *ochko'zlik*, *hayot ne'matlariga o'chlik* va *unga butunlay bog'lanib qolishdir*.

Bu dinning ibodatxonalar 4 tomonidan kiramagan qilib qurilgan bo'lib, uning eshiklari 4 ta kasta uchun ham ochiqdir, degan ma'noni bildiradi. Jamoaga qabul qilish onglilik va ixtiyorilik asosiga qurilgan, jamoa a'zolari bir qancha rasm-rusumlarni bajarishlari, chunonchi, xanjar, temir bilakuzuk taqib olishlari, kalta charm shalvar kiyib yurishlari, soch-soqolini oldirmasliklari talab etiladi.



## UZOQ SHARQ DINLARI

*Konfutsiychilik* mil.av. 551-479 yillarda yashagan qadimgi Xitoy mutafakkiri, faylasufi va pedagogi Kun-Tszi (Konfutsiy) asos solgan falsafiy, axloqiy, diniy ta'limot. *Ta'limotning manbai - Konfutsiyning izdoshlari yozgan “Lun-yuy” (“Suhbatlar va mulohazalar”)* *kitobidir*. Milodning boshlarida konfutsiychilik dinga aylangan va Konfutsiy ilohiylashtirilgan. Xan sulolasiga hukmronligi davrida esa davlat diniga aylantirilgan.




*Konfutsiychilik ta'limotiga ko'ra, jamiyatda osmonidan yuborilgan “Jen” – insonparvarlik qonuni amal qiladi.* Dunyodagi barcha mavjudot singari insonning taqdirini ham “osmon” belgilaydi. Bu din taqdirga ishonish masalasini qattiq qilib qo'yadi. Odamlarning oliyjanobligi yoki tubanligini, yuqori yoki past tabaqaga mansub ekanligini o'zgartirib bo'lmaydi, deb ta'lim beradi. Kichik kattaga, pastda turuvchi yuqorida turuvchiga so'zsiz itoat qilmog'i lozim, deb tushuntiriladi. Bu tengsizlik “osmon irodasiga” bog'liq deb hisoblanadi. Konfutsiyning fikricha, har bir inson jamiyatda o'zining tutgan o'rnnini bilishi kerak, “podsho podsholik qilishi, xizmatkor xizmatkorlik, ota otalik, o'g'il o'g'illik qilishi zarur”.



Konfutsiychilikning axloqiy ta'limotidagi asosiy tushuncha – Jen (insonparvarlik) ham zodagonlar hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan, faqat zodagonlarga xos insonparvarlik, uning ta'rificha, dastavval ota-onal hurmati va kattalarga bo'ysunishidan iborat. Davlatni katta oilaga o'xhatgan konfutsiychilik insonparvarlik tushunchasi asosida

“osmon o'g'li podshoni ota-onadek hurmat qilishi, unga itoat qilishini oliy burch” deb biladi. Kishining hayot maqsadi amaldorlarga, podshoga xizmat qilishdir. Shuning uchun ham konfutsiychilik eng avval boshdanoq hukmron sinf manfaatlarini himoya qilish, odamlarni mavjud tartib-qoidalarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashni maqsad qilib qo'yan qarash sifatida vujudga kelgan.

Jamiyatning qanday bo'lishi ko'pincha inson xatti-harakatiga bog'liq, deyiladi Konfutsiy ta'limotida. U hamma qusurlardan xoli bo'lган inson idealini yaratib, barchani ana shu yuksak insonday yashashga da'vat etgan. Bunday odam insonparvarlik va o'z burchini ado etishdek yuksak fazilatga ega bo'lishi kerak.



Odamlarga insonparvarlik qonunini Osmon ("jen") yuboradi, jamiyat a'zolari uni o'rganib olishi uchun axloq me'yorlariga, qoidalariga, urf-odat, marosimlarga amal qilishi, jamiyatda egallab turgan mavqeiga qarab ish tutishi lozim.

Konfutsiyning yana bir ta'limoti - "Syaо" bo'lib, u inson o'z ota-onasiga munosib bo'lishi haqidagi g'oyani o'zida mujassam qilgan. Konfutsiy fikricha, inson uchun Syaodan muhimroq narsa yo'q. U: "Syaо va Di (ukaning akaga, kichikning kattalarga hurmati) insoniylikning asosidir" degan.

Boshqa dinlarda bo'lган kohinlik, g'ayritabiyy kuchlarga ishonish bu ta'limotda yo'q. "**Lun-yuy**" (Konfutsiyning falsafiy fikrlari va suhbatlari majmuasi)da keltrilishicha, Konfutsiy g'ayritabiyy narsalar va ruhlar to'g'risida gapirishni yoqtirmagan. Konfutsiy faqat belgilangan diniy tartiblarni qattiq turib bajarishga, ma'lum marosimlarga qat'iy amal qilishga undaydi.

Konfutsiyning o'zi hayotligida diniy qoidalarni sidqidildan bajargan. Diniy marosimlarning asosiy mazmuni ajdodlar ruhiga sig'inishdir. Har bir oilaning o'z ibodatxonasi bo'lib, unga ajdodlarining timsoli bo'lган "Chju" tasvirini joylashtirgan va uning yoniga qurbanliklar qo'yib, diniy marosimlarni bajargan.

Davlat amaldori bo'lishning shartlaridan biri – konfutsiychilik dini asoslarini mukammal bilish bo'lган. Bu dinda ruhoniylar qatlami bo'lмаган, hamma marosimlar davlat amaldorlari tomonidan ado etilgan.



**Daosizm.** Daosizm falsafiy ta'limot sifatida Xitoyda mil.av. birinchi ming yillik o'rtalarida konfutsiychilik bilan deyarli bir vaqtda paydo bo'lган. Dastlab bu ta'limotning din bilan hech qanday aloqasi bo'lмаган. Daosizm o'zining ilk ko'rinishlarida shamanizm, folbinlik, tabiblik bilan bog'liq bo'lган. Shamanlar davolash

uslublarida inson tanasidagi jarayonlarni tashqi fazoviy kuchlar, har xil ruhlar ta'siri bilan bog'lab, jodugarlik va sehrdan keng foydalanganlar.

Daosizmida mil.av. IV-III asrlarga kelib nazariy asarlar paydo bo'la boshladi. Xitoy donishmandi Lao-Tszining qalamiga mansub “*” kitobida bu dinning falsafiy prinsiplari bayon qilingan. Lao-Tszi mil.av. VII asrda tug'ilgan, Konfutsiyning zamondoshi hisoblanadi.*

Lao-Tszi ta'limotiga ko'ra, tabiat, jamiyat va butun borliqning asosi “Ulug’ Dao” hisoblanadi. “*”- yo'l degani bo'lib, u osmon xudosi ramziga yaqin bo'lган. Odamlar shu yo'l bilangina dunyoning turli-tumanligini bilib oladi. Bu dinning ta'limotiga ko'ra, baxtiyor bo'lishni istagan har bir odam faqat shu yo'ldan borishi, daoni tan olishi va u bilan birlashib ketishi lozim. Daosizm faoliyatsizlikni targ'ib qilgan.*

Daosizm dinida 3 xudo – *Shan-Di*, *Lao-Tszi* hamda dunyoning yaratuvchisi *Pant-Gu* boshchiligidagi xudolar panteoni shakllangan. “*” diniy mazmun kasb etgan yo'lgina bo'lib qolmay, ayni paytda u hayot tarzi, usuli, prinsiplari hamdir. Lao-Tszi ta'limotida dialektik qarashlar bilan birga faoliyatsizlik, harakatsizlik, xotirjamlik kabilar muhim o'rin tutadi. U podsho hokimiyatini juda yuqori qo'ygan. Uning fikricha, dao ulug', osmon ulug', yer ulug', podsho ulug'.*

*Shan-Di* osmon xudosi, oliy ruh, qudrat va osmon o'g'illari bo'lган imperatorlarning otasi bo'lган. Bu din o'z ibodatxonalar, muqaddas kitoblari va ruhoniylariga ega.

V asrga kelib daosizm diniy ta'limotga, marosimlari rasmiylashtirilib davlat diniga aylantirilgan. Unga e'tiqod qilganlarning dunyoqarashlari turlicha bo'lib, ular ichida dunyodan yuz o'girgan zohidlar ham, oliy xuzur-halovatga erishmoqchi bo'lганlar ham bor. Keyinchalik bu din hukmdor sinfning manfaatiga bo'ysundirildi va yuqori tabaqaga xizmat qila boshladi.



Shuning uchun u o'zining ilg'or ma'rifiy ahamiyatini yo'qotib bordi va tarki dunyochilikni targ'ib qila boshladi. Shu sababli uning tarafдорлари kamayib ketdi.

**Sintoizm (shintoizm).** Sintoizm dini qadimgi Yaponiyada vujudga kelgan. “Sinto” – yaponchada “xudo yo'li” degan ma'noni bildirib, u milodiy VI-VII asrlarda shakllangan.

Bu dinning vujudga kelishida buddaviylikning ta'siri juda katta. Buddaviylik ibodatxonasiga taqlid qilib sintoizm ibodatxonalarini ham qurila boshlagan, xudolar tasvirlari yasalgan. Yaponiyada ikki din bir-biri bilan yaqinlashib, buddaviylar ibodatxonalarini ichida sintoizm xudolari uchun burchaklar tashkil etildi. Bu xudolar “kami” deb atalib, ba'zan ular buddaviylik xudolari bilan tenglashtirilgan. Ayni paytda sintoizm xudolari dafnxonalari buddaviylik xudolari bilan to'ldirilgan. Yaponiya imperatorlari shu joylarga dafn qilingan. Bugungi kunda Yaponiyada sof buddaviy yoki sintoizm dinidagi odam kamdan-kam uchraydi. Sintoizm buddaviylik bilan aralashib ketgan bo'lsa-da, sintoizm dinida milliy ruh nihoyatda kuchli. Yaponlarning tasavvurida sintoizm xudolari faqat yaponiyaliklarni yaratgan.

*Bu dinning ta'limotiga ko'ra, mikado (imperator) – osmon ruhlarining davomchisidir. Oddiy insonlar esa ikkinchi darajali ruhlar – “kama”larning vorislaridir.* Yaponlar kamaga ajdodlar va qahramonlarning ruhlari deb e'tiqod qiladilar. Xudojo'y yapon vafot etgandan keyin o'zining ham o'sha kamalardan biri bo'lishiga ishonadi.



Sintoizm ko'p xudolik dini bo'lib, unda quyosh xudosi – *Amaterasu*, bo'ron xudosi – *Susano-vo*, dehqonchilik xudosi – *Inari* bor. Sintoizm aqidalari buddaviylikka nisbatan ancha soddaligi bilan ajralib turadi.

*Sintoizm ta'limotining asosini – imperator hokimiyatining ilohiyligi to'g'risidagi aqida tashkil etadi.* Imperator saroyi muqaddas joy hisoblanadi. Ular dafn etilgan joy e'zozlanib, muhim davlat ahamiyatiga ega bo'lган marosimlar va bayramlar ularni xotirlash kuniga bog'lab o'tkaziladi.

Din talabiga ko'ra, oila boshlig'i har kuni ibodat qiladi va qurbanlik keltiradi. Har bir oilada mehrob bo'lib, undagi kichkina qutichaga vafot etgan oila a'zolarining nomi yozib boriladi.

Sintoizm marosimlari juda sodda bo'lib, unda duo so'zlari o'qiladi, guruch, sabzavot, baliq kabilar qurbanlik qilinadi. Bu dinda tozalik, poklikka juda katta e'tibor beriladi. Har yili 30 iyul va 31 dekabrda umumxalq poklanish tadbirlari o'tkaziladi.

Yaponiyada diniy fanatizm va diniy ziddiyatlar kam uchraydi. Hozirgi paytda yaponlar o'rtasida sintoiylikning ta'siri unchalik kuchli emas.

1867-1868 yillardagi Meydzi islohoti natijasida Yaponiyada imperatorning dunyoviy hokimiyati tiklanib sintoiylik davlat diniga aylantiriladi. Shu munosabat bilan imperator buddaviylikni man etishga urinib ko'radi, lekin buddaviylik dini yaponlar hayotiga chuqur kirib ketganligi uchun bu harakat natijasiz qoladi. Maqsadi amalga oshmagach, hukmonron doiralar bu ikki dinni bir-biridan ajratib tashlashga urinib ko'radilar va sintoiylik ibodatxonalaridan buddaviylikka oid tasvirlar, buyumlarni chiqarib tashlaydilar. Lekin bu ham to'la oxiriga yetkazilmadi. 1869 yilda Yaponiyada diniy e'tiqod erkinligi e'lon qilinadi. Shundan keyin hayotiy marosimlar (chaqaloqqa duo o'qish, nikoh) sintoiylar ibodatxonasida, dafn, xotirlash marosimlari buddaviylik ibodatxonalarida o'tkaziladigan bo'ldi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Yahudiylik dinining eng ahamiyatli jihatni nima?
2. Yahudiylik dini nima uchun jahon diniga aylana olmagan?
3. Qanday sabablarga ko'ra hinduiylik Hindistondagi eng nufuzli dinga aylandi?
4. Nima uchun hinduiylik jahon diniga aylanmadidi?
5. Jaynizm ta'limotining xususiyatlarini yoriting.
6. Sinkhiylikdagi iloh qanday tasavvur qilinadi?
7. Konfutsiychilik ta'limoti nimalardan iborat?
8. Lao-Tszi ta'limoti haqida nimalarni bilasiz?
9. Nega Yaponiyada buddaviylik diniga e'tiqod qilishni man etib bo'lmaydi?

10. Olamning yaratilishi haqidagi quyidagi matn qaysi milliy dinning muqaddas kitobidan keltirilganligini aniqlab, o’z fikringizni bildiring: “Shu zaylda osmon bilan yer hamda ulardagi borliq mavjudot yaratilib bo’lindi. Xudo o’z faoliyatini yettinchi kunda tamomlab, u kunda barcha qilgan ishlaridan tindi. Xudo yettinchi kunni muborak va muqaddas qilib ayirdi, chunki ushbu kunda U o’zining butun yaratish faoliyatidan tingan edi...”.

### **Adabiyotlar**

1. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi/ Tarjima va izohlar muallifi A.Mansur.—T.: “Toshkent islom universiteti”, 2001.
2. Bibliya. —Moskva, 1997.
3. Injil. Turkiya muqaddas kitob jamiyati. 1996.
4. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. II том. —Т., 1968.
5. Jo’raev U., Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. —Т., “Sharq”, 1998.
6. Mo’minov A., Yo’ldoshxo’jaev X. va boshqalar. Dinshunoslik (derslik). —Т., “Mehnat”, 2004.
7. Васильев Л.С. История религий Востока. —М., 1975.
8. Васильев Л.С. Культы, религии, традиции в Китае. М., 1970.
9. Индуизм. Джайнизм. Сикхизм. Словарь. —М., 1996.
10. История китайской философии. —М.: “Прогресс”, 1989.
11. Конфуций. Жизнь, учение, мысли, изречения, афоризмы. —М., 1998.
12. Кулаков А.Е. Религии мира. —М., 1996.
13. Торчинов Е.А. Даосизм: опыт историко-религиоведческого описания. Санкт-Петербург, 1994.
16. Фарманова Б. Религиоведение. —Т., ТДЮИ, 2006.
17. Федоренко Н.Т. Земля и легенды Китая. М., 1961.
18. Шарифов В.А. Даосская йога. Бишкек, 1993.

## BUDDAVIYLIK

### Reja:

**1. Buddaviylikning paydo bo'lishi** (buddaviylikning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar; buddaviylik asoschisining shaxsi).

**2. Buddaviylik ta'limoti** (buddaviylikning to'rt oliy haqiqati; buddaviylikning uch amaliy qismi; xinayana, maxayana va lamaizm oqimlari).


**3. “Tripitaka” – buddaviylikning asosiy manbasi.**

**4. Marosim va bayramlari.**

**5. Buddaviylikning tarqalishi** (buddaviylikning tarqalishida Sangxa jamoalarining roli; buddaviylikning Old Osiyo va Markaziy Osiyoga kirib kelishi; buddaviylikning jahon diniga aylanishi).

**Tayanch so'zlar:** Buddha, Siddharta, Gautama, Shakya, Tripitaka, Vinayapitaka, Sutrapitaka, Abhidhammapitaka, sansara, karma, dharma, sakkizlik yo'li, to'rt oliy haqiqat, meditatsiya, Pancha shila, Nirvana, bodhisatva, arxat, Ashoka, Manu, sangx, xinayana, maxayna, lamaviylik.

**Maqsadi:** buddaviylikning paydo bo'lish tarixini, ta'limoti, muqaddas manbalari, oqimlari va marosimlarini o'rghanish, uning jahon diniga aylanish sabablarini va hozirgi zamonda tutgan o'rmini tahlil qilish.



Buddaviylik – jahon dinlari ichida eng qadimiysidir. Bu din mil.av. VI-V asrlarda vujudga kelgan. “Buddaviylik” terminini fanga XIX asrda yevropaliklar kiritgan, buddaviylar esa o'z dinlarini dharma (qonun, ta'limot) yoki Buddhadharma (Buddha ta'limoti) deb atashadi. Hozirgi kunda buddaviylik Shri-Lanka, Nepal, Butan, Xitoy, Malayziya, Singapur, Indoneziya, Koreya,

Mongoliya, Vietnam, Yaponiya, Tailand, Birma, Laosda keng tarqalgan. Bu dinka e'tiqod qiluvchilar qisman Evropa va Amerika qit'alarida ham bor. E'tiqod qiluvchilarning soni jihatidan buddaviylik dinlar orasida to'rtinchi o'rinda turadi.

*Buddaviylikning turli millatlar tomonidan keng qabul qilinishining sababi, uning turli millatlar va diniy an'analar bilan kirishib keta olishidir.* Buddaviylik dastlab diniy-falsafiy ta'limot sifatida yuzaga kelgan bo'lsa-da, bugungi kunda uni mafkura, madaniyat to'plami yoki hayot tarzi deb baholash mumkin.


***Buddaviylikning vujudga kelishi.*** Buddaviylik er.av. VI-V asrlarda Hindistonda yuzaga kelgan davrda bu yurtda urug'-qabilachilik munosabatlari yemirilib, dastlabki davlatlar shakllanayotgan edi. Ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi kishilar hayotiga doimo salbiy ta'sir ko'rsatib kelgan. Buning ustiga kastachilik tartibi juda ham



kuchayib ketgan edi. Aholining past tabaqalari ahvoli chidab bo'lmas darajada og'irlashadi. Braxmanlikdagi tabaqaviy yondashish, toat-ibodatlarning tor doiradagi kishilar tomonidan xalqqa tushunarsiz tilda olib borilishi kabi omillar braxmanlikni yot e'tiqodga aylantiradi. Brahmanlik dini hatto chalg'itish ko'rinishida bo'lsa ham xalq ommasiga og'ir ahvoldan qutilish yo'llarini ko'rsata olmagan.

Ana shunday sharoitda buddaviylik najotkor din sifatida vujudga kelgan. Buddaviylikning tez orada Hindistonda keng tarqalishiga bir nechta sabablar bo'lgan. Ularning *birinchisi*, kasta tuzumini inkor etganligidir. Eng past, huquqsiz kasta a'zolari ham buddaviylarning monaxlik jamoasiga a'zo bo'lib kira olar, ular jamoaning teng huquqli a'zosiga aylanar va ma'lum insoniy huquqlarga ega bo'lardilar. *Ikkinci sababi*, bu din og'ir qurbanliklar qilishni, murakkab marosimlar bajarishni talab etmagan. Buddha va uning shogirdlari yangi dinning ta'limoti mazmunini sodda tilda hammaga tushunarli qilib bayon qilib berishgan. *Uchinchi sababi esa*, bu din ta'limotidagi "kuch ishlatmaslik" to'g'risidagi qoida yuqori tabaqalar manfaatiga ham mos kelardi. O'z fuqarolarini itoatda tutishlariga yordam bergani uchun ham hukmdor tabaqalar bu dinni qo'llab-quvvatlaganlar.

**Buddaviylikning asoschisi.** Bu dinning asoschisi shahzoda Siddxartxa Gautamadir. Uning otasi Shakya qabilasining hukmdori Shuddxodana Shimoliy Hindistondagi Gang daryosining O'rta oqimi (hozirgi Nepal davlati yaqinida) joylashgan Kapilavasti viloyatining hukmdori bo'lган. Onasi Mayya u go'dakligidayoq vafot etib ketgan.



Buddha mil.av. 623 yilda tug'ilib, 543 yilda 80 yoshida vafot etadi. Siddxartxa 29 yoshida oilasini, ota saroyini tashlab, tarki dunyo qilgan. U kishilar boshiga tushadigan kulfatlar sabablarini o'rganish va ularni bundan qutqarish maqsadida rohiblarga qo'shilib qishloqma-qishloq kezib yurgan. Bir qancha vaqtdan keyin rohiblarning ma'lum maqsadlari yo'qligini anglab, ulardan ajralgan va braxmanlikdan ham yuz o'girgan. Siddxartxa o'rmonga borib, diniy kitoblarni mutolaa qiladi va yangi ta'limot yaratishga urinadi. Nihoyat 36 yoshida u "haqiqiy bilim"ni topganligini e'lon qilgan. Shundan so'ng u "Budda" ("nurlangan", "soflangan", "haqiqatga erishgan") degan nom olgan.

Buddha o'zining ta'limotini dastlab Banorasda, keyin umrining oxirigacha 40 yil davomida Hindistonning turli shahar va qishloqlarida targ'ib qilgan. Buddaning shogirdlariga aytgan so'nggi vasiyati shunday bo'lган: "Xirsu havas jamiyki baxtsizliklarning sababchisidir. Vaqt o'tishi bilan hamma narsa o'zgaradi, shuning uchun hech narsaga ko'ngil bog'lamanglar. Buning o'miga ko'ngilni toza tutinglar. Harakat va abadiy baxt izlanglar". Buddha 80 yoshida Kushtnagara degan joyda vafot etadi. Uning jasadi, hind udumiga ko'ra, kuydirilib, hoki 8 ta buddaviy jamoalariga bo'lib beriladi va har bir jamoa uni dafn etgan joyida ibodatxona (stupa) barpo etadi.



Stupa


Buddaning hayoti va faoliyati haqida bizgacha bir nechta asarlar yetib kelgan. Bular:

- "**Abnixishkramansutra**" (I asr);
- "**Nidanakatxa**" (I asr);
- "**Maxavsotu**" (II asr);
- "**Lalitavistara**", "**Buddaxacharita**" (I-II asrlar).

Bu asarlarda Buddaning hayoti afsonalar bilan qorishib ketgan. Shuningdek, Buddha hayoti haqida falsafiy, badiiy asarlar ham yozilgan.



**Ta'limoti.** Buddaviylik qadimgi hind diniy-falsafiy ta'limotlari asosida vujudga kelgan. Buddaviylikda “ilohiy kuch”ning borligi, xudo haqidagi g’oyalarga e’tibor berilmagan. Uning fikricha, eng muhimi insonning shaxsiy kamoloti, ezgu turmush tarzidir. Buddaning ta'limotiga ko’ra, inson o’ziga xos mavjudotdir. Inson o’z turmush tarzi orqali o’zini-o’zi qutqarishi yoki halok qilishi mumkin. Buddaviylik ta'limotining asosini “hayot – bu azob-uqubat” va “najot yo’li mavjud” degan g’oyalar tashkil etadi. Bular Buddaning ilk da’vatida mujassamlashgan 4 oliy haqiqatda o’z aksini topgan:



**Azob-uqubatlar mavjuddir.** Bu ta'limotga ko’ra, har bir tirik jon uni boshidan kechiradi, shuning uchun har qanday hayot azob-uqubatdir. Tug’ilish, kasallik, o’lim, istagan narsaga yetisha olmaslik, yaxshi ko’rgan insondan ayrilish va boshqalar azob-uqubatlardir. Dunyo tuzilishining asosiy qonuni bir-biriga bog’liqdir, hech bir narsa sababsiz bo’lmaydi, lekin uning sababini bilish mumkin emas. Buddaviylik ta'limotiga asosan har qanday narsa, xoh u moddiy bo’lsin yoki ma’naviy, u dharma (element)lardan tuzilgan. Ular harakatsiz bo’lib, ularni harakatlantiruvchi kuch insonning xayollari va so’zlaridir. Insonni 5 ta shakl tashkil qiladi: *tana*, *sezgi*, *his-tuyg’u*, *harakat*, *anglash*. Inson ular orqali yashaydi va borliq bilan aloqada bo’ladi. Bu narsa insonning o’limi bilan tugallanadi. Bu besh shakl birlashib, inson qayta tug’iladi. Insonning qayta-qayta tug’ilishi “hayot g’ildiragini” tashkil qiladi va inson azob-uqubatlarga duchor bo’laveradi.


**Azob-uqubatlarning sabablari mavjuddir.** Bu ta'limotga ko'ra, azob-uqubatlarning sababi – kishilarning istaklari, xohishlari, yashashga va baxtga intilishlari, qayta tug'ilish dunyosi – Sansaraga bog'langanligi, hayotga tashnaliklaridir. Bu dunyo sezgilar orqali his qilinsa-da, aslida hayoliy dunyodir. Inson moddiy narsalar va ma'naviy qadriyatlardan foydalanib, ularni haqiqiy va doimiy deb hisoblaydi va ularga ega bo'lish uchun doimo harakat qiladi. Har qanday insoniy tuyg'u, hissiyot, ehtiros va istak azob-uqubatlarni chuqurlashtiradi, yanada dahshatliroq tarzda qayta tug'ilishga olib keladi. Bu intilish hayotning davom etishiga sabab bo'ladi. Yaxshi va yomon maqsadlar, orzu va intilishlar keyingi hayot uchun karma tayyorlaydi.

**Azob-uqubatlardan qutilish mumkin.** Yashashga bo'lgan intilishlardan, hayot lazzatlaridan, mansab va boylikdan, nafaqat yomon niyat, balki yaxshi niyatlardan ham batamom qutilish orqali inson qayta tug'ilishdan butunlay to'xtaydi. Najotning o'zi esa "sansara"dan, ya'ni bu dunyo – qayta tug'ilish dunyosidan – "nirvana"ga – ruhlar olamiga o'tishdan iborat. Buning uchun inson yerdagi hayotning o'tkinchi ekanligini anglab yetishi zarur. Shunda inson "hayot g'ildiragi"dan chiqib Nirvana holatiga erishadi.

**Azob-uqubatlardan qutilish yo'li mavjuddir.** Azob-uqubatlardan qutilish uchun quyidagi "sakkizlik yo'li"ga va axloq qoidalariga amal qilish lozim:

1. To'g'ri tushunish, to'g'ri nuqtai nazar – hayotning "to'rt oliy haqiqati"ni tushunib olishga yordam beradi.
2. To'g'ri niyat qilish – dunyoviy xuzur-halovatdan, keraksiz fikrlardan saqlanish. Barcha tirik mavjudotga do'stona munosabatda bo'lish va har qanday sharoitda ham ruhan vazmin bo'lishni anglatadi.
3. To'g'ri yurish-turish. O'g'rilik qilmaslik, tirik mavjudotni o'ldirmaslik, ortiqcha hissiyotga berilmaslik.
4. To'g'ri so'z. Yolg'on gapirishdan, g'iybatdan, tuhmatdan va befoya gaplardan saqlanish.
5. Yashashning to'g'ri daromad manbaiga ega bo'lish – boshqalarga zarar keltirmagan holda daromad qilish. Qurol, mast qiluvchi ichimliklar, hayvon va parrandalarni sotmaslik.
6. To'g'ri harakat qilish – zararli fikrlardan holi bo'lish, faqat foydali ishlar qilish.

7. To'g'ri xotirlash. Bu – insonning o'z tanasini, his-tuyg'ularini, ruhiy holatini bir me'yorda ushlab turish (meditatsiya).




8. Fikr-e'tiborni to'g'ri narsalarga qaratish – keraksiz narsalarga chalg'imasdan, ruhning mutlaq osoyishtaligiga e'tibor berish.


Bundan tashqari Buddaning besh nasihatni “Pancha shila”ga amal qilish lozim. Bu besh haqiqat Buddaviylikning axloq qoidalarini tashkil etadi: **1) qotillikdan saqlanish;** **2) o'g'rilikdan saqlanish;** **3) gumrohlikdan saqlanish;** **4) yolg'on, qalbaki narsalardan saqlanish;** **5) mast qiluvchi narsalardan saqlanish.**


Ushbu “sakkizlik yo'li” va axloq qoidalariga amal qilganlar najot topadi, azob-uqubatlardan xalos bo'ladi va nirvanaga yetishadi.

### BUDDAVIYLIK TA'LIMOTINING UCH AMALIY QISMI



## BUDDAVIYLIK NING OLAM TO'G'RISIDAGI TA'LIMOTI





Buddaviylik ta’limotiga ko’ra, o’lim insonni hayot azob-uqubatlaridan qutqara olmaydi. Chunki o’limdan keyin insonni qayta tug’ilish kutadi. Bu dunyoning azob-uqubatlaridan faqatgina uzoq qayta tug’ilishlar azob-uqubatlarini yengib o’tib, arxat (oliy kamolotga yetgan) holatiga erishgan kishilargina xalos bo’lishi mumkin. Arxat holatiga erishish va undan nirvanaga o’tishning yagona yo’li najotning oljanob sakkizlik yo’lidan

insonning o’z kuchiga tayangan holda ongli harakat qilishidir. Agar insonning o’zi harakat qilmasa, uni hech kim va hech narsa bu dunyo azob-uqubatlardan xalos qilib, nirvanaga o’tishiga yordam bera olmaydi. Buddha insonlarni haqiqatdan xabardor qilgan va azob-uqubatlardan xalos bo’lishning to’g’ri yo’lini ko’rsatgan, xolos.

Buddaviylik ta’limoti haqida yuqorida aytilganlardan kelib chiqadigan xulosa shuki, uning asosiy mazmuni barcha mavjudotlarga muhabbat, rahm-shafqatlilik bilan qarashni targ’ib etish va aql farmoniga qat’iy bo’ysunishdir. Bilimlar xudojo’ylikka xizmat qilishi kerak. Ular azob-uqubatlardan xalos bo’lish uchun zarur.

Buddaviylik dini har doim zamonga moslashib borgan. Lekin Buddha ta’limotining o’zagi saqlangan. Bu o’zak uning ushbu so’zlarida o’z aksini topgan: “Okean suvi bitta ta’mga – sho’r ta’mga ega bo’lganidek, mening ta’limotim ham bir yo’singa qutqarishga mo’ljallangan. Odam bajaradigan eng muhim vazifa – atrof-muhitni itoatdan qutqarishga erishishdir”.

Budda o’z ta’limotini 40 yil targ’ib etdi, ammo u kishilarni ma’naviy-axloqiy kamolga erishtirish juda qiyin ish, aslo amalga oshirib bo’lmaydigan vazifa ekanligini umrining oxirida anglab yetadi. U topgan haqiqatlarini odamlarga yetkazdi, kamolga erishgan kishi sifatida obro’ topdi, shogirdlar orttirdi, lekin davlat, taxt, yer uchun kurashayotgan shohlararo nizolarni to’xtata olmadi. Umrining oxirida o’zaro urushdan vayron bo’lgan yurtini ko’rib, ridosi bilan boshini berkitganicha yerga tiz cho’kadi. “Hammasi o’tkinchi, hammasi o’tar” degan afsus-nadomatlarga to’la so’zlari uning hayoti va izlanishlarining o’ziga xos yakuni bo’ldi.

***Buddaviylikning tarqalishi.*** Ushbu ta’limotning yoyilishida ***sangxa*** – buddaviy jamoalarining roli katta bo’lgan. Buddha asos solgan sangxa aslida ittifoq bo’lib, jamoa tarzida komillik yo’llarini qidirishga qaratilgan. Jamoa a’zolari yilning ob-havosi yaxshi bo’lgan to’qqiz oyida shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, aholini bu dinga da’vat qilgan. Uch oy esa o’z ibodatxonalarida meditatsiya bilan shuqullandanganlar.

Mil.av. 273-232 yillarda hukmronlik qilgan Podsho Ashoka davrida buddaviylik keng hududlarga tarqaldi. Ashoka buddaviylikni o’z davlatining rasmiy dini deb e’lon qildi. Buddha ta’limotiga oid manbalarni, kitoblarni, xalq ichidagi afsona, rivoyat va Buddha hayotiga oid hikoyalarni to’plattirdi. Ashoka buddaviy monaxlarga, ularning

Hindiston bilan chegaradosh davlatlarga qilgan missionerlik harakatlariga xayrixohlik bildirdi. Buddaviy jamoalari begona din, madaniyat va urf-odatlar ustun bo'lgan sharoitlarda asrlar mobaynida o'zlarini saqlab qolish, fursati kelganda, ularga o'z ta'sirlarini o'tkazish xususiyatiga egadirlar.

Buddaviylik milodning I asrida Xitoy, IV asrda – Koreya, VI asrda – Yaponiya, VII asrda – Tibet, XIII-XIV asrlarda – Mongoliya, XVII-XVIII asrlarda – Buryatiya va Tuva, XIX-XX asrlarda esa Amerika va Yevropa qit'alariga tarqaldi.

Buddaviylik boshqa xudolarga sig'inishni ta'qiqlamaydi. Shu sababli buddaviylik ta'limoti turli joylarda yoyilishi bilan ular ibodat qilib kelgan ilohlari yoki ulug'lagan shaxslari timsollari ibodatxonalarini egallagan.

## BUDDAVIYLIK DAGI OQIMLAR

**Xinayana (kichik doira)** diniy yo'naliш sifatida mil.av. I asrda shakllangan. Xinayana tarafdorlari Buddha tirikligida ishlab chiqilgan tartiblarni, ijtimo bo'lib najot topish usullari (sangxa)ni yoqlaydilar. Ular nirvanaga faqat buddaviylik ruhoniylari yetishishi mumkin deb hisoblashadi. Keyinchalik xinayanada juda ham murakkab va dabdabali ibodatlar, buddaviylikning muqaddas joylariga ommaviy ziyoratlar joriy qilingan.

**Maxayana (katta doira)** tarafдорлари Buddaga xudo deb qarashadi. Ular ruhiy kamolot ahdiga rioya qiluvchi va buddaviylikning axloqiy talablariga amal qilgan, roxiblarga in'omlar berib yordam ko'rsatuvchi har qanday kishi Nirvanaga yetishishi mumkin, degan fikri ilgari surishadi. Bu esa buddaviylikning axloqiy qoidalariga mos keladi. Xuddi shuningdek, maxayana tarafдорлари buddaviylikka jannat haqidagi dogmani ham olib kirdilar. Bu Siddxartxaning tiriklik davrida yo'q edi. Umuman Buddha xudo, jon, ruh haqida fikr yuritishdan qochgan. Uning uchun kamolot yo'li insonning axloqidadir.

**Lamaviylik.** Maxayananing eng muhim oqimlaridan biri hisoblanadi. U VII-XIV asrlarda Tibetda shomonlik asosida shakllangan buddaviylikning barcha aqidalarini qabul qilgan. "Lama" so'zi tibetcha bo'lib "eng ulug'" degan ma'noni bildiradi. Bu oqim mo'g'ullar, Rossiya hududidagi buryatlar, tuvaliklar va qalmiqlar orasida tarqalgan. Lamaviylikda dabdabali ibodatlar, muqaddas tomoshalar, maishiy rasm-rusumlar, xudolar g'azabini va yovuz ruhlar ziyon-zahmatlarini qaytarish uchun qilinadigan xatti-harakatlar, duo va qarg'ishlar ko'p.

**Tantrizm, Szintu, Tyantay, Chan-buddizm, "Sof Zamin"** oqimlari ham mavjud.

**Buddaviylikning asosiy  
manbasi –  
TRIPITAKA  
(uch savat ma’nosini anglatadi)  
U uch qismdan iborat**



***Buddaviylikning marosim va bayramlari.*** Buddaviylik marosimlari ichida ertalabki va kechki ibodat har kuni ado etiladi. Ibodat davomida duolar o’qiladi va sajda qilinadi. Ibodat Buddha tasviriga qarab bajariladi. Buddha tasviri atrofiga gullar qo’yiladi, shamlar yoqiladi. Ochilib turgan gullarning bir ozdan keyin so’lishi dunyoning o’tkinchi ekanligi, sham nuri esa dunyoning nurlanganligi ramzi hisoblanadi.

Dunyoviy hayot kechiruvchi buddaviylarning kundalik asosiy marosimi – bu monaxlarga yegulik keltirishdir.

Bir oyda 2 marta “tiyilish kuni” o’tkaziladi. Bu marosim buddaviylarga o’z dinlariga e’tiqodlarini yanada mustahkamlashga, monaxlar uchun intizomni va o’zaro bir-birini tushunishni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunda sakkizlik yo’li talablari takrorlanadi. Monaxlar dunyoviy hayot kechiruvchi dindorlar ustiga SUV sepadilar. Bu monaxlarning dunyoviy hayot kechiruvchilar bilan o’zlaridagi yaxshi xislatlarni bo’lishish niyatlarining ramzi hisoblanadi.

Buddaviylikda, shuningdek, dunyoga kelishni, balog’at yoshini nishonlash, nikoh, yangi uyga ko’chib o’tish, ajdodlarni xotirlash, dafn etish kabi marosimlar bor.

Buddaviylik bayramlari – Yangi yil, Buddaning tug’ilgan kuni, nurlangan va vafot etgan kunlari bayram qilinadi. Yangi yil bayrami aprelning o’rtalarida 2-3 kun

nishonlanadi. Bu kunlari buddaviyilar Buddani, avliyolarni, ajdodlarni eslaydilar. Bunda tomchilatib suv sepiladi. Bu ayni vaqtda yomg'ir chaqirish va xotirjam hayot belgisi hisoblanadi.

Buddaning tug'ilgan, nurlangan va vafot etgan kuni bayramlari turli mamlakatlarda turli muddatlarda nishonlanadi.

## BUDDAVIYLIKDAGI EZGULIK RAMZLARI



**Nilufargul.**  
Buddaviylikdagi  
soflik ramzi



**Oq chig'anoq.**  
Budda ta'lomitining  
yoyilishi ramzi



**Cheksiz tugun.**  
Olamdagi barcha  
hodisa va jonli  
zotlarning o'zaro  
munosabatlari ramzi



**G'oliblik ramzi.**  
Budda ta'lomitining  
o'lim, omadsizlik  
hamda barcha zahmat  
va falokatlar ustidan  
g'oliblik ramzi



**Dharma g'ildiragi.**  
Hayot g'ildiragining  
doimiy ravishda  
harakatlanishi ramzi



**Oltin baliqchalar.**  
Uqubatlardan qutilish  
va ruhiy ozodlikka  
erishmoq ramzi



**Qimmatbahko'za.**  
Uzoq umr, boylik va  
yashnamoq ramzi.  
Buddaviylikning  
marosimlarida  
ishlatiladi



**Ezgu soyabon.**  
Ezgu amallar ramzi

## Savol va topshiriqlar

1. Buddaviylikning Hindistonda keng tarqalishiga qanday omillar sabab bo'lgan?
2. Siddxartxa Gautamaning hayoti haqida nimalarni bilasiz?
3. Buddaviylikning jahon diniga aylanish sabablari nimada?
4. Lamaizm oqimi qaysi davlatlarda keng tarqalgan? Bu oqimning boshqa oqimlardan farqlarini aniqlang.
5. Buddaviylikning Markaziy Osiyoga kirib kelishini gapirib bering.

6. Ma'lumki, buddaviylikda ayrim sonlar muqaddas hisoblanadi. Masalan, 5 – dharmaning 5 shakli, 12 – tug'ilish g'ildiragidagi bo'g'inlar. Siz 3,4,8 sonlarining ramziy ma'nosini aytib bering.

### **Adabiyotlar**

1. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. –Т., 2004.
2. Буддизм. Словарь. –М., 1992.
3. Васильев Л.С. История религий Востока. –М., 1997.
4. Волков С.В. Ранняя история буддизма в Корее. –М., 1985.
5. Далай-Лама XIV. Буддизм в Тибете. –М., 1991.
6. Дервиш Р.А., Лавтеева Л.Г., Мусакаева А. Памятники истории религии и культуры в Узбекистане. Пособие для факультатива по истории религии. –Т ., “Ўқитувчи”, 1994.
7. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. –Т., TDYuI, 2005.
8. Jo'raev U., Saidjonov I. Dunyo dinlari tarixi. –Т., 1998.
9. Islom ensiklopediyasi. –Т., 2004.
10. Мифы народов мира. В 2-х томах. –М., 1991.
11. Mo'minov A., Yo'doshxo'jaev X. va boshqalar. Dinshunoslik (darslik) –Т., “Mehnat”, 2004.
12. Религиозные традиции мира. Буддизм, иудаизм, христианство, ислам. Справочник школьника. –Бишкек, 1997.
13. Фарманова Б. Религиоведение. Учебное пособие. –Т., ТДЮИ, 2006.
14. Щербатской Ф.И. Избранные труды по буддизму. –М., 1988.

## XRISTIANLIK

### Reja:

- 1. Xristianlikning vujudga kelishi** (xristianlikning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar; Iso Masih hayoti va faoliyati; Rimda xristianlikning davlat dini deb e`lon qilinishi).
- 2. Xristianlik ta`limoti** (xristianlikning asosiy aqidalari; xristianlikning falsafiy va nazariy rivojida avliyo Avgustin ta`limoti).
- 3. Xristianlikdagi oqimlar** (xristianlikning bo`linib ketish sabablari; pravoslav oqimi; katolik oqimi; protestantlik oqimi; kalvinizm, presviterianlik, anglikan cherkovi, baptizm va adventistlar harakati).
- 4. “Bibliya” – xristianlikning muqaddas kitobi.**
- 5. Xristianlikning jahon diniga aylanishi va uning sabablari.**

**Tayanch so'zlar:** messiya, Iisus Xristos, apostollar, Bibliya, Injil, Bibi Maryam, ikona, katolik, pravoslav, protestant, Yangi Ahd, Kalvin, Martin Lyutyer, sirli marosimlar, Papa, a'rof, indulgentsiya, yepiskop, mitropolit, xoch, cho'qintirish, post, Ota Xudo, o'g'il Xudo, Muqaddas Ruh, cherkov, sobor.

**Maqsadi:** xristianlikning vujudga kelish tarixini, Iso Masih hayotini, ta`limotini o'rganish; xristianlikda oqimlarning paydo bo`lishi va ular orasidagi farqlarni ajrata bilish; xristianlikning eng yirik jahon diniga aylanish sabablarini tahlil qilish.




Xristianlik buddaviylik va islom dinlari singari jahonda keng tarqalgan dinlardan biri bo`lib, yahudiylikdan mustaqil din sifatida ajralib chiqqan. Hozirgi kunda bu dinga 254 mamlakatning 2 milliard aholisi e'tiqod qiladi. Bu ko'rsatkich dunyo aholisining deyarli uchdan birini tashkil etadi. Xristianlik asosan Amerika, Yevropa va Avstraliya qit'alarida keng hamda Afrika qit'asining janubiy qismida va Osiyo qit'asining sharqida qisman tarqalgan.

*Xristianlikning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar.* Xristianlik milodning boshlarida Rim imperiyasining sharqiy qismida Falastinda paydo bo’lgan. Diniy e’tiqod sifatida shakllanishi va tarqalishi Iso Masih (Iisus Xristos) nomi bilan bog’liqdir.

Xristianlik ham boshqa dinlar singari kishilik jamiyatni taraqqiyotining ma'lum bosqichida ijtimoiy hayot sohasida ro'y bergan chuqur o'zgarishlar natijasida vujudga keldi. Falastin milodning boshlarida dunyoning eng katta imperiyasi bo’lgan Rim imperiyasi tarkibiga kirar edi. Yangi va eski era oralig'i davrida Rim imperiyasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan tang ahvolga tushgan. Quldorlikka asoslangan hukmron ishlab chiqarish munosabatlari imperiyaning tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'la boshlagan. Davlat bu holni keng xalq ommasini ezish va jabr-jafolarni kuchaytirish orqali o'zgartirishga intilgan. Barcha musibat moddiy va ma'naviy boyliklardan foydalanish huquqidan butunlay mahrum bo’lgan millionlab qullarning gardaniga tushgan. Nihoyatda og'ir jismoniy mehnat va uning mahsulotidan aslo o'zi foydalana olmaslik qullarning ishlab chiqarish faoliyatini susaytirib qo'yan. Quldorlarning cheksiz jabr-zulmlari, dahshatli jazolar ham qullar mehnati unumini oshira olmagan. Aksincha, vahshiyona zolimlik va noinsoniy azoblar mehnatkash ommaning g'azabini qo'zg'atib, ularni isyon ko'tarishiga sabab bo’lgan. Rim hukmron tabaqalari mustamlakalar aholisini itoatda tutish maqsadida ularning mavjud tuzum tartibiga qarshi harakatlarini shafqatsizlik bilan bostirganlar. Ko'tarilgan qo'zg'alolarning mag'lubiyatga uchrashi mazlumlarning ozodlikka, yaxshi kunlar kelishiga bo’lgan ishonchini butunlay yo'qotishiga sabab bo’lgan. Rim imperiyasining mavjud diniy e’tiqodlari esa qullikni muqaddaslashtirgan. Bir necha million izdoshlariga ega bo’lgan yahudiylar dini xam og'ir ahvoldan qutilish yo'lini ko'rsata olmagan. Endi ular g'ayri qudratli shaxs – ilohiy haloskorni kuta boshlaganlar. Yahudiylar ta'limotida messiya – xaloskorning kelishi va uning samoviy kuchlar yordamida tez vaqt ichida zolimlar ustidan g'alaba qozonishi haqidagi ta'limot borligi sizlarga o'tgan mavzulardan ma'lum. Bunday shaxs Iisus Xristos (yunoncha “missiya” qadimgi yahudiylarning “mashiax”, ya'ni xaloskor so'zidan olingan) obrazida paydo bo'lib, imperiyaning turli joylarida namoyon bo’lgan. Aynan mana shu ta'limot xristianlikning xaloskorlik dini sifatida vujudga kelishiga yaratgan. Yer yuzida

“ilohiy sultanat” o’rnatalishiga bo’lgan umid hissi xristianlikning barcha alamdiydarlar va jafokashlar o’rtasida tez yoyilishiga sabab bo’lgan.




**Iso Masih hayoti va faoliyati.** Yangi xristianlik dinining asoschisi hisoblangan Iisus Xristos Bibliyada har xil afsonaviy mo’jizalarga qodir ilohiy xaloskor shaxs sifatida batafsil tasvirlangan. Islom diniga Iso payg’ambar nomi bilan kirgan Xristos rivoyatlarga ko’ra yahudiylar podshosi David (Dovud) sulolasiga tegishli bokira qiz Mariya (musulmonlar Mariyam deyishadi)dan tug’ilgan. Shuning uchun uni otasiz, xudo nuri bilan dunyoga kelgan xaloskor podsho sifatida “Davidning merosxo’r o’g’li” deb ham ataganlar. Dunyoviy shaxs sifatida Mariyamning unashtirilgan kuyovi Iosif (Yusuf) Xristos, yani Isoning otasi deb tanilgan.

Xristos muqaddas kitobda bayon etilganidek, Shimoliy Falastindagi Galileya nomli shaharning Vifleem (ayrim manbalarda Nazaret) degan qishloqda, molxona o’rnida foydalaniladigan bir g’orda tug’ilgan. Sakkiz kun o’tgach, go’dakni sunnat qilib, unga Iisus deb nom qo’yiladi va qirq kundan keyin yahudiylar oilasining to’ng’ichi sifatida Quddus ibodatxonasiga keltirib, xudoga bag’ishlangan ibodatdan o’tkazadilar. Kohinlar tomonidan “xaloskor” deb tanilgan go’dakning ota-onasi Mariya va Iosif yahudiylar podshosi Irod g’azabidan qo’rqib Misrga qochadilar. Irod vafotidan keyin voyaga yetgan Iisus Nazaretga qaytadi.



Eski odatga binoan 12 yoshga yetgan o’spirinni Quddusga ziyorat qilishga olib keladilar. U ibodatxonada ruhoniylar bilan bahslashib, hammani o’z aql-idroki bilan qoyil qoldiradi. Rivoyatlarga ko’ra, go’yoki Isoning nazari tushgan muqaddas butlar erib, kulga aylanadilar. Uning amri bilan mevali daraxtlar onasi Mariya oldida egiladilar. Iso sahroda tashna qolganlarga buloqdan suv chiqarib beradi, og’ir kasallarni tuzatadi, o’likni tiriltiradi va boshqa mo’jizalar namoyish qiladi.

Iso o'zining 12 shogirdi – *havoriyilar* (*apostollar*) bilan Falastinga o'z ta'limotini targ'ib qiladi va u yerda ham turli mo'jizalar ko'rsatadi. Masalan, bir katta to'yda ichkilik yetmay qolganida suvni sharobga aylantiradi, kuchli bo'ronni to'xtatadi, mingga yaqin kishini besh-olti non bilan to'ydiradi, suv ustida yuradi. Ammo uni ona vatanida hech kim qo'llab-quvvatlamaydi, aksincha, yangi dinni targ'ib qilgani uchun quvg'in va qarshilikka uchraydi. O'z shogirdlari bilan pasxa bayramida Quddusgacha kelganida, uni juda katta tantanalar bilan kutib oladilar. Bunday obro'ga ega bo'layotgan Isoni yahudiy oqsoqollari Rim davlati hukmdorlariga ig'vo qilib, isyonkor sifatida topshiradilar. Sotqin Iuda boshchiligidagi bir guruh qurollangan yahudiylar Isoni aldab Rim sudiga keltirib, o'lim jazosiga hukm qiladilar.



Isoni o'sha vaqtdagi eng dahshatlari jazo – avval qattiq kaltaklab, so'ng oyoq-qo'lini krest(salib)ga mixlab qo'yishgan. Iso olti soat azobdan keyin vafot etadi. Jasadni do'stлari tosh tobutga solib g'orga dafn qiladilar va g'orni katta toshlar bilan berkitadilar. Ammo Iso qabrda tirilib, arshi a'loga ko'tariladi. Shunday qilib, afsonaga chulg'angan Iso masihning dunyoviy hayoti tugaydi.

Tadqiqotchilar orasida Iso Masih to'g'risida yaqin davrgacha jiddiy tortishuvlar bo'lib kelgan. Bir guruh olimlar (mifologiya maktabi olimlari) uni faqat afsonaviy shaxs, tarixda uning prototipi ham bo'lman deb tasdiqlaydilar. Iso Sharqda keng tarqalgan afsonaga ko'ra, o'lib-tiriladigan xudolar, mo'jizalar yaratuvchi va boshqa turli afsonalarni o'zida mujassamlashtirgan obraz.

Ikkinchi guruh tarafdarlari ko'pchilikni tashkil qiladi. Ular Bibliyadagi voqealar va Iso Masih obrazi aslida tarixda mavjud bo'lgan qandaydir umumiylikka ega voqealar va shaxslar bilan bog'liq degan fikrni qo'llab-quvvatlaydilar. Ammo qumron yozuvlari bu masalaga bir oz aniqlik kiritgan. Undagi yesseylar mazhabiga oid nasihatlar va risolalarda Dovud urug'idan chiqqan qandaydir xaloskor shaxs, oxirzamon va gunohkorlar to'g'risida hikoya qilinadi, yesseylar "adolat ustozisi" hisoblangan xaloskor obrazi va shu asosdagi ta'limoti bilan dastlabki xristianlikni eslatadi.


Mutaxassislarning ta'kidlashicha, xristianlik Fors ko'rfazi atrofida yuzaga kelgan, keyinchalik butun Rim imperiyasiga tarqalgan bo'lib, unga yahudiylik dini ta'limoti ta'sir qilgan deb hisoblashadi.

Milodiy 140-150 yillar xristianlikning uyushgan diniy tashkilot, oqim sifatida shakllanishi davri bo'ldi. Xristian jamoalarining ijtimoiy tarkibi ham o'zgardi: unda mulkdor tabaqalarning mavqeい kuchaydi. Badavlat xristianlar oliy (yepiskop, diakon) mansablarni olib, katta imtiyozlarga ega bo'lib bordilar. Shu tarzda xristian jamoalari ikki qismga – *ruhoniylar (klir)* va *oddiy jamoa a'zolari (miryan)*ga bo'lindi. Ayrim jamoalar o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishi yepiskop boshliq cherkovning tarkib topishiga olib keldi. IV asrga kelib Iursalim (Quddus), Antioxiya (Suriya), Iskandariya (Misr) va Rimda cherkov idoralari shakllanadi. Cherkov katta boylik to'plab siyosiy kuchga aylanib bordi. Cherkovga dastlabki davrlarda siyosiy raqib sifatida qarab, xristianlarni ta'qib etib kelgan Rim imperatorlari keyinchalik xristianlik g'oyalarining mohiyatini tushunib bordilar. IV asrning boshlarida imperator Konstantin I (306-337 yillar) xristianlikni rasmiy tan olib, cherkovga asoslangan siyosiy yo'l tutishga o'tdi. 325 yili imperator I Vselen (Butun Olam) xristian soborini chaqirdi. Unda imperator bilan cherkov o'rtasida ittifoq tuzilib, xristianlikning “*e'tiqod simvoli*” (“*imon kalimasi*”) ishlab chiqildi. Imperator Feodosiy I (373-395 yillar) barcha majusiy ibodatxonalarini ta'qilovchi farmon qabul qildi. Shu tarzda xristianlik Rim imperiyasining davlat diniga aylandi. Xristianlikning Rimda rasmiy din sifatida tan olinishi unda asketizm (zohidlik)ning kuchayishi va monastirlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Xristianlikni davlat, jamiyat ishlariga aralashishini Avgust Blajenniy qo'llab chiqdi. U o'zining diniy-falsafiy asarlarida ilohiy hokimiyat abadiy, odamlar intiladigan dunyoviy hokimiyat o'tkinchi degan fikrlarni ilgari surdi. Bu fikrlar rasmiy cherkov uchun ayni muddao edi. Shu tariqa davlatni dinga, cherkovga itoat ettirish boshlandi.

**Xristianlik ta'limoti.** *Xristanlik yahudiylik ta'sirida yuzaga kelgan.* Xristianlik dinidagi eng asosiy g'oya – Isoning odamzodning xaloskorı – “messiya” ekanligi yahudiylikda mavjud bo'lib, oxiratda kutilayotgan xaloskor haqidagi ta'limotdan kelib chiqqan. Keyinchalik bu ta'limot Xudoning mujassamlanishi yoki Isoning ikki mohiyat –

odam va Xudo mohiyati haqida, “gunohni yuvish”, ya'ni Isoning o'zini ixtiyoriy tarzda qurbon qilish haqidagi ta'llimot bilan mustahkamlangan.

## **XRISTANLIKDA XUDO UCH KO'RINISHGA EGA**




Uch ko'rinishdagi Xudo haqidagi ta'llimotga binoan, Xudoning ichki hayoti sababi o'z-o'zida mavjud bo'lgan uchlikdagi uch asos yoki “muqaddas uchlik” bo'lgan – Ota Xudo, o'g'il Xudo va Muqaddas Ruhning o'zaro munosabatidir. Bundan tashqari, xristianlik ta'limoti jannat va do'zax, oxirat, Isoning qaytishi haqidagi aqidalarni o'z ichiga oladi.

Xristanlik ta'limotining asoslari 381 yili Konstantinopolda II Butun Olam Xristian Soborida qabul qilingan va bu asoslar 12 qismda ifodalangan:

1. Olamni yaratgan Xudo haqida;
2. Xudoning o'g'li hisoblangan Iso Masihga imon keltirish haqida;
3. Ilohiy mujassamlashuv haqida, ya'ni Iso Xudo bo'la turib, bokira Bibi Maryamdan tug'ilgan va inson qiyofasiga kirganligi haqida;
4. Isoning azob-uqubatlari va o'limi haqida. Isoning tortgan azoblari va o'limi tufayli Xudo tomonidan insoniyatning barcha gunohlari kechiriladi deb e'tiqod qilinishi haqida;
5. Isoning xochga mixlanganidan so'ng uch kun o'tib qayta tirilganligi haqida;
6. Isoning me'roji haqida;
7. Isoning ikkinchi marotaba yerga qaytishi haqida;
8. Muqaddas Ruhga imon keltirmoq haqida;
9. Cherkovga munosabat haqida;

10. Cho'qintirishning gunohlardan forig' qilishi haqida;
11. O'lganlarning ommaviy tirilishi haqida;
12. Abadiy hayot haqida.

Xristianlikning keyingi falsafiy va nazariy rivojida Avliyo Avgustinning ta'limoti katta ahamiyat kasb etadi. V asr bo'sag'asida u dinning bilimdan afzal ekanligini targ'ib qila boshladi. Uning ta'limotiga ko'ra, borliq inson aqli bilishga ojizlik qiladigan hodisadir, chunki uning ortida ulug' va qudratli Yaratuvchining irodasi yashiringan.



**Xristianlikning muqaddas manbalari.** Xristianlik ta'limoti “Bibliya”da o'z aksini topgan. Bibliya ikki - “Qadimgi Ahd” va “Yangi Ahd” qismlaridan iborat.

Uning birinchi qismi *Tavrot (Tora)*, *Zabur (Psalter)* dan tashkil topgan. Ikkinci qism esa *Injil (Evangelie)* deb ataladi. Bu kitoblar yahudiy va xristian dinidagilarning muqaddas kitoblar to'plamidir.

Shartli ravishda ikki qismga ajratilgan bu uchala kitob umumiy nom bilan “Bibliya” (yunoncha “kitob”, “o’ram”) deb ataladi. Agar “Qadimgi Ahd”da Muso (yahudiylik)ning qarashlari o'z aksini topgan bo'lsa, “Yangi Ahd”da Isoning diniy ta'limoti mujassamlashgan. “Ahd” so'zining ma'nosida Xudoning insonlar bilan maxsus aloqalari nazarda tutiladi.

“Qadimgi Ahd” eng qadimgi ibroney va oromiy tillarida yozilgan bo'lib, Xudo tomonidan olam va odamning yaratilishi, Isroil xalqining tarixi haqidagi hikoyalarni, Sulaymon payg'ambarning matallari, Ayub, Zabur nomli kitoblarni o'z ichiga oladi.

“Yangi Ahd” esa qadimgi yunon va suryoniy tillarida yozilgan va Iso Masihning tug'ilishi, hayoti va diniy faoliyati, qatl etilishi va tirilib g'oyib bo'lishi hamda qarashlarini o'zida aks ettirgan. “Yangi Ahd” 27 kitobdan iborat va u uch qismga quyidagicha bo'linadi:

- “Rivoyatlar kitobi”ga “Injil” va “Havoriylar faoliyati”;
- “Ta'limotlar”ga “Havoriylar maktublari”;
- “Payg'ambarlar kitoblari”ga “Vahiy” kitobi kiradi.

**Injil** so'zi yunoncha “evangelion” – “xushxabar” ma'nosini anglatadi. Injilning 4 kitobchasi mavjud. Bular:

- *Matto injili;*
- *Marko injili;*
- *Luka injili;*
- *Yuhanno injili.*


Milodiy 364 yili Laodika sobori xristianlikda ilohiy va muqaddas deb topilgan asarlardan iborat Bibliyani rasman tasdiqladi. Unga kiritilmagan yoki undan farqlanadigan barcha diniy kitoblarni soxta deb e'lon qildi va o'qishni ta'qipladi. Bibliyaning hozirgi matni XIII asrda kardinal Stefan Lengton uning matnlarini boblarga ajratgani va ularga shartli nom bergenidan keyin yuzaga kelgan. Bibliya dunyodagi mashhur noshir Gugenberg tomonidan chop etilgan birinchi bosma kitobdir. U birinchi marta 1452-1455 yillarda bosilib chiqdi.

Bibliya yer yuzidagi 1980 tilga tarjima qilingan. Dunyo aholisining 98 foizi uni o'z ona tilida o'qiydi. Nashr nusxasi nuqtai nazaridan Bibliya dunyoda birinchi o'rinda turadi. 1973-1991 yillari o'zbek tiliga tarjima qilinib, 1992 yili Stokgolmdagi Bibliyani tarjima qilish instituti tomonidan nashr etildi.

*Xristianlikdagi oqimlar.* 395 yilda Rim imperiyasi ikkiga bo'linib ketgach, xristianlikda ham, markazi Konstantinopol bo'lган sharqiy va markazi Rim bo'lган g'arbiy oqimlar (cherkovlar) yuzaga keldi. Imperianing g'arbiy qismida qaror topgan yangi mustaqil davlatlarning mustahkam emasligi Rim cherkovining ijtimoiy hayotdagi mavqeini kuchaytirib yuborgan. Rim cherkovi boshlig'inинг nufuzi oshib, Rim papasi deb atala boshlagan. *Rim papasi* Isoning yerdagi noibi, imperiya tarkibidagi davlatlarning qirollari esa papaning vassallari deb e'lon qilingan. Rim papasi cheklanmagan huquqlarga ega bo'lган.

Sharqiy imperiya – Vizantiyada esa cherkovning ahvoli mutlaqo boshqacha bo'lган. Vizantiya cherkovi Rim cherkovi kabi hokimiyatga ega bo'lмаган. U amalda davlatning bir muassasasiga aylanib qolgan. Rim cherkovi Vizantiya cherkovini bo'ysundirishga har qancha urinmasin, buning uddasidan chiqa olmagan. Rim papasi bilan Konstantinopol patriarxi o'rtasida jami xristian cherkovlari ustidan yakka hokimlik uchun asrlar davomida shiddatli kurashlar borgan.

IX asrga kelib pravoslav (Konstantinopol) cherkovining ta'siri Bolqon yarim oroli va Rus davlatiga tarqaldi. 1054 yili Rim papasi Konstantinopol cherkovini o'z ta'siriga olish niyatida elchilarni (legatlar) yuboradi. Patriarx Mixail Kirullariy papa odamlarini sovuq kutib oladi. Bundan norozi elchilar Sofiya soboriga borib papa nomidan patriarchni cherkovdan chetlatilgan deb e'lon qiladilar. Patriarx ham sobor chaqirib elchilarning o'zini cherkovdan chetlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Buning oqibatida xristianlik ikkiga bo'linib ketgan. Ulardan biri – Konstantinopol patriarchiga bo'ysunuvchi *pravoslavlik cherkovi* (chin e'tiqod), ikkinchisi esa, Rim papasiga bo'ysunuvchi *katolik cherkovi* (butun dunyo) deb ataladigan bo'ladi.



**Katolik oqimi.** Xristianlikda eng ko'p tarqalgan yo'naliш – katoliklikdir. U Italiya, G'arbiy Yevropa, Lotin Amerikasi, Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Kuba, Boltiqbo'yi davlatlarida keng tarqalgan. Katoliklarning diniy uyushmalari Rossiya, Belorus va G'arbiy Ukrainada ham uchraydi. Xristianlarning 60 foiziga yaqini katoliklikka e'tiqod qiladi.

Iso payg'ambarning o'z izdoshlariga da'vatlaridan birida “Boring, barcha xalqlarga o'rgating” deyiladi. Bu aslida “butun dunyo”ga xristianlikni tarqatishga chaqiriq edi. “Katolik” atamasi va oqimi shu da'vatdan kelib chiqqan. Aslida ushbu da'vat tagida xristianlikni universal, ya'ni har tomonlama tushunish yotgan.

Katolik cherkovi qat'iy markazlashtirilgan, yagona jahon markazi Vatikan davlatida joylashgan. Uning bosh ruhoniysi, yepiskopi, birdan-bir boshlig'i Rim papasidir. Shu kungacha katoliklikda Vatikanni 265 papa boshqargan. Vatikan 1929 yildan beri shahardavlat hisoblanadi. Uning hududi 44 gettarni tashkil etadi. Katoliklikning bosh cherkovi – Petr sobori va papaning rasmiy qarorgohi – Sikstin kapellasi joylashgan havoriyalar saroyi ham o'sha shahardadir. Katolik cherkovini amalda papa va uning joylardagi kardinallari boshqaradilar. Katolik cherkovida kardinal Rim papasidan keyingi oliy ruhoniy bo'lib, kardinallar majlisinig roziligi bilan papa tomonidan tayinlanadi va u papaning eng yaqin maslahatchisi hisoblanadi. O'z navbatida kardinallar yig'ilishi Rim papasini saylaydi. Kardinallarning umumiy soni asrlar davomida 70 nafardan oshmagan.

Ikkinchı jahon urushidan keyin ularning soni ko'payib, hozirgi vaqtga kelib 140 nafardan oshib ketdi.

Katoliklik *Rim papasini* Isoning yerdagi noibi, u din va axloq ishlarida mutlaqo gunohsiz, uning hokimiyati jahon soborlari hokimiyatidan yuqori turadi deb e'lon qilgan. Katoliklik xristian dinining asosiy aqida va marosimlarini e'tirof etadi.

Undan tashqari, katoliklik jannat va do'zax bilan birga oxirzamondagi hisob-kitob – mahsharni bor deb biladi. Muqaddas Ruh faqatgina Ota Xudodan emas, balki o'g'il Xudodan ham kelib chiqqan deb e'tirof etadi. Ruhoniylarga uylanish – nikohni ta'qiqlaydi. Bibi Maryamni benihoya hurmat qilish, unga sig'inish, Isoning osmonga ko'tarilib ketishi aqidasini tan olish, e'tiqod timsoliga poklanish makoni – a'rof aqidasini qo'shish bu yo'nalishning xususiyatlaridan biridir. *A'rof* (do'zax va jannat oralig'idagi mavze) haqidagi aqida katolik ta'lilotida mavjud. Gunohi katta bo'limgan gunohkorlarning ruhi u yerda o'tda kuyadi (ehtimol bu vijdon va nadomat azobining ramziy in'ikosidir), keyin jannatga yo'l topadi. Ruhning a'rofda bo'lish muddati xayrli ishlar tufayli qisqartirilishi (ibodat va cherkov foydasiga xayr-ehson qilish bilan) mumkin. Bu ibodat va xayr-ehsonlar o'lganlar xotirasiga yaqinlar tomonidan qilinadi.

Katoliklikda marosimlar o'ta tantanali tarzda o'tkaziladi.

Katoliklikning protestantlikdan farqi shundaki, u faqat muqaddas kitob – Bibliyanigina emas, balki "Muqaddas rivoyat"ni ham diniy ta'lilotning manbai deb hisoblaydi. Bundan tashqari, "Muqaddas rivoyat"ga katolik cherkovlari, jahon soborlarining qarorlari va Papaning fikrlari ham qo'shilgan.

Katoliklikka o'rta asr faylasufi Foma Akvinskiy (1225-1274)ning diniy qarashlari asos qilib olingan va u hozirgi zamonga moslashtirilgan.

Katoliklikda asrlar davomida ibodat lotin tilida olib borilgan. 1962-1965 yillardagi II Vatikan Sobori ibodatni milliy tillarda o'tkazishiga ruxsat bergen edi. II Vatikan Sobori katoliklikning ijtimoiy talablarga muvofiq o'zgarib yashashini ko'rsatdi. Katoliklik jamiyat ma'naviy hayoti uchun mas'ul ekanligini tan oldi va har bir katolikni ana shu mas'uliyat bilan yashashga da'vat etdi. Sobor har kim e'tiqod erkinligiga, e'tiqod huquqiga ega ekanligini tan oldi. Ma'lumki, katoliklik o'rta asrlarda yahudiylilikka tarafдорликда ayblangan cho'qingan yahudiylarni, shuningdek, xristianlikni qabul qilgan, lekin islom

diniga yashirinchha e'tiqod qilishda shubha ostiga olingan musulmonlarni qattiq ta'qib ostiga olgan. Bu ta'qiblar faqat diniygina emas, balki siyosiy va iqtisodiy xarakterga ham ega bo'lган. Papa inkvizitsiyasining yuz minglab qurbanlari orasida jahonning taniqli olimlari Galileo Galiley, Jordano Bruno, fransuzlarning milliy qahramoni Janna d'Ark va boshqalar bor edi. Ular o'tda kuydirib o'ldirilgan edilar. Dinda e'tiqod erkinligini tan olish katoliklikning yangi davr talablari bilan murosaga kelishidan dalolat beradi.



***Pravoslav (ortodoks) oqimi.*** Pravoslaviye xristianlikning uch asosiy oqimlaridan biridir. Xristianlikning sharqiy tarmog'i bo'lmish pravoslaviyening rivojlanishi jarayonida 16 mustaqil (avtokefal) cherkov: Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Rus, Gruziya, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Albaniya, Polsha, Chexiya, Slovakiya, Amerika cherkovlari shakllandı.

Pravoslav oqimida ilohiy uchlikka (Ota Xudo, o'gil Xudo, Muqaddas Ruh) ishoniladi. Shu bois unda bosh, ko'rsatkich va o'rta barmoqlarni birlashtirib cho'qinish odati bor. Pravoslavlар ilohiy uchlikdan tashqari ikonaga ham ibodat qilishadi, ammo uni sig'inish ob'yekti sifatida emas, balki ilohiy uchlik tasvirlangani uchun qadrlashadi. Pravoslaviye ta'lilotiga ko'ra borliqni va narigi dunyoni yaratgan Iisus Xudoning o'g'lidir. U Otasining amri bilan bokira Maryamdan tug'ilgan. Odamlarning gunohini yuvish uchun dunyoga kelgan. Salibga mixlab o'ldirilgandan keyin mo'jiza ro'y beradi, Iso tirilib arshi a'loga ketadi. U barcha o'lik va tiriklarni so'roq qilish, ularning qilmishlarini muvofiq taqdirlash uchun qayta tirilib keladi.

Pravoslaviyada ilohiy uchlikdan tashqari avliyolar, farishtalar, turli karomatlar ko'rsatuvchilarining kuchlariga ishonishga da'vat etuvchi fikrlar ham uchraydi. Pravoslaviye cherkovi e'tiqoddagilarning hissiga ta'sir etish, ularda mehr-muhabbat, muruvvat, hamdardlik kabi insoniy tuyg'ularni shakllantirishga intiladi. Cherkov va monastirdagi hayot asosan diniy ishlarni ado etish bilan cheklanadi. U katoliklik kabi davlatni o'ziga itoat ettirishdek siyosiy ishlarga aralashavermaydi. Konstantinopol cherkovi katoliklikdan farqli o'laroq davlatni o'ziga itoat ettirishga emas, balki u bilan hamkorlik qilishga, yonma-yon yashashga intildi.

Pravoslaviyening katoliklikdan farqi shuki, Muqaddas Ruhning faqat Ota Xudodan kelib chiqishini, cherkovning boshliqlarini emas, cherkovning o'zi gunohdan pokligini, aqidalarining o'zgarmasligini ta'kidlaydi, poklanish makoni – a'rofni inkor etadi. Ayrim marosimlar boshqacha o'tkaziladi.

Pravoslaviye oqimining asosiya muqaddas kitoblari Tavrot va Injildir. Ta'lilotlarning asosini muqaddas Bibliya kitobi va Muqaddas rivoyat tashkil etadi. Bu oqimda xristianlarning quyidagi *7 sirli marosimi* (*tainstvo*) asosiya o'rinni egallaydi:

*Cho'qintirish marosimi* (*tainstvo*) – xristianlik dinining eng asosiya marosimlaridan biri hisoblanadi. Bu marosim bajarilgach, inson cherkov dargohiga qabul qilingan hisoblanadi. Odamning tug'ilgan paytidanoq gunohkor ekanligi haqidagi aqida bu marosimga asos qilib olingan. Cho'qintirish marosimida inson gunohli hayot uchun o'lib, diniy, muqaddas hayot uchun tug'iladi.

*Miro surtish marosimi* (*miropamazanie*) – cho'qintirish marosimi bilan bog'liq. Cherkovlarda chaqaloqlar cho'qintirilgandan keyin, inson ilohiy muruvvatga erishishi uchun ularga hushbo'y yog' (miro) surtiladi.

*Poklanishning sirliligi*. Xristianlar non va vinoni tatib ko'rар ekanlar, bu bilan Isoning tanasi va qonini tatib ko'rdik, binobarin, endi Xudoga yaqinroq va qondoshroq bo'ldik deb hisoblaydilar. Non va vino ko'rinishidagi Isoning qoni ularni abadiy hayotga tayyorlaydi.

*Ruhoniylikning sirliligi*. Ruhoniylik martabasiga ko'tarilish bilan bog'liq marosim. Diniy ta'lilotga ko'ra, ruhoniy bo'ladigan shaxsning boshiga yepiskop qo'l tekkizganidan keyin, u "Muqaddas Ruhning" marhamati bilan Xudo va odamlar o'rtasida vositachilik xususiyatiga ega bo'ladi.

*Nadomatning sirliligi*. Xristianlikda pushaymon bo'lish (tazarru) marosimi. Dindor o'z gunohlarini maxsus jihozlangan xonada, ruhoniy oldida tan oladi. Yomon niyatlarini va shubhalarini aytadi. Ruhoniy dindorga nasihat qilib, uni to'g'ri yo'lga solishga harakat qiladi va uning gunohlarini Iso nomidan kechiradi.

*Muqaddas zaytun yog'i surtish marosimi* (yeleosvyashenie) – bemorga muqaddaslashtirilgan zaytun yog'ini surtish marosimi. Bu marosim, cherkov ta'lilotiga ko'ra, insonni jismoniy va ruhiy kasalliklardan davolaydi.

*Nikoh marosimi.* Bu marosim XIV asrda paydo bo'lgan. Marosimni o'tkazishdan maqsad qilib bolalarning eson-omon dunyoga kelishlari va xristianlik tarbiyasini olishlari nazarda tutiladi. Shu orqali inson Xudoning marhamatiga erishgan hisoblanadi.



Pravoslaviye marosimlari va bayramlarining ko'pligi bilan ajralib turadi. Pravoslavyedagi bayramlar bir yildagi kunlar sonidan ancha ortiq bo'lgani uchun amalda har bir kunga bir necha bayram to'g'ri keladi. Pravoslaviye bayramlarining eng muhimlari quyidagilar:

Pasxa bayrami	Salibga tortilgan Isoning mo'jizaviy tirilishi xotirasiga bag'ishlanadi. Pasxadan oldin bir hafta davomida pravoslavlar ro'za (post) tutadilar, toat-ibodat qiladilar
Isoning tug'ilishi bayrami (Rojdestvo Xristovo)	O'g'il Xudo Isoning ilohiy tug'ilishi nishonlanadi. Yevropada 25 dekabrda, Rossiyada 7 yanvarda nishonlanadi
Isoni cho'qintirish bayrami (Kreshenie Gospodnya)	Isoning Iordan daryosida cho'qintirilganligi 6 yanvarda nishonlanadi
Ilohiy hushxabar bayrami (Blagoveshchanie)	Bibi Maryamga kelajakda ilohiy farzand ko'rishi to'g'risidagi hushxabarning ma'lum qilinganligi 25 martda nishonlanadi
Isoning Quddusga kirish bayrami (Vxod Gospodnya v Ierusalim)	Pasxa arafasidagi oxirgi yakshanba kuni Isoning Quddusga kirishi nishonlanadi
Isoning osmonga ko'tarilib ketishi bayrami (Voznesenie Iisusa)	Pasxadan keyin 40-kuni Isoning tirilib arshi a'loga ko'tarilishi nishonlanadi
Iso qiyofasining o'zgarishi bayrami (Preobrajenie)	Isoning tog'da ibodat qilayotib, qiyofasi o'zgarganligi 6 avgustda nishonlanadi
Bibi Maryamning tug'ilishi bayrami (Rojdestvo Bojey materi)	Bibi Maryam – ilohiy onaning tug'ilishi 8 sentabrda nishonlanadi
Isoning salibga tiklash bayrami (Vozdvijenie kresta Gospodnya)	Isoning oyoq-qo'li mixlangan salibning topilishi 14 sentabrda nishonlanadi
Bibi Maryamni xotirlash bayrami	15 avgustda Bibi Maryamning hayot yo'lining nihoyasiga yetishi sifatida nishonlanadi

Bundan tashqari pravoslav oqimida Yahyo payg'ambarning (Ioann Kresitel) tug'ilishi, favoriyalar Pyotr va Pavel kuni bayramlari ham ulug' bayramlar qatoriga qo'shilgan. Hozirgi vaqtda dindorlar bayramlarning diniy mazmunini mushohada qilmay, asosan turmush an'anasi sifatida nishonlaydilar.

Pravoslaviye ichida ham turli oqimlar mavjud. Ular qatoriga staroobryadchilar, armyan, Kipr va Efiopiya, Finlyandiya, Aleksandriya (Misr) cherkovlari kabilar kiradi.

XVII asrning ikkinchi yarmida Rus cherkovi patriarxi xristian marosimlarini isloh qiladi. U ko'pgina marosimlarni grek an'analariga muvofiqlashtirmoqchi bo'ladi. Bu esa o'rnatilgan marosimlar tarafdozlarida norozilik uyg'otadi. 1666 yili ularni ajratuvchilar (raskolniki) deb e'lon qilishadi, ammo xalq orasida ular staroobryadchilar, ya'ni eski marosimlar tarafdozlarini degan nom olishadi.

Staroobryadchilar rasmiy cherkovni inkor qila boshladilar. Rossiyaga G'arb an'analarini olib kirgan Petr I ni antixrist (Iisusga qarshi, xristianlik dushmani) deb e'lon qildilar. Ularning ayrimlari pravoslaviye va protestantlikdagi ayrim oqimlar bilan birlashib yangi oqimni yuzaga keltirdilar, baptistlar bunga misol bo'lishi mumkin. "E'tiqod kurashchilari" (Duxobortsi) esa o'zini-o'zi idora etadigan ijtimo yaratishga intildi. Ammo bu oqimlar xristianlikda umumiy tartiblarni, aqidalarni o'zgartira olmadi, balki ular dinda hurfikrlikning tarqalishiga hissa qo'shdilar.

Nestorchilar (Konstantinopol yepiskopi, xristianlikda sezilarli iz qoldirgan Nestor 451 yili vafot etgan)ning izdoshlari pravoslaviye dinini Eron, Mongoliya, hatto Xitoygacha yoyishga muvaffaq bo'ldilar. Hukmdorlar tomonidan quvg'inga uchragan nestorchilar Sharq davlatlarida ma'lum e'tibor qozondilar.



**Protestantlik oqimi.** Protestantizm atamasi "protest" (norozilik bildiruvchi, kelishmaslik) so'zidan kelib chiqqan. 1526 yilda Shpeyer reyxstagi nemis lyuterchi knyazlari talabi bilan har bir nemis knyazi o'zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risida qaror qabul qildi. Ammo ikkinchi Shpeyer reyxstagi bu qarorni bekor qildi. Bunga qarshi imperianing bir qancha shaharlari va besh nafar knyazi "protest" – norozilik bildirdilar. Protestanlik e'tiqod va tashkiliy jihatdan bir-biridan farq qiluvchi, lekin kelib chiqishi va

aqidalari jihatidan umumiylan bog'langan bir necha mustaqil cherkov va sektalarni birlashtiradi.

Bu harakatning asoschilari Germaniyada M.Lyutyer (1483-1546), Shveytsariyada J.Kalvin (1509-1564) va Svingli (1484-1531) edi. Protestantlik paydo bo'lishining dastlabki davrlarida lyuteranlik, kalvinizm, anglikanlik, anabaptizm va boshqa shakllarda bo'lgan.

Protestantlik Xudoning borligi, uning uch qiyofada namoyon bo'lishi haqidagi umumxristian tasavvurlarni e'tirof etadi.

Protestantlik uchta yo'li:

- *shaxsiy e'tiqod bilan najot topish;*
- *dinga ishonuvchi barcha kishilarning ruhoniylarning bo'lishi mumkinligi;*
- *Bibliyaning oliy nufuzi* g'oyalarini ilgari suradi.

Protestanlikning katoliklik va pravoslaviyedan farq qiluvchi asosiy aqidalaridan biri insonning Xudo bilan aloqasi haqidagi ta'limotdir. Unga ko'ra, Xudo sidqidildan iltijo qilgan insonlarga o'z "inoyatini" cherkov va ruhoniylarning aralashuvvisiz ato qiladi, o'zi uni gunohlardan forig' qiladi. Har bir dindor Bibliyani o'zicha izohlashi mumkin. Shunga binoan protestantlar katolik tipidagi cherkov tashkilotlarini, ruhoniylar hamda Rim papalari rahnamoligini inkor etadilar.

Xristianlikning bu oqimida insonning xudoga va cherkovga munosabati soddalashtirilgan. Umumxristian bayram va marosimlaridan oz qismi saqlanib qolgan, but va aziz avliyolarga sig'inish yo'q, ibodat ko'pincha va'z-nasihat qilishdan, birgalikda ibodat qilish va diniy kalomlarni kuylashdan iborat. Protestantlarning fikriga ko'ra, Bibi Maryam qanchalik pok va ulug' bo'lsa-da unga sig'inmaslik kerak. Faqat Xudoga sig'inish mumkin. Shuning uchun protestantlar ibodatxonalarida Maryamning va boshqa avliyolar tasvirlangan ikonalar yo'q. Bu oqimda monaxlik yo'q, ruhoniylarning oila qurishi man etilmaydi. Inson najot yo'lini va Xudoga xizmat qilish yo'lini dunyo ishlaridan qochishdan emas, balki o'zining dunyoviy faoliyatidan izlashi kerak, deb tushuntiriladi.

Protestantlik sirli marosimlardan ko'pchiliginibekor qilgan.

Marosimlardan faqat cho'qintirish va poklanish (evharistiya)ni tan olishadi, xolos. Aynilsa kalvinchilar Rim cherkovining sehrli marosimlarini qat'iy rad etadilar. Xuddi shuningdek, protestantlar cherkov va papaning ulug'ligi haqidagi aqidalarga qat'iy qarshilik ko'rsatadilar.

Cherkovlar ortiqcha hashamlardan, mehroblardan, ikonalar, haykallardan bo'shatildi, qo'ng'iroqlar olib tashlandi. Monastirlar va monaxlikdan voz kechildi. Ibodatlar soddalashtirilib, va'z, duo, Zabur sanolarini kuylash ona tilida o'tkaziladigan bo'ldi. Bibliya milliy tillarga tarjima qilindi, uni o'rghanish va sharhlashga ruxsat berildi.

Hozirgi davrda protestantlar soni butun dunyoda 250 milliondan ortiq. Bu oqim Skandinaviya mamlakatlarida, Germaniya, Polsha, Angliya, Fransiya, Gollandiya, Shveytsariya, Vengriya, Avstraliya, Kanada, Yangi Zelandiya va AQShda keng tarqalgan. Bu mamlakatlarda protestantlikning rang-barang ko'rinishlari, guruhlari uchraydi. Ular anabaptistlar, anglikanlar, lyuteranlar, kalvinchilar, adventistlar, ko'hna katoliklar, Iegovo shohidlari, duxoborlar, molokanlar, marmonlar, pyatidesyatniklar va boshqalardir. Protestantlikning jahon markazi AQShda joylashgan.

**Kalvinizm.** Diniy islohotning boshqa bir yirik arbobi Jan Kalvin (1509-1564) edi. Uning 1536 yilda nashr etilgan "Xristian dinidagi ko'rsatmalar" degan bosh asari protestantlik ta'limot sifatida shakllangandan keyin yangi bir diniy yo'naliш – kalvinizmning asosi bo'lib qoldi.

Dastlabki islohot arboblaridan farqli o'laroq, Kalvin uchun diqqat markazi Injil emas, Tavrot bo'lib qoladi. Kalvin absolyut taqdir haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. Bu ta'limotga ko'ra, barcha *odamlar Xudoning biz uchun noma'lum bo'lgan irodasiga asosan magfirat qilinganlar va mahkum etilganlar toifasiga bo'linadi. Inson na imon, na "xayrli ishlar" bilan taqdirga yozilganini o'zgartira olmaydi: mag'firat qilinganlar esa najotga mahkum. Taqdir haqidagi ta'lim shunday asosga qurilganki, Iso ham bizning gunohlarimiz uchun azobu uqubatlarga giriftor qilingan edi.*

Protestant cherkovining kalvinistik yo'naliшdagи davomchilari Shotlandiya, Gollandiya, Fransiya, Angliyada katta obro' va ta'sirga ega.

**Presviterianlik.** Presviterianlik kalvinistik cherkovdan kelib chiqqan bo'lib, (yunoncha "eng eski") mo'tadil puritanlardir. 1592 yili Shotlandiya parlamenti bu

ta'limotni asosiy mafkura deb hisoblash haqida qaror qabul qilgan. Bu jamoa boshida jamoa a'zolari tomonidan saylangan *presviter* turadu. Jamoalar mahalliy va davlat ittifoqlariga birlashadi. Diniy marosim juda sodda, ibodat paytida va'z aytildi, birgalashib duolar o'qiladi va diniy qo'shiqlar kuyylanadi.

Presbyterianlar diniy ta'limotining asosiy aqidalari “Vestminster” kitobida bayon qilingan. Bu aqidalar ortodoksal kalvinizm ruhida bo'lib, *olamdag'i barcha odamlarning gunohkorligi va qismatning mutlaqligiga ishonishdan* iborat.

Presviter jamoasi qavmlari saylagan presviterlar va pastorlardan iborat konsistoriya tomonidan boshqariladi. Presviterchilarning asosiy organi – Bosh assamleya.

Hozirgi paytda Shotlandiya (davlat cherkovi), Angliya, Irlandiya, AQSh, Kanada, Avstraliya va boshqa mamlakatlarda presviterchilar mavjud.

**Anglikan cherkovi.** Anglikan cherkovi – Angliyaning davlat cherkovidir. 1534 yilda mahalliy katolik cherkovi Rim qiroli Genrix VII ni cherkov boshlig'i deb e'lon qildi, yani cherkov qirol hokimiyatiga bo'ysundirildi. XVI asr o'rtalariga kelib ibodatni ingliz tilida olib borish joriy etildi, postlar bekor qilindi, but va sanamlar olib tashlandi, ruhoniylar uylanmasligi majburiy bo'lmay qoldi. “*Mo'tadil yo'l*” ta'limoti, ya'ni Rim katolisizmi va protestantizm orasidagi o'rtacha yo'l shakllandi. Anglikan diniy ta'limoti “*Umumiy ibodatlar kitobi*”da aks ettirilgan. U cherkovning najotkorlik kuchi haqidagi katolik aqidalalarini hamda shaxsiy e'tiqod orqali najotga erishish haqidagi protestant ta'limotlarini o'zida jamlagan. Anglikan cherkovida katolisizmdagi marosimlar shundayligicha qabul qilinib, undagi ierarxiya tuzumiga o'xshash tartib joriy etilgan. Bu tartibga ko'ra, qirol Anglikan cherkovining boshlig'i hisoblanadi va yepiskoplarni tayinlaydi. Anglikan cherkovining birinchi diniy rahbari Kenterberi arxiepiskopi hisoblanadi.

1867 yildan Anglikan cherkovi o'z mustaqillagini saqlagan holda Anglikan cherkovlar ittifoqiga birlashgan.

**Baptizm.** Protestant ta'limotining eng ko'p sonli davomchilari baptistlardir. Baptizm (yunoncha “suvga cho'ktirish”) XVII asr boshlarida vujudga kelgan bo'lib, hozirgi kunda dunyoning 130 mamlakatida o'z tarafdarlariga ega. Bu ta'limot tarafdarlari faqat o'spirinlarnigina cho'qintirishga olib boradilar. “*Hech kim, jumladan, ota-onalar ham*

*kishi uchun biror dinni tanlay olmaydilar. Kishi dinni ongli ravishda o'zi ixtiyor qilmog'i zarur" degan qoida baptistlarning asosiy qoidasidir. Ularda ibodat o'ta soddalashtirilgan bo'lib, diniy qo'shiq, ibodatdan iborat.*

**Adventistlar harakati.** Adventistlar harakati (lotincha "kelish") Amerikada XIX asrning 30-yillari og'ir iqtisodiy buhron, umumiyl ishsizlik davrida vujudga keldi. Asoschisi Vilyam Miller (1782-1849). Adventistlar bir necha mustaqil cherkovlarga bo'lingan bo'lib, ularning eng kattasi "Yettinchi kun adventistlari" sanaladi. ularning asosiy g'oyasi *Isoning ikkinchi bor yerga tushishi va insoniyatni shayton hamda uning tarafdarlaridan mutlaq xalos etishidir*. Ular odamlarni Isoni kutib olish uchun hushaxloq bo'lishga chaqiradilar. Dindorlardan mablag'larining o'ndan birini cherkov hisobiga o'tkazishlari va targibot ishlarini uzluksiz olib borishlarini talab qiladilar. Iso paygambarning ikkinchi marta yerga qaytishi haqidagi bashorat "najot yo'li" deb hisoblanadi.

### Savol va topshiriqlar

1. Xristianlik qachon va qayerda paydo bo'ldi?
2. Xristianlik dini paydo bo'lishiga qanday shart-sharoitlar sabab bo'ldi?
3. Qanday sabablarga ko'ra xristianlik davlat diniga aylandi?
4. Katoliklik ta'limotining mazmuni nimadan iborat?
5. Pravoslavlik, katoliklik va protestantlik ta'limotidagi va marosimlaridagi farq qiluvchi jihatlarni bir-biri bilan taqqoslang.

### Adabiyotlar

1. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi/ Tarjima va izohlar muallifi A.Mansur.—T.: "Toshkent islom universiteti", 2001.
2. Библия. —Москва, 1997.
3. Injil. —Turkiya muqaddas kitob jamiyati, 1996.
4. Injil. Stokholm, Bibliyani tarjima qilish institute, 1992.

5. Библейская энциклопедия. –М., 1991.
6. Булгаков С.Н. Православие. М., 1991.
7. Гергей Е. История папства. М., 1996.
8. Девятова С.В. Современное христианство и наука. М., 1994.
9. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma –Т., TDYuI, 2005.
10. Islom ensiklopediyasi. –Т., 2004.
11. К истории христианства в Средней Азии (XIX-XX вв.). –Т., “Ўзбекистон”, 1998.
12. Католицизм. Словарь. М., 1991.
13. Мифы народов мира. В 2-х томах. –М., 1991.
14. Mo'minov A., Yo'doshxo'jaev X. va boshqalar. Dinshunoslik (darslik). –Т., “Mehnat”. 2004.
15. Протестантизм. Словарь. М., 1990.
16. Религиозные традиции мира. Буддизм, иудаизм, христианство, ислам. Справочник школьника. –Бишкек, 1997.
17. Saidjonov Y.S., Jo'raev U.T. Dunyo dinlari tarixi. –Т., 1998.
18. Христианство. Энциклопедический словарь. В 3-томах. –М., 1993-1995.

## **ISLOM**

### **Reja:**

- 1. Islomning paydo bo'lishi** (johiliya davri; islom vujudga kelish arafasida Janubiy Arabiston aholisining diniy e'tiqodi).
- 2. Muhammad alayhissalom hayotlari va faoliyatları** (bolalik yillari; payg'ambarlik faoliyatining boshlanishi; Muhammad (s.a.v.)ning Madinaga hijratlari; "Ansorlar" va "Muhojirlar"; Badr va Uhud janglari; Xudaybiya sulhi; "Vidolashuv xaji").
- 3. Islom ta'limoti** (islomning asosiy aqidalari; islom arkonlari).
- 4. Islomdagi asosiy oqimlar: sunniylik va shialik.**
- 5. Islom marosim va bayramlari.**

**Tayanch so'zlar:** johiliya, islom, ko'pxudolik, haniflik, da'vat, musulmon, imon, mushrik, Payg'ambar, farishta, muqaddas kitoblar, Alloh, rasul, nabiyl, vahiy, jannat, do'zax, taqdir, oxirat, qiyomat, me'roj, namoz, ro'za, haj, zakot, ansorlar, muhojirlar, hijrat, g'azot, Ka'ba, xalifa, sunniylik, shialik, xorijiylik, mazhablar, Hanafiya, Molikiya, Shof'iya, Hanbaliya.

**Maqsadi:** islomning paydo bo'lishi, ta'limoti, oqimlari va marosimlarini o'rghanish; Muhammad alayhissalomning hayotlari va faoliyatları bilan tanishish; islomning shaxs, oila, jamiyat hayotiga kirib borishi, madaniyat va ma'naviyatni boyitishga qo'shgan hissasini tahlil qilish.



Islom dunyoda keng tarqalgan jahon dinlaridan biri. E'tiqod qiluvchilarining soniga ko'ra islom xristianlikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Bu denga e'tiqod qiluvchilar jahon aholisining 20% foizini tashkil etadi. Osiyo qit'asidagi Markaziy Osiyo xalqlari, Arabiston yarim oroli, Jordaniya, Suriya, Iraq, Eron, Turkiya, Afg'oniston, Pokiston, Afrika qit'asidagi Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya, Misr Respublikasi, Somali singari mamlakatlar xalqlari, Efiopiya, G'arbiy Sudanda yashovchilarning bir qismi,

Malayziya, Indoneziya xalqlari, Livan, Hindiston, Xitoy, Filippin aholisining ma'lum bir qismi, Yevropa qit'asidan esa Ozarbayjon, Kavkaz xalqlari, Bolqon yarim orolida yashovchi millat va elatlarning bir bo'lagi islomga e'tiqod qiladi.

***Islom dini paydo bo'lgan ijtimoiy-tarixiy va g'oyaviy muhit.*** Islom VII asrda Arabiston yarim orolida, hozirgi Saudiya Arabistoni hududida paydo bo'lgan. Arabiston yarim oroli iqlim sharoiti noqulay qumli sahrolar va tog'lardan iborat bo'lib, ko'chmanchi aholisi chorvachilik bilan shug'ullanar edi. Islom vujudga kelishi arafasida turli arab qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi bir xil emas edi. Ko'pchilik qabilalar taraqqiyot jihatidan Misr, Vizantiya, Eron, Mesopotamiya kabi qadimiy madaniyat markazlariga nisbatan ancha orqada qolib ketgan edi. Faqat savdo karvoni yo'lida joylashgan *Makka*, *Madina*, *Toif*, *Xaybar* kabi shaharlarni o'z ichiga olgan Hijoz mintaqasi iqtisodiy jihatdan birmuncha rivojlanib, kengayib ahamiyati oshib bordi va VII asrlarga kelib gavjum savdo markazlariga aylandi. Bu davrda hududda Makka shahri bilan raqobatlashadigan savdo markazi hali yo'q edi. Arab qabilalari o'rtaida Makkaning diniy markaz sifatida ham o'rni ancha yuqori bo'lgan. Makkada Ka'batilloh ibodatxonasida turli arab qabilalaring 360 xudosi (sanamlari) mavjud bo'lgani tufayli bu shahar o'z atrofida yashovchi ko'p qabilalar uchun e'tiqod markazi – ziyyaratgohga aylangan edi.

Arabiston yarim orolining katta qismida islom vujudga kelmasidan avvalgi davr johiliya davri deb yuritiladi. “*Johiliya*” so'zi bilmaslik, bilimsizlik, nodonlik ma'nosini beradi. Bu davrda yashagan qabilalar butparastlik va jaholat botqog'iga botgandilar. Qabilalar o'zaro tinmay janglar olib borar, ijtimoiy va mulkiy tengsizlik chidab bo'lmaydigan darajada edi. Jaholat shu darajaga yetgandiki, ayrim qabilalarda qiz farzand dunyoga kelsa, uni tiriklay ko'mib yuborar edilar. Yarim orolning ko'p qismida “ko'pxudolik” hukm surardi. Qadimgi arablarning diniy tasavvurlari jumlasiga totemizm, fetishizm, animizm elementlari va o'tmish ajdodlar ruhiga sig'inishni kiritish mumkin. Ayrim tumanlarida yahudiylar va nasroniylar ham yashagan. Shu bois yahudiylilik yaman arablari o'rtaida qadimdan keng tarqalgan. Yahudiylikka e'tiqod qiluvchi qabilalar Markaziy va G'arbiy Arabistonning ayrim vohalarida ham yashaganlar. Nasroniy dini esa

asosan yarim orolning shimoliy qismida Shom yurti, Falastin, Mesopotamiyada yashagan arab qabilalarining ba'zilari o'rtasida tarqalgan edi.

**Muhammad ibn Abdulloh hayotlari.** Alloh rasuli (elchisi) va payg'ambari, islam dinining asoschisi – *Muhammad ibn Abdulloh ibn Abd al-Muttalib* milodiy 571 yilning 21 aprelida Arabiston yarim orolining Makka shahrida tug'ildilar. Otalari Abdulloh Muhammad (s.a.v.)



tug'ilmaslaridan oldin savdo ishi bilan Shomdan qaytayotib Yasrib (Madina)da vafot etdilar.

Bola ziyrak va sog'lom o'sishi uchun arablarda sahroyi ayollardan sut-onal topib emizish odati bor edi. Muhammad (s.a.v.)ga sut-onal bo'lisl Abu Zuaybning qizi Halimaga nasib etadi. Muhammad (s.a.v.) 4 yoshga kirganlarida "Sharqi sadr" yoki "Shaqqi sadr" ("Ko'krak yorish") voqeasi sodir bo'ladi.

Muhammad (s.a.v.) to sakkiz yoshgacha bobosi Abdulmuttalib qo'lida tarbiyalanadi. So'ngra amakisi Abu Tolib uni o'z himoyasiga oladi. Oila katta, lekin daromadi oz bo'lganidan bola qo'shnilarining mollarini boqishga yordamlashadi va o'n yoshida, amakisi bilan Shom (Suriya)ga sayohat qiladi.

Muhammad (s.a.v.)ga 25 yoshida makkalik badavlat beva, Hadicha (r.a.) o'z karvonlarini ishonib topshiradi va bo'lg'usi payg'ambar Shom mamlakatidagi tijorat markazlariga qatnay boshlaydilar. Muhammad alayhissalomning halolligi va boshqa insoniy fazilatlaridan hayratga tushgan Hadicha (r.a.) unga vakillar orqali nikoh ittifoqini taklif etadi.

Milodning 605 yillari atrofida Ka'baning Ibrohim (a.s.) zamonida tiklangan devorlari vayrona holiga kelib qoladi. Uni qayta tiklash va ta'mirlash ishlarida Makkaning butun aholisi ishtirok etadi. Tabarruk binoning devorlari tiklangach, Ibrohim zamonasidan qolgan mashhur yodgorlik - "*Hajar al-Asvad*", ya'ni qora toshni o'rnatish ustida katta janjal chiqadi. Oqsoqollardan biri, bu ishni Yaratganning o'zi hal qilsin, ya'ni kim hozir birinchi bo'lib qurilish maydoniga kirib kelsa, qora toshni devorga o'rnatish sharafini unga yuklaymiz, deb taklif qiladi. Barcha ushbu taklifga rozilik berib turganida, "al-Amin" (ishonchli, to'g'ri so'z) unvoniga musharraf bo'lgan Muhammad (s.a.v.) paydo

bo'ladi .U ustki kiyimini yechib, qora toshni unga soladi va barcha qabila oqsoqollaridan toshni baravariga ko'tarishni so'raydi. Bo'lajak payg'ambarning ushbu taklifi hammaga ma'qul keladi va u o'z qo'li bilan toshni Ka'baning burchagiga o'rnatadi.

Muhammad alayhissalom bir necha yillar mobaynida diniy tafakkur va ibodat bilan muttasil shug'ullanganlar, taqvodorlik bilan hayot kechirganlar. U kishi har doim Makka yaqinidagi Xiro g'origa borib ibodat qilganlar. Oziq-ovqat va suv olib ketib, g'orda bir necha kunlar qolib ibodat qilish odatlari bo'lgan. Diniy manbalarda ta'kidlanishicha, Muhammad alayhissalom payg'ambarlik faoliyatini 40 yoshida 610 yilda boshlaganlar. Vahiyning boshlanishi to'g'risida "Sirat ur-Rasululloh" asarida keltirilgan rivoyatga qaraganda, Muhammad alayhissalom Hiro tog'ida tunab qolgan kechalarning birida osmondan nido kelgan. Farishta Jabroil "O'qi!" deb buyurgan. Muhammad "Men o'qishni bilmayman" deb javob bergenlar. Jabroil u kishini ko'tarib bir siqib qo'yadi-da yana "O'qi!" deydi. Hech joyda ta'lim olmagan Muhammad "Men o'qishni bilmayman" deb yana javob qaytaradilar. Shu holat uch marta takrorlangach, Jabroil unga ko'rsatib turgan "Alaq" surasi avvalidagi bir necha oyatlarni o'qitib unga eshittiradi va bu oyatlar Muhammad qalbiga o'rnashib, yod bo'lib qoladi. Payg'ambar alayhissalomga yuborilgan dastlabki ilohiy xabar quyidagicha edi:

Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan.

*"(Ey, Muhammad, butun borliqni) yaratgan zot bo'lmish Rabbingiz nomi bilan o'qing! U insonni laxta qondan yaratdi. O'qing! Rabbingiz esa karamli zotdir. U insonga qalam bilan (yozishni) o'rgatgan zotdir. U insonga bilmagan narsalarini o'rgatdi"* ("Alaq" surasi, 1-5- oyatlar).

Muhammad (s.a.v.) hayajon ichida uyg'a qaytib, ayollari Xadichaga bo'lgan voqeani bayon etadilar. Hadicha u kishini yupatib, taskin beradi: "Sizni hech qachon Alloh xor etmaydi. Chunki siz qarindoshlarga mehribon, kambag'allarga yordam beruvchi, odamlar mashaqqatini oson qiluvchi kishisiz" deydi. U kishi Muhammadni "Injil"ni bilgan xristianlik dinidagi amakisining o'g'li keksa Varaqa ibn Navfal huzuriga boshlab boradi. Bo'lgan voqeani unga bayon etadilar. Shunda Varaqa xursand bo'lib, Jabroil Muhammad alayhissalomga kelgan farishta ekanligini aytadi.

Muhammad alayhissalom hayotida ilk bor ro'y bergan vahiy hodisasining vaqtin haqidagi barcha ilk islom manbalaridagi ma'lumotlar Qur'onning 97- "Qadr" surasidagi ma'lumotlarga asoslangan. U "Laylatul qadr" kechasi deb ataladi. Tarixda bu kecha hijratdan 12 yil ilgari ramazon oyining 26-kunidan 27-kuniga o'tar kechasi, milodiy hisob bilan 610 yil 15 avgustdan 16 avgustga o'tar kechasiga to'g'ri keladi. Dunyodagi barcha musulmonlar bu kechani toat-ibodat bilan o'tkazadilar.

Muhammad alayhissalom yakkaxudolikka asoslangan islom dini g'oyasini xalq o'rtasida targ'ib qilishni boshlaganida juda katta qarshiliklarga va to'siqlarga duch kelgan. Uning targ'ibotiga ishomni birinchilar qatorida Xadicha, Abu Bakr, Ali, Zayd ibn-Xorisa, Abu ur-Rahmon ibn Avf, Zubayr ibn Avom, Amir Hamza, Usmon ibn Affon qabul qilganlar.



*Islomdagi tarixiy sanalar.* Muhammad alayhissalom ta'limotiga qurayishlarning ummaviylar xonodoniga mansub bo'lgan va Makkada siyosiy hokimiyat tepasida turgan zodagonlar qattiq qarshilik ko'rsatganlar. Ikki o'rtadagi nizolar keskinlashgach, Muhammad alayhissalom islomga xayrihoh bo'lgan va Makka hukmronlari bilan raqobatlashib kelgan Yasribga ko'chib boradilar. "**Hijrat**" deb atalgan mazkur voqeа 622 yil 24 sentyabrda yuz bergen. Makkadan Yasribga ko'chib borganlar islom tarixida "muhojirlar" ("ko'chib kelganlar"), ishomni qabul qilgan yasribliklar esa "ansorlar" ("yordamchilar") deb nom oladilar. Shu davrdan e'tiboran Yasrib shahri "Madinat ur- Rasululloh" ("Payg'ambar shahri"), yoki oddiygina qilib Madina deb ataladigan bo'ldi. Musulmon yil taqvimi ham ana shu sanadan boshlanadi. Keyinchalik islom adabiyotida Makka va Madina islomning muqaddas markazlari sifatida "Makkai Mukarrama" va "Madinai Munavvara" deb ataladigan bo'ldi.

Madina shahrida Muhammad (s.a.v.) targ'ibotini qo'llab-quvvatlagan va unga ergashgan muhojur va ansorlardan iborat musulmonlar jamoasi – *umma* vujudga keldi.

Hijriy 1 (milodiy 622) yilda azon aytish va juma namozi rasm bo'ldi. Islomda birinchi muazzin – azon aytuvchi etib habash Bilol ibn Raboq tayinlandi.

Payg’ambarimiz Madinaga kelganlaridan keyin, 12 oy davomida namoz Bayt ul-Muqaddasga (Quddusga) qarab o’qilgan. Hijriy 2 (milodiy 623) yili qibla o’zgartirildi. Shu davrdan boshlab musulmonlarga namozni Makkadagi Ka’baga qarab o’qish farz qilindi. Xuddi shu yili ramazon oyida *ro’za tutish, fitr-ro’za sadaqasi, zakot berish, hayit namozi* farz qilindi.

623-630 yillarda Muhammad alayhissalom Makka shahri uchun bir necha bor o’z raqiblariga qarshi urushlar olib bordi.

Hijratning 2 yili (milodiy 624) musulmonlar va makkalik mushriklar o’rtasida Badr quduqlari oldida *Badr jangi*, 625 yilda Uxud tog’i etagida *Uxud janglari* bo’lib o’tadi.

626 yili makkaliklar madinaliklarga uzil-kesil zarba berish maqsadida Madina jamoasiga qarshi yirik safarga otlangan. Madinaliklar shaharni uzoq qamal sharoitiga tayyorlashgan, shahar atrofiga chuqur handaqlar qazilgan va u yerlarga kamonchi o’qchilar joylashtirilgan. Ammo Madinani qamal qilish uzoqqa bormagan, qamal 20 kun davom etgan. Bosqinchilarning ko’pgina otlari handaqlarga tushib ketgan. Dahshatli bo’ron boshlanib hamma yoqni tuz-tuproqqa to’ldirgan, qattiq yoqqan selga qamalchilar bardosh berolmaganlar. Bu urush tarixda “*Handaq g’azoti*” nomini olgan.

Hijratning 6 yilida Makka qurayshiyleri bilan eng muhim tarixiy hujjatlardan biri bo’lgan *Xudaybiya sulhi* tuziladi. Muhammad (s.a.v.) bir guruh musulmonlar bilan Xajga boradigan mavsumda Makkaga yo’l olganlar. Ularning kelishidan shubhaga tushgan ummaviylar Makkadan ancha narida – Xudaybiya vodiysida ularni to’xtatganlar. Muzokaralar boshlanib, o’rtada sulk tuzilgan. Sulh shartlari quyidagicha bo’lgan:

1. Musulmonlar bu yilgi ziyoratdan voz kechib, Madinaga qaytadilar.
2. Kelasi yil Makkaga keladilar, ammo uch kundan ortiq qolmaydilar.
3. Musulmonlar quolsiz keladilar.
4. Musulmonlar Makkadagi musulmonlardan hech birini o’zlari bilan olib ketmaydilar, madinaliklardan qolishni istaganlar bo’lsa, ular Makkada qoladilar.
5. Makkalik musulmonlardan yoki mushriklardan birontasi Madinaga boradigan bo’lsa, u orqasiga qaytariladi. Sulh o’n yil muddatga tuzilgan.

Muhammad (s.a.v.) 630 yil bahorida Madina qo’shinlari bilan Makkaga yaqinlashganlar va hech qanday qarshiliksiz shaharga kirib kelganlar. Zodagonlar

Muhammad (s.a.v.)ni peshvoz chiqib kutib olganlar. Makka sardori Abu Sufyon nochorlikdan taslim bo'lib, islom dinini qabul qilgan. Uning o'g'li Muoviya payg'ambarning noiblaridan biri bo'ldi. Shu vaqtdan boshlab payg'ambar bilan Makka zodagonlari o'rtasidagi raqobat va qarama-qarshiliklar tugagan.

632 yil 25 yanvarda Makkai Mukarramaga so'nggi hajga safar qilgan Muhammad (s.a.v.) qattiq betob bo'lib qoladilar. U kishi betobligida Ka'ba masjidida imomlikni o'tashni qaynotalari Abu Bakrga topshirdilar (622 yilda Xadicha vafotidan so'ng Muhammad alayhissalom Abu Bakrning qizi Oyshaga uylangan edilar). Muhammad alayhissalom 632 yilning 27 mayida 63 yoshida Madinada vafot etadi va shu yerga dafn etiladi. Payg'ambar vafotlaridan keyin musulmonlar o'rtasida Rasulullohga xalifa (o'rribosar) saylash borasida ixtiloflar kelib chiqadi. Muhojirlar xalifani quraysh qabilasidan saylanishini xohlardilar. Muhojirlar birinchilardan bo'lib islomni qabul qilgan, Makka mushriklarining azobini Payg'ambarimiz bilan birga tortgan edilar. Bundan tashqari qurayshiylarning Arabiston yarim orolida nufuzi yuqori edi. Ansorlar ham xalifalikka o'zlarini haqli deb bilardilar. Chunki ular Payg'ambarga og'ir paytda yordam berib ularga o'z shahridan joy bergen edilar. Makkalik mushriklar bilan bo'lgan janglarda ham ansorlar Payg'ambarimizning yonlarida turib jang qilgandilar. Xalifalikka nomzodlar o'rtasida Payg'ambarning avlodlaridan xalifa saylash tarafdorlari ham bor edi. Ular xalifalikka Alini saylamoqchi edilar. Shunday qilib, xalifa saylash borasida guruhlar orasida chiqqan ixtilof musulmonlarning *Sunniy* va *Shia* oqimlariga bo'linib ketishiga sabab bo'ldi.

Muhammad (s.a.v.) hayotligida Yamandan Sino yarim oroligacha, Qizil dengiz sohillaridan Markaziy qum sahrosigacha cho'zilgan maydonni egallagan kuchli musulmon davlati vujudga keldi. 632 yil Payg'ambar vafot etgan davrdan boshlab islom tarixida vahiy davri tugab, xalifalar davri boshlanadi va Arab xalifaligi deb yuritiladi. Islom dinida asosan ilk to'rt xalifa alohida ahamiyatga ega. Ular – *Abu Bakr* (632-634), *Umar* (634-644), *Usmon* (644-656), *Hazrati Ali* (656-661). Ularni *xulafoi roshidin* (to'g'ri yo'ldan borgan xalifalar) deb atashadi. Abu Bakr boshchiligidagi musulmonlar Iroq va Shom viloyatlari ustidan g'alaba qozonadilar va islomning jahon diniga aylanishiga zamin yaratadilar. Xalifa Umar ibn Xattob davrida musulmonlar ko'plab shahar va

davlatlarni, jumladan, Falastin, Suriya, Misr, Liviya, shuningdek, Eronning katta qismini bosib oldilar. Kufa, Basra, Fustot kabi shaharlar barpo etildi. Iqtisodiy va madaniy sohada islohotlar o'tkazildi. Xalifa Usmon ibn Affon hukmronligi davrida Qur'oni Karim yagona mushafga birlashtirildi. Islom lashkarlari Kipr, Armaniston, Tabariston, Dog'istonni zabit etishib, Amudaryo bo'ylarigacha yetib keldilar. Xalifa Ali davrida esa ichki nizolar kuchayib ketdi.

Islom xalifaligi jami 1293 yil davom etdi. Shundan:

- Arab xalifaligi 632 yildan 1258 yilgacha;
- Misr Abbosiy xalifaligi 1261 yildan 1517 yilgacha;
- Usmonlilar xalifaligi 1517 yildan 1924 yilgacha davom etgan.

***Islom ta'limoti va marosimlari.*** Islom dinining ta'limoti uning muqaddas kitobi Qur'oni Karimda bayon etilgan. Unga ko'ra islom ta'limotini "*imonimufassal*" tashkil etadi. Imon (ishonch, e'tiqod) 7 aqidaga asoslanadi. Bular:



- Allohg'a;
- farishtalarga;
- payg'ambarlarga;
- muqaddas kitoblarga;
- taqdirga;
- o'lgandan keyin qayta tirilishga;
- oxiratga ishonishdir.

*Allah* – dunyoni va undagi barcha mavjudotlarni yaratgan. Olamda yuz bergen va kelajakda bo'ladigan barcha voqealarni hamda hodisalar, dunyoning tugashi va oxiratgacha Allah tomonidan belgilanadi va faqat uning irodasi bilan sodir bo'ladi. Allahni hech kim bor qilgan emas. Allah bilguvchidir. U bilmaydigan biror ish yo'q. U har ishga qodirdir. Allah hamma yerda hozir.

***Farishtalar*** – Allahning nihoyatda itoatli, nurdan yaralgan, odamlar ko'ziga ko'rinxaydigan mavjudotlaridir. Ular doimo Allahning buyurgan ishlarini to'liq, mukammal, bexato bajaradilar, Uning buyurgan ishlaridan aslo chiqmaydilar. Farishtalar

doimo toat-ibodatda bo'ladilar, o'zlaricha hech ish qila olmaydilar, ularda ixtiyor yo'q. Farishtalarning mashhurlari – Jabroil, Mikoil, Isrofil va Azroillardir. Ular o'zлari xohlasa insonlar ko'ziga har xil suratda ko'rinishi mumkin.

*Muqaddas kitoblar* – bu har zamonning o'ziga yarasha din va muomalat hukmlarini bayon etib, o'sha zamonning payg'ambarlariga yuborilgan vahiyalar – Alloh taoloning kitoblari, ya'ni muqaddas kitoblardir. Alloh o'zining payg'ambarlariga 100 sahifa va 4 ta kitob yuborgan. Sahifalar Odam, Shis, Idris, Ibrohimga, kitoblar esa – Musoga "Tavrot", Dovudga "Zabur", Isoga "Injil" va Muhammad (s.a.v.)ga "Qur'on" yuborilgan.

*Payg'ambarlar* – Alloh tomonidan bandalariga din hukmlarini o'rgatmoq uchun yuborilgan elchilardir. Ular aqli, ziyrak, to'g'ri va itoatli bandalardir. Ular Allohnинг amridan chiqmaydilar, gunoh qilmaydilar. Alloh har bir xalqqa, o'z davri va sharotiga qarab payg'ambarlari orqali har xil shariatlar yuborgan. Qur'onda 28 payg'ambarning ismlari zikr qilingan. Payg'ambarlar 2 xilga bo'linadilar:

Rasullar – Alloh tarafidan o'zlariga alohida kitob va shariat berilgan payg'ambarlar, (Odam, Idris, Shis, Ibrohim, Muso, Dovud, Iso va Muhammad (s.a.v.)).

Nabiylar – o'zlariga maxsus kitob va shariat berilmay, bir rasulga berilgan kitob va shariat asosida ish qilishga buyurilgan payg'ambarlar. Rasullarning har biri, ayni paytda, nabiylar ham hisoblanadilar.

*Taqdir* – Alloh tomonidan bo'lган va bo'ladigan yaxshi, yomon ishlarning qaysi zamonda, qaysi joyda, qay ravishda bo'lishini yoki bo'lmasligini oldindan belgilab qo'yilishidir. Haqiqiy musulmon taqdirga ishonmog'i shart. Lekin shu bilan birga, Alloh tomonidan insonga aql va iroda-ixtiyor, faoliyat erkinligi berilgan. Insonning iroda va ixtiyoridan tashqari sodir bo'ladigan ishlar taqdirdir.

*Oxirat va qayta tirilishga ishonish* – bu, dunyoda Allohnинг o'zidan va u xohlaganidan boshqa hech narsa qolmaydigan kundir. Uning qachon bo'lishini Allohdan boshqa hech kim bilmaydi. Alloh oxiratda, butun olamni, yero osmonni va barcha jonzotlarni yo'q qiladi. Keyin insonlarning barchasini tiriltirib, hammani mahshargoh degan joyga to'playdi. U yerda har bir odamning qo'liga o'z nomai a'moli – qilgan yaxshi-yomon, savob-gunohlari bitilgan kitobat topshiriladi. Odamlar qilgan savob-gunoh ishlariga qarab, jannatga, arosatga va do'zaxga kiritiladilar.

Islom ta'limotida *Islom arkonlari* degan tushuncha bor. Bu tushuncha besh asosdan, ustundan iborat va diniy marosim talablarini o'z ichiga oladi:

1. *Imon* – yuqorida aytilgan imoni mufassalga ishonmoq va e'tiqod qilmoq.
2. *Namoz* – Allohga kuniga 5 mahal ibodat qilmoq.
3. *Zakot* – mol-mulki shariat belgilagan miqdorga yetganda, yilda bir marotaba ulardan qirqdan birini, ya'ni 2,5 foizini beva-bechoralarga va boshqa muhtojlarga bermoq.
4. *Ro'za* – har yili ramazon oyida 30 kun ro'za tutmoq.
5. *Haj* – imkoniyati bo'lganda Makkaga borib Baytullohga haj (ziyorat) qilmoq.

Islomning ana shu besh amali har bir musulmonga bajarish uchun farz (shart) qilingan. Bulardan tashqari janoza, sunnat, nikoh va qurbanlik qilish kabi muhim marosimlar mavjud. *Ro'za hayit* (Ramazon), *Qurban hayit* – islomning asosiy diniy bayramlari hisoblanadi.

***Islomdagi asosiy oqimlar.*** Islom diniga amal qiluvchilar ma'lum sabablarga ko'ra uch yo'nalishga ajralganlar. Ulardan dastlabkisi xorijiylik (hozirgi davrda umuman yo'q bo'lib ketgan), keyingilari sunniylik va shialik. Bugungi kunda islom dini sunniylik va shialik yo'nalishida ketmoqda.

***Xorijiylik*** (arabchada “chetga chiqqanlar”, “chiqish” ma'nosini bildiradi). Bu yo'nalish islomdagi ilk sekta hisoblanib, xalifa Ali bilan umaviylar o'rtasidagi kurash davomida VII asrda vujudga kelgan. Xalifalik uchun kurashda Ali Muoviya tarafдорлари – umaviylar bilan jangni oxirigacha olib bormay, g'alabaga yaqin qolganda ular bilan muzokara olib borishga ko'ngan. Alining bunday jur'atsizligi uning tarafдорлари noroziligiga sabab bo'lgan. Ularning eng qat'iylari Alining o'ziga qarshi dushmaniga aylanganlar, xorijiylar uyushmasini tuzib, Aliga ham, Muoviyaga ham qarshi kurash boshlaganlar.

***Sunniylik*** deb, diniy qonun-qoida va tartibotlarga amal qilishda Qur'oni Karim va Payg'ambarimiz hadislari – “Sunna”ga birdek rioya qiluvchilarga aytildi. Sunna arabcha “odat”, “an'ana”, “xatti-harakat” degani. Sunniylik islomda izchil, sobitqadam yo'nalish hisoblanadi. Sunniylar barcha xalifalarni, jumladan, Abu Bakr, Umar, Usmon, Alilarni e'tirof etadilar. Shialar esa faqatgina Hazrat Alini haqiqiy xalifa sifatida tan oladilar.

Sunniylar uchun Makka va Madina shaharlari muqaddas shaharlar hisoblanadi. Hokimiyat masalasida sunniylar – xalifalik, shialar – imomat tarafdori. Sunniylikda to’rtta: hanafiya, molikiya, shofi’iya, hanbaliya mazhablari bor. Hozirgi kunda yer yuzidagi 1,3 mlrd. musulmonlarning 92,5 foizi sunniylardir.

**Shialik** arabcha “guruh”, “tarafdar” degan ma’nolarni beradi. Shialik VII asrning ikkinchi yarmida guruhlar o’rtasidagi hokimiyat uchun kurash oqibatida kelib chiqqan. Shialar Alidan boshqa barcha sunniy xalifalarni siyosiy hokimiyatni zo’ravonlik bilan qo’lga olganlar deb hisoblaydilar. Ali tarafдорлари u Payg’ambarning amakivachchasi va kuyovi bo’lgani uchun musulmonlarning boshlig’i bo’lishi kerak, uning vafotidan keyin esa bu lavozim uning avlodlariga meros bo’lib o’tishi kerak, deb chiqishgan. Shialar Hazrat Ali va uning avlodlaridan iborat 12 imom hokimiyatini tan olishgan. Shialar, xuddi sunniylar singari, Qur’oni Karimni ilohiy deb e’tirof etadilar. Ular Qur’oni Karimning mazmunini majoziy – ko’chma ma’noda talqin qilish yo’li bilan o’z ta’limotlarini asoslaydilar. Ular faqat Hazrat Ali va uning tarafдорлари nomi bilan bog’liq bo’lgan hadislarni tan olganlar va shunday hadislardan iborat mustaqil to’plam tuzganlar. Bu to’plamlar umumiy nom bilan “Axbor” deb atalgan.

**Islomdagi diniy-huquqiy mazhablar.** Mazhab arabcha so’z bo’lib, “yo’nalish”, “oqim”, “yo’l” ma’nosini, shariat mazhablari esa, islomda diniy huquq tizimlari va yo’nalishlarini anglatadi.

### SUNNIYLIKDA

Mazhab nomi	Asoschisi	Amal qiluvchilari % da	Shariat qonunlarini qo’llashdagi xususiyati	Tarqalgan davlatlari
<b>Hanafiya</b>	Abu Hanifa (Imomi A’zam)	47 %	Qur’oni Karim, hadislar, ijmo va qiyos qo’llangan	Suriya, Turkiya, Markaziy Osiyo, Pokiston, Hindiston
<b>Molikiya</b>	Molik ibn Onas	17 %	Qur’oni Karim va Hadislarni aqlga asoslangan holda talqin qilishga, tushuntirishga qarshi chiqqan	Liviya, Sudan, Nigeriya, Mavritaniya, Hijoz

<b>Shofi'iya</b>	Abu Abdulloh ash- Shofi'iy	27 %	Islom huquqi an'anaviy me'yorlar bilan bog'langan, Ijmodan keng foydalanilgan	Misr, Suriya, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Sharqiy Afrika
<b>Hanbaliya</b>	Ahmad ibn Hanbal	1,5 %	Huquq tizimi o'ta tor, shariat me'yorlariga qat'iy, hech bir o'zgarishsiz rioya qiladi	Saudiya Arabistoni

### **Savol va topshiriqlar**

1. Islom dinining paydo bo'lishiga qanday tarixiy shart-sharoitlar sabab bo'lган?
2. Islomning jahon diniga aylanishiga qanday omillar sabab bo'ldи?
3. Muhammad (s.a.v.)ning payg'ambarlik faoliyati qay tariqa boshlangan?
4. Islomdagi asosiy yo'nalishlar qaysilar va ular o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlar nimalardan iborat?
5. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati rivojlanishiga islom qanday ta'sir ko'rsatgan?

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: “O'zbekiston”, 1997.
2. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. –T., 1999.
3. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi/ Tarjima va izohlar muallifi A.Mansur.–T.: “Toshkent islom universiteti”, 2001.
4. At-Termiziy. Shamoili Muhammadiya/ Sayid Mahmud Taroziy – Oltinxon to'ra tarjimasi. – T.: “Mehnat”, 1991.
5. Imom al-Buxoriy. Hadis. 1-4- jildlar, 1991.
6. Мифы народов мира. В 2-х томах. –М., 1991.
7. Hasanov A. Makka va Madina tarixi. –T., 1992.
8. Muhammad payg'ambar tarixi. –T., 1993.

9. Религиозные традиции мира. Буддизм, иудаизм, христианство, ислам. Справочник школьника. –Бишкек, 1997.
10. Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. –Т.: “Sharq”, 1998.
11. Husniddinov Z. Islom: oqimlar, yo’nalishlar, mazhablar. –Т., 2000.
12. Dinshunoslik. Ma’ruzalar matni. –Т., TDYuI, 2000.
13. Dinshunoslik. Oquv qo’llanma. –Т., TDYuI, 2005.
14. Islom ensiklopediyasi. –Т., 2004.
15. Islom ma’rifati (nazariy-uslubiy qo’llanma). –Т., 2005.
16. Mo’mnov A., Yo’ldoshxo’jaev X. va boshqalar. Dinshunoslik (darslik ). –Т.: “Mehnat”, 2004.
17. Usmon Keski o’g’li. Hazrati payg’ambar hayoti. Turkchadan Ibrohim Yo’ldosh Jo’raboy o’g’li tarjimasi. –Т., 1997.
18. Фарманова Б. Религиоведение. Учебное пособие. –Т., ТДЮИ, 2006.
19. Hasanov A.A. Makka va Madina tarixi. –Т., 1992.


## ISLOMNING ASOSIY MANBALARI

### Reja:

- 1. Qur'on – islom dinining muqaddas kitobi** (Qur'onning tarkibi; Makka va Madina suralari; Qur'onning jamlanishi; Toshkentdagi "Mushafi Usmon" tarixi; mashhur mufassirlar).
- 2. Hadislar – diniy va axloqiy dasturlar manbai** (hadislarning vujudga kelishi; hadislarning ma`nosiga ko'ra turlari; sahih, xasan va zaif hadislar; hadislarni tanqidiy o'rghanish).
- 3. Buyuk muhaddislar** (Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy).
- 4. Toshkent shahri – islom madaniyatining poytaxti.**

**Tayanch so'zlar:** Qur'on, sura, oyat, pora, suhuf, mushaf, Makka suralari, Madina suralari, "Mushafi Usmon", tafsir, hadis, hadisi qudsiy, hadisi nabaviy, muhaddis, sahih, xasan, zaif, sunan.

**Maqsadi:** Qur'onning vujudga kelishi, to'planishi va tarkibini o'rghanish; Makka va Madina suralarini, "Usmon Mushafi"ning Samarcandga kelib qolishi haqidagi turlicha qarashlarni tahlil qilish; hadislarning vujudga kelishi va ularning turlarini o'rghanish.



Qur'on – islom dinining asosiy manbasi. Qur'on islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlar hayoti va tarixida asosiy o'rinni tutadi. Olimlarning va buyuk ulamolarning fikriga ko'ra, Qur'on va unga asoslangan islom bugungi dunyo ma'naviy madaniyatining muhim bir bo'lagini tashkil etadi. Qur'onda ilgari o'tgan xalqlar haqidagi qissalar, tarix, geografiya, astronomiya va boshqa bilimlarga oid g'oyalar ko'p uchraydi. Qur'on hidoyat kitobi, ya'ni insonlarni to'g'ri yo'lga boshlovchi kitob deb hisoblanadi. Ibn Sino,

Forobiy, Beruniy, Abu Muso al-Xorazmiy va boshqalarning boy ilmiy meroslarida ham Qur'on oyatlaridan, unga bog'liq ma'lumotlardan keng foydalanilgan. Shoirlarimiz – Yassaviydan tortib Abdurauf Fitratgacha – ko'plab qalam ahllari ijodida Qur'onning katta ta'siri bor. Ularning asarlarida Qur'on oyatlariga ishora ko'p uchraydi.

Qur'on musulmon xalqlarining falsafiy, axloqiy va huquqiy qarashlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Qur'on boy tarixiy va adabiy yodgorlik hamdir. Hozirgi davrda respublikamizda kishilarimiz qalbida xurfikrlilik, vijdon erkinligi, milliy munosabatlarni takomillashtirish, o'tmish madaniy merosiga hurmat, diniy ta'limotlarga xolisona munosabatlar qaror topayotgan sharoitda Qur'on va boshqa diniy yozuvlarni o'rganish harakati to'la erkinlashgan.

*Qur'on – islomning asosi, diniy marosimlar dasturi bo'lish bilan birga axloqiy da'vat, huquqiy meyorlarni, marosim va an'analarni, millionlab inson hayoti va yashash tarzining eng muhim jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan muqaddas kitobdir.*

Qur'on ilmi ulamolari uni quydagicha ta'riflaydilar:

*"Qur'on – Alloh taoloning Muhammad alayhissalomga vahiy orqali nozil qilgan, tavotur ila naql qilingan, ibodatda o'qiladigan, (barchani) lol qoldiruvchi kalomidir".*

**Qur'onning tarkibi.** Qur'on – arabcha "araqa" (o'qimoq) fe'lidan olingan. Qur'on suralardan iborat. Sura so'zi "qo'rg'on", "manzil" va "sharaf" ma'nolarini anglatadi. Sura Qur'ondan bir bo'lak bo'lib, eng kami uchta va undan ortiq oyatlarni o'z ichiga oladi. Qur'onda jami 114 ta sura mavjud. Suralar Qur'onda mazmuniy izchilligi yoki nozil bo'lgan vaqtiga, ya'ni xronologik tartibiga qarab emas, balki hajmiga ko'ra – avval katta suralar, undan so'ng kichik suralar tartibi bilan Muhammad (s.a.v.) ko'rsatmalariga binoan joylangan. Suralarning hajmi ham har-xil: eng katta hajmga ega bo'lgan "Baqara" surasi 286 oyatdan, eng qisqa "Kavsar" surasi faqat 3 oyatdangina iborat.

Oyatlar soni esa, Qur'on matnlarini taqsimlashning turli yo'llariga ko'ra, 6204 ta, 6232 ta, hatto 6666 tagacha belgilangan. Bu narsa Qur'on nusxalarining bir-biridan farqli ekanligini emas, balki undagi oyatlarning turlicha taqsimlanganligini bildiradi, xolos.

Qur'on suralari ikki qismga bo'linadi:

1. Hijratdan avval tushgan suralar – "*Makka suralari*" deyiladi.
2. Hijratdan keyin tushgan suralar – "*Madina suralari*" deyiladi.

Islomshunoslik va qur'onshunoslik xulosalari asosida suralarning xronologik tartibini quyidagicha shaklda tasavvur qilish mumkin:

### ***Makka suralari.***

1-Makka davri (610-615 yillar). Yevropa olimlari bu davrda nozil bo'lgan suralarga "Nazmiy suralar" deb nom berganlar.

2-Makka davri (616-619 yillar), Muhammad (s.a.v.) va ularning izdoshlari doimiy ta'qib ostida yashagan va ko'pchilik Habashistonga ko'chib ketgan muhitda nozil bo'lgan. Bu suralarda Allohning "Rahmon" sifati ko'p tilga olinganligi sababli Yevropa olimlari ularni "Rahmon suralari" deb ataganlar.

3-Makka davri (610 yil boshlaridan 622 yil sentabrigacha). Bu davrda ham Muhammad (s.a.v.) va sahobalari ta'qib ostida yashaganlar, maxfiy ravishda, ko'pincha shahardan tashqarida ibodatga to'planganlar. Bu davr suralarida islomning aqidiga keng o'rin berilgan.

### ***Madina suralari.***

Tarixiy voqealar aniqroq ko'zda tutilgan holda Madina davriga oid 24 ta surani besh davrga ajratish ma'qulroqdir:

1-Madina davri (622 yil oktabridan 624 yilgacha). Muhammad (s.a.v.) Madinaga ko'chib kelganlaridan makkaliklar bilan birinchi yirik to'qnashuv – Badr jangigacha nozil bo'lgan 4 sura bu davrga kiradi.

2-Madina davri (624 yil martidan 625 yil martigacha). Badr jangidan keyin Uhud jangigacha o'tgan bir yil ichida nozil bo'lgan 3 surani o'z ichiga oladi.

3-Madina davri (625 yil martidan 627 yil martigacha). Uhud jangidagi talofatdan keyin Xandaq jangigacha o'tgan ikki yil ichida 5 sura nozil bo'lgan.

4-Madina davri (627 yil aprelidan 630 yil yanvarigacha). Xandaq jangidan so'ng Makkaning olinishigacha o'tgan salkam uch yil ichida nozil bolgan 8 sura shu davrga kiradi.

5-Madina davri (630 yil fevralidan 632 yil mayigacha). Makka fath qilinganidan keyin Muhammad (s.a.v.) vafotlarigacha o'tgan ikki yildan ortiqroq davr ichida nozil bo'lgan 4 ta sura shu davrga kiradi.



***Qur'onning jamlanishi.*** Muhammad alayhissalom hayotlik chog'larida, yana vahiy tushib qolar degan maqsadda Qur'on jamlanib, kitob shakliga keltirilmagan. Payg'ambar vafotlaridan keyin Qur'on kishilarning xotirasida va yozgan narsalarida saqlanib qoldi. Payg'ambardan so'ng musulmonlarga Abu Bakr (572-634 ) boshliq etib saylandi. Uning xalifalik davrida

(632-634) mo'minlar va murtad (dindan qaytgan)lar o'rtasida shiddatli janglar bo'lib o'tdi. Ushbu janglarda Qur'oni to'liq yod olgan qorilar ko'plab shahid bo'ldilar. Shunda Hazrati Umar ibn al-Xattob (585-644) Abu Bakrga – "qorilar o'lib ketaversa, Qur'onga zarar yetishi mumkin, shuning uchun uni jamlab kitob holiga keltirish kerak", degan maslahatni beradi. Avvaliga Abu Bakr ikkilanib turadi. Chunki bu ish Payg'ambar xayotlik paytlarida qilinmagan edi. Keyinroq Abu Bakr Qur'oni kitob shakliga keltirib qo'yish zarurligini anglab yetadi va Zayd ibn Sobit ismli sahabani chaqirib bu ishni unga topshiradi. Chunki, Zayd ibn Sobit Payg'ambar alayhissalom bilan juda ko'p birga bo'lган, Qur'oni eng yaxshi yod olgan va Payg'ambar umrlarining so'nggi yilda farishta Jabroil alayhissalomga Qur'oni avvalidan oxirigacha o'qib bergenlarida birga bo'lган edi. Zayd ibn Sobit, Umar ibn Xattob va boshqalar Qur'oni Karimni puxta yod bilishlariga qaramay, bu ishning mustahkam, ishonchli bo'lishiga harakat qilib, masjidda: "Kimming qo'lida yozilgan Qur'on bo'lsa va uni Payg'ambar huzurida yozilganiga ikkita guvohi bo'lsa, bizga olib kelsin, Qur'oni jam qilishga xalifaning buyrug'i bo'ldi", deb e'lon qildilar. Ular masjidda o'tirib, guvohlarni tekshirib, nihoyatda aniqlik bilan bir yildan ortiq vaqt ichida Qur'oni jamladilar. So'ng ko'pchilikka ko'rsatdilar, hamma rozi bo'ldi. Shunday qilib, Zayd ibn Sobit va Umar ibn Xattob mashaqqatli urinishlardan keyin Qur'oni kiyik terisidan bo'lган sahifalarga yozib bo'ldilar va bog'lab Abu Bakrning uyida saqlab qo'ydilar. Bu "Suhuf" – sahifalar deb nomlandi. Abu Bakr olamdan o'tgandan keyin sahifalar Umar ibn al-Xattob uyida, u olamdan o'tgandang so'ng uning qizi – Payg'ambar alayhissalomning ayollari Xafsada qoldi.

Vaqt o'tishi bilan islom davlatining chegarasi kengayib, qator xalqlar musulmonlikni qabul qilib, musulmonlarning soni ko'paya bordi. Turli tillar va shevalar o'rtasidagi farqlarga ko'ra Qur'oni qanday o'qish kerakliligi borasida ixtiloflar chiqa boshladи. Bu

xolatni ko'rgan o'sha vaqtida xalifalik qilgan Usmon ibn Affon (644-656) Xafsa binti Umardan Abu Bakr va Umar davridagi sahifalarni so'rab olib, undan nusxa ko'c hirishga buyruq beradi. Xalifa Usmon ibn Affon topshirig'iga binoan Zayd ibn Sobit barcha Qur'on suralarini yig'ib, taqqoslab chiqib qaytadan Qur'on matnini jamlagan. Qur'onning birinchi rasmiy nusxasi 651 yil taqdim etildi. U asl nusxa hisoblanib, yana uchta, ba'zi manbalarga ko'ra esa oltita nusxa ko'chirtirilib, yirik shaharlardan – Basra, Damashq, Kufaga jo'nataladi. "Imon" deb nomlangan asl nusxa esa Madinada, xalifa Usmon xuzuruda qoldi. Ko'chirilgan nusxalar "**Mushafi Usmon**" deb ataladi. Nusxalar tayyor bo'lgandan so'ng musulmonlar yashaydigan diyorlardagi markaziy shaharlarga bittadan nusxaga bitta qori qo'shib jo'nataladi va hammaga faqat Qur'onning shu nusxasidan ko'chirishiga buyruq beriladi.

Keyinchalik nusxa ko'chirish yo'lga qo'yilishi jarayonida faqatgina Usmon davrida yozilgan nusxalarga suyanish joriy bo'ldi. Oxiri kelib, har bir nusxaning ishonchli ekanini tasdiqlash maqsadida, bu nusxa Mushafi Usmonga muvofiqdir, deb yozib qo'yiladigan bo'ldi. Shunday qilib, Qur'on matnining ham yozuv, ham uslubiy bir xilligi saqlanib qolindi. Zamon o'tishi bilan berilgan maslahatlardan so'ng, kishilar Qur'oni xato o'qimasliklari va Qur'on qiroati haqida turli ixtiloflarga tushmasliklari uchun, mushaflarga zamma, fatha, kasra alomatlari qo'yish kerak, degan fikrga to'xtanildi. Bunda ham asl harflarga zarracha o'zgarish alomatlari kirmaslik shartlari ishlab chiqildi. Tarixda bu ish "*Qur'oni nuqtalash*" deb nomlandi.



**Toshkentdag'i "Mushafi Usmon" tarixi.** Endilikda dunyoda to'rt nusxada saqlanib qolgan Hazrati Usmon mushafidan biri O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanmoqda. Usmon mushafi Chor Rossiyasi O'rta Osiyonidagi bosib olguncha Samarqandda, Xo'ja Ahror madrasasida saqlanar edi.

Mazkur Qur'on 5553 varaqdan iborat bo'lib, varaqlar o'lchami 68x53 sm., matn hajmi 50x44 sm.dir. Sahifalar kiyik terisidan ishlangan bo'lib, har biriga 12 qatordan chiroyli kufiy xatida yozuv bitilgan. Ko'p varaqlari yo'qolgan va keyinchalik qog'oz sahifalar bilan to'ldirilgan.

Qur'onning Samarqandga keltirilishi haqida ham xalq orasida har xil rivoyatlar bor. Ularning eng ishonarlisi, bu Qur'on Sohibqiron Temur tomonidan Basradan ko'plab qo'lyozma kitoblar va boshqa o'ljalar bilan birga Samarqandga keltirilgan va mashhur Temur kutubxonasi qo'ydirilgan. Temuriylar davridagi o'zaro kelishmovchiliklarda Temur kutubxonasi yondirilib yuborilgan, tasodifan shu nusxa omon qolgan, degan versiyadir.

Qur'oni chuqur ilmiy taftish etgan Sankt-Peterburglik sharqshunos olim A.B.Shebuninning fikricha, Qur'on Basradan Sohibqiron Temur tomonidan Samarqandga keltirilgan, chunki, Shebunin Parij, Berlin va Makkadagi hamda boshqa nusxalariga solishtirib, bizdagi Qur'onning Basra nusxasi ekanligini isbotlab berdi. 400 yil davomida bu muqaddas kitob Samarqandda saqlandi.

1868 yilda rus askarlarining Samarqandga bostirib kirishi bilan xalqimizning moddiy, ma'naviy boyliklariga tajovuz boshlandi. Albatta, bu tajovuzdan Usmon Mushafi ham chetda qolmadi. Musulmonlar Qur'oni tezlikda bekitib Buxoroga jo'natmoqchi bo'ladilar. Biroq bu xabar Zarafshon o'lkasining boshlig'i general Abramov qulog'iga yetib, "Fan uchun bunday nodir, beba ho, qadimiy yodgorlikni qo'ldan chiqarmaslik uchun hamma chora ko'riksin" deb polkovnik Serovga buyruq beradi. Serov Qur'oni general Abramovga keltiradi. Abramov esa uni zudlik bilan 1869 yil Peterburgga – Imperator kutubxonasi alohida kuzatuvchilar bilan yuboradi.

Rus ishbilarmonlari qulay fursatdan foydalanib, Qur'on tufayli boylik ortirish yo'liga o'tdilar. Masalan, 1895 yili Qur'onning bir varag'i 2000 nusxada chop etildi. 1905 yili esa Ilyos ibn Axmad Shoh "Yosin" surasini foto nusxasini chiqardi. Shu yili S.Pisarev Qur'oni faksimilda 50 nusxa chop etib, 25 nusxasini sotishga chiqardi. Har bir nusxasiga 500 so'm baho qo'yildi. U Qur'oni asl nusxasiga o'xshatish uchun hajmini ham eskicha qoldirdi. Hozir bu nusxadan respublikamizda ikkita bo'lib, biri O'zbekiston musulmonlari diniy idorasining asosiy kutubxonasida, ikkinchisi – Temuriylar tarixi davlat muzeyida saqlanadi.

1923 yil 23 iyulda Butunitifoq Markaziy Ijroqo'mi Usmon Qur'onini Turkistonga qaytarishga qaror qiladi. Muqaddas yodgorlikni Ufadan Toshkentga maxsus komissiya

kuzatuvida olib kelinadi. 1923 yil 18 avgustda Toshkentdan Sirdaryo diniy idorasiga qarashli Xo'ja Axror Jome' masjidiga topshiriladi.

Qur'onga Sharqning juda ko'p olimlari tomonidan turli tafsirlar yozilgan. Qur'on XII asrdan boshlab Yevropa xalqlari tillariga, jumladan, lotin tiliga tarjima qilina boshlagan. XVIII asr boshlarida Yevropa xalqlari tillaridan, XIX asr o'rtalarida esa arabcha asl nusxasidan rus tiliga tarjima qilingan. G.S.Sablukovning arabchadan daslabki tarjimasi Qozonda uch marta (1878, 1894, 1907 yillarda) nashr qilingan. Akademik I.Yu.Krachkovskiy tomonidan amalga oshirilgan Qur'onning ilmiy izohlari bilan rus tilidagi adekvat tarjimasi mashhurdir (1962, 1986 y.).

Mamlakatimiz mustaqil bo'lganidan keyin Qur'oni o'zbek tiliga tarjima qilishga kirishildi. 1992 yilda Qur'on o'zbek tiliga Alouddin Mansur tarafidan tarjima qilinib, "Cho'lpon" nashriyotida ko'p nusxada nashr etildi. 2001 yilda Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi Abdulaziz Mansur tomonidan amalga oshirildi va "Toshkent islom universiteti" nashriyotida 50 ming nusxada chop etildi.

***Hadislarning jamlanishi va mashhur to'plamlari.*** Muhammad alayhissalomning aytgan so'zlari, qilgan ishlari, ko'rsatmalar yoki u kishiga berilgan sifatlarni o'zida mujassam qilgan rivoyatlar **hadislar** deb ataladi. *Hadis* so'zining lug'aviy ma'nosi – "xabar", "hikoya", "so'z" bo'lib to'liq ko'rinishi – *al-hadis an-Nabaviy* (Payg'ambar so'zlari)dir.

Hadislar ikki qismdan iborat bo'ladi: matn va uni rivoyat qilgan roviylar zanjiri – isnod.

Hadis ikki turga bo'linadi:

- *Hadisi qudsiy* (ma'no Allohdan, so'z Payg'ambaridan);
- *Hadisi nabaviy* (ma'no ham, so'z ham Payg'ambaridan).

Hadisi qudsiy – "hadisi Rabboniy", "hadisi ilohiy" deb ham aytildi. Uni Alloh taolo o'z nabiysiga ilhom berish, tushida ko'rsatib bildirish orqali xabar beradi, Payg'ambar esa, buning ma'nosi Alloh nomidan, Alloh taolo aytdi, deb sahobalarga yetkazganlar. Hadisi qudsiyning martabasi Qur'oni Karim bilan hadisi nabaviy o'rtasida.

Hadislar Islom dinining Qur'onidan keyingi ikkinchi manbasi hisoblanib, ko'pgina fiqhiy masalalarni hal etishda ularga asoslaniladi.

Hadislar e'tiborga olinishi jihatidan yana uch qismga bo'linadi:

- sahib (ishonchli);
- hasan (o'rta, yaxshi);
- zaif (ishonchsiz).

Islomda taniqli va nufuzli hisoblangan kishilar tomonidan yetkazilgan hadislar "sahih" deb e'tirof etilgan. Hadisni yetkazgan kishilar o'rtasida qandaydir uzilish ro'y bergan bo'lsa, bu hadislar "*hasan*", agar hadisni yetkazganlar orasida hurmatga va ishonchga loyiq bo'limgan odamlar kirib qolgan bo'lsa, bunday hadislar "*zaif*" deb hisoblangan.

Ma'lumki, hadislar asosan Muhammad (s.a.v.) vafotidan keyin yozila boshlagan. Qur'oni Karimda barcha huquqiy va axloqiy masalalar umumiylar tarzda yozilgan. Ularga aniqlik kiritish va izohlab uqtirish maqsadida Muhammad (s.a.v.) o'z hadislarini aytganlar. Payg'ambar safdoshlari – sahabalar oyatlarni maxsus sahifalarga yozib borganlar. Ularning ba'zilari Payg'ambarning aytgan so'zi va xatti-harakatlarini ham yoza boshlaganlar. Payg'ambar hayotlik chog'larida sahobalarning Qur'oni Karimga hadislarni aralashtirib yuborishlaridan qo'rqib, ularni yozib borishdan qaytarganlar.

Abu Xurayradan misol keltiriladi – Payg'ambar: "Ollohning kitobi – Qur'onidan boshqa yana qanday kitob istaysiz. Sizdan boshqa millatlar Allohning kitobidan tashqari yana boshqa kitoblar yozganlari uchun zalolatga ketdilar-ku!" degan ekan. Rasululloh vafotlaridan so'ng hadislarni naql qilish odat tusiga kirdi.

Ilk yozilgan hadislar qatoriga Muhammad (s.a.v.)ning xorijiy o'lkalarga – Vizantiya imperatoriga, Eron shohiga, Misr hamda Habashiston hukmdorlariga yo'llagan maktublari ham kiradi. Undan tashqari ko'plab boshqa hujjatlar ham bo'lganki, ular ham ilk bor yozilgan hadislardan hisoblanib, ularda islomga da'vat etish, muayyan vazifalarga tayinlash, yer va undan olinadigan soliqlar, imon va tavsiya maktublari, Payg'ambarga kelgan xatlarga javoblar o'rinni olgan.

Muhaddislar hijriy 41 (milodiy 661) yildan boshlab soxta hadislar paydo bo'lganligini o'z tadqiqotlari natijalariga tayangan holda aytib o'tganlar.

Soxta hadislar arab tilida mavzu' (qo'yilgan, soxta) deb ataladi. Istilohda esa, Rasululloh (s.a.v.)ga nisbat berilib to'qilgan yolg'on so'z. Mavzu' hadislarning eng yomoni va noma'quli hisoblanadi.

### **SOXTA HADISLAR TO'QILISHIGA SABAB BO'LGAN BIR NECHA OMILLAR**

- 1.** O'zlarini taqvodor zohid kishi deb bilgan ba'zilar odamlarni yaxshilikka targ'ib qilish, yomonlikdan qaytarish maqsadida hadis to'qiganlar. Odamlar esa ularning so'zlari va tashqi ko'rinishlariga ishonib, to'qigan narsalarini hadis deb qabul qilganlar.
- 2.** O'z mazhablarining boshqalaridan ustun ekanligini isbotlash maqsadida turli hadislar to'qigan xorijiyalar, shialar va shu kabi siyosiy va aqidaviy firqalar bo'lган.
- 3.** Har xil hadislar to'qib, musulmon va hadislarga zarar yetkazmoqchi ayrim islom dushmanlari harakati.
- 4.** Hokimlar va podshohlarga yoqish uchun ularning ishlariga moslab yoki maqtab hadislar to'qigan ayrim imoni zaif kishilar qilmishi.
- 5.** Odamlarga qiziqarli bo'lishi va ularning e'tiborini tortib tirikchilik qilish maqsadida turli hadislar to'q'igan ba'zi qissachilar faoliyati.
- 6.** Birorta ham shayx bilmaydigan hadislar to'qib odamlar orasida shuhrat qozonmoqchi bo'lган kishilar harakati.

XI-XII asrlarga kelib Movarounnahrda hadis sohasida ancha olg'a siljishlar bo'ldi. Bu davrda yashagan olimlar faqatgina ma'lum bir chegaralangan doirada ijod qilish bilan kifoyalanmay, balki imkon qadar ilmning ko'proq qirralariga ega bo'lishga intilganlar. Shunga ko'ra biron-bir olim, masalan, faqatgina mufassir yoki faqixning o'zi emas, balki bir vaqtning o'zida muhaddis ham bo'lган. Chunki bu davrda, yuqorida aytib o'tilganidek, diniy ixtiloflar kuchaygan edi. Shunga ko'ra ulamolar bu ixtiloflarni oldini olish, bartaraf etish uchun har taraflama kuchli bilimga ega bo'lishlari lozim edi.

VII asr oxiri VIII asr boshlarida tafsir ilmi bilan bir qatorda hadis ilmida musnadlar yozila boshladi. Islomning avvalgi vaqtida faqatgina yozma holida saqlanib kelingan bo'lsa, keyinchalik turli darajadagi soxta hadislar ham musulmonlar orasiga singib ketdi.

Bu esa olimlar oldiga katta mas'uliyatli vazifani, to'qima hadislarni va "sahih" – ishonchlilarini ajratib berish vazifasini qo'ydi.

Islom olamida eng obro'li hadis to'plamlari quyidagilar hisoblanadi:

**"Al-Jome' as-sahih"** (*Sahihi Buxoriy*), **"Sahihi Muslim"**, **"Sunani Abu Dovud"**, **"Sunani Nasoiy"**, **"Sunani ibn Mojja"**, **"Sunani Termiziy"**.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yurtdoshimiz Imom al-Buxoriy tomonidan tuzilgan "Sahihi Buxoriy", ya'ni "Ishonchli to'plam" musulmon olamida Qur'onidan keyin turuvchi birinchi mukammal manba hisoblanadi. To'plamga Muhammad alayhissalom va u kishining sahabalari haqidagi hadislardan tashqari islam huquqshunosligi (fiqh), marosimchiligi hamda o'sha davr tarixi va etnografiyasiga oid hadislar ham kiritilgan. Imom Buxoriyning ushbu asari kishilarda axloq-odob, halollik, rostgo'ylik, poklik singari umuminsoniy fazilatlarni qaror toptirish va mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumotlarga ko'ra, Imom al-Buxoriy 600 mingga yaqin hadis to'plagan. Ulardan faqat 7250 tasini "ishonchli" deb hisoblab, o'z kitoblariga kiritgan.

1993 yilning 23-24 oktabr kunlari O'zbekiston rahbariyatining qarori bilan dunyo muhaddislarining imomi, sultonni Imom al-Buxoriy tavalludining 1220 yilligi nishonlandi. Bu sanaga bag'ishlab "Imom Buxoriy – hayoti va davri" mavzuida xalqaro ilmiy anjuman o'tkazildi. 4 jildli "hadis" to'plamlari, shuningdek, "Al-adab al-mufrad" ("Adab durdonalari") kitobining o'zbek tilida nashr etilishi, 1992 yilda Prezidentimiz I.A.Karimov Saudiya Arabistoniga borganlarida, bu davlat podshosi Fahd ibn Abdul Aziz hazrati oliylarining ehtirom belgisi sifatida hadya qilgan Ka'batulloh ustiga yopilgan Kisva – Ka'bapo'shning bir parchasini Yurtboshimiz Imom al-Buxoriy masjidiga tortiq qilganligi buyuk allomaning xotirasiga ko'rsatilgan yuksak hurmat belgisidir. Bundan tashqari, 1998 yilda Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi nishonlandi. Bu sanaga bag'ishlab ulug' alloma xotirasiga Samarqand viloyatining Chelak tumanidagi Hartang qishloqida ulkan yodgorlik obidasi bunyod etildi.

Prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida Imom Buxoriy haqida shunday deganlar: **"Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islam madaniyatini ravnaq toptirishga qo'shgan betakror hissasi to'g'risida so'z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida "muhaddislar sultonı"**

**deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo'tabar zot merosining gultoji bo'lmish eng ishonchli hadislar to'plami – “Al jome' as-sahih” kitobi islom dinida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, ahli islom e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi. Mana, o'n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo'liga chorlab kelmoqda”.**

Buyuk muhaddislardan yana biri aziz vatandoshimiz Abu Iso Muhammad at-Termiziyydir. At-Termiziyyning fiqh boblariga moslab tasnif qilgan “Sunan” nomli kitobi eng ishonchli hadis to'plamlaridan hisoblanadi. At-Termiziyy Markaziy Osiyo xalqlarining urf-odatlari, davlatchilik qonun-qoidalari va qadimgi diniy e'tiqodilarini islomga moslashtirilgan holda singdirishga katta xizmat ko'rsatgan. Imom Termiziyy yuksak axloqiy va insoniy fazilatlarga ega, yuksak zakovat va zehn sohibi, fanning turli sohalarida atroflicha chuqur va yetuk bilimga ega bo'lgan kishi edi. U zot har doim ilm-fanni targ'ib qilar, ayniqsa, yoshlarni ilm olishga da'vat etardi.

1990 yilda yurtimizda Imom at-Termiziyy tavalludining 1200 yilligi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan Yurtboshimiz Islom Karimovning “Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziyy tavalludining 1200 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjuman ishtirokchilariga” yo'llagan tabrigida, jumladan, quyidagilar ta'kidlandi: **“Shuni mammuniyat bilan qayd etmoq kerakki, bugungi kunga kelib, davlat bilan diniy tashkilotlarning o'zaro munosabatlari ancha yaxshilandi. O'zbekiston hukumati mo'minlarning istaklarini inobatga olib, musulmon dunyosining eng muqaddas yodgorliklaridan biri – xalifa Usmon “Mushafi”ni ular ixtiyoriga qaytib berdi. Qator tarixiy obidalar diniy tashkilotlar ixtiyoriga o'tkazildi. Yangi masjidlar ochilmoqda. Davlat diniy asalarni chop etishda yordam beryapti. Makka va Madinani ziyorat etishga borayotgan musulmonlar ko'paydi. Din peshvolari matbuot, radio va televide niye orqali o'z qarashlarini emin-erkin bayon etmoqdalar... Qadimiy Movarounnahr va Xuroson farzandlarining jahon ilmu ziysi tarixiga zarvaraqlar ila bitilgan asarlari oz emas. Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Rudakiy, Ulug'bek,**

**Jomiy, Navoiy, Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va boshqa yuzlab zotlarni jahon yaxshi biladi. Bu zakiylar silsilasida Imom at-Termiziyning aziz nomlari ham yorug' yulduzday charaqlab turibdi”.**

**Shariat.** Shariat arabcha so'z bo'lib, “to'g'ri yo'l”, “ilohiy yo'l”, “qonunchilik” degan ma'nolarni bildiradi. Shariat islam dinining diniy huquqiy qonunchilik tizimidir. Unda huquqiy masalalardan tashqari axloqiy me'yorlar va diniy talablarga qonun tusi berilgan. Islom tarixida huquq sohasidagi chigal, murakkab voqeа va hodisalar, diniy marosimlar, oilaviy va ijtimoiy hayotni bir qolipga solib, nazoratga olish maqsadida shariat muayyan tavsiyalar belgilagan. Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, bu tavsiyalar shariatda musulmonlar xatti-harakatiga ayrim qoida va tavsiyalar joriy etish bilan cheklanmagan, balki musulmonlarning turmush tarzini belgilashni o'z zimmasiga olgan. Dastlabki davrlarda musulmonlarning xatti-harakatini shariat ikkiga – ta'qiqlangan va ta'qiqlanmagan harakatlarga bo'lgan. Bular *harom* va *halol* tushunchalari bilan ifodalangan.

**Halol** – musulmonlarga shariat ruxsat etadigan xatti-harakat, ish, toza va pok hisoblangan oziq-ovqatlardir. **Harom** esa – musulmonlar uchun qat'ian man etilgan, ta'qiqlangan xatti-harakat, ish va tanovul qilishga ijozat berilmaydigan yemishlardir.

Keyinchalik shariat qonunlarining takomillashuvi jarayonida musulmonlarning barcha xatti-harakatlari quyidagi turkumlarga bo'lingan:

**Farz** (arab. “majburiyat”) – diniy-huquqiy kategoriya bo'lib, bevosita Qur'onda qayd etilgan, har bir musulmon qanday bo'lmasin bajarishi shart bo'lgan qat'iy talab, tartib-qoidalardir. Masalan, Qur'onda qayd etilgan din arkonlari (kalimai shahodat, namoz, ro'za, zakot va haj) farz hisoblanadi.

**Mandub** (arab. “tavsiya etilgan”, “lozim topilgan”) – diniy-huquqiy kategoriya sifatida bajarish lozim va savob deb tavsiya etiladigan, lekin majbur va gunoh bo'lмаган harakatlar (masalan, xatna, qurbanlik, mavlud, majburiy bo'lмаган namozlarni o'qish, xayr-ehson qilish). Bular diniy nuqtai nazaridan yaxshi va maqtovga sazovor, oxiratda taqdirlanadi, ammo ijro etmagan taqdirda mas'uliyat talab etilmaydi.

**Muboh** (arab. “umumi hech kimga taalluqli bo'lмаган”) – shariat kategoriysi bo'lib, tor ma'noda ijozat beriladigan barcha xatti-harakatlar. Ijrosi maqtovga yoki

mukofotga sazovor bo'lmasa ham, gunoh hisoblanmaydigan, u dunyoda taqdirlanmaydigan, inson hayoti va turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan oddiy xatti-harakatlar (ovqatlanish, uqlash, o'yin-kulgu, dam olish).

**Makruh** (arab. “rad etilgan”, “qoralangan”, “nomaqbul”) – qat'iyan ta'qiqlanmagan, biroq nomaqbul hisoblangan va rad etilgan xatti-harakatlarni ifodalovchi shariat kategoriyasi. Diniy e'tiqod nuqtai nazarida nomaqbul, ammo qat'iyan rad etilmagan. Imonni saqlash uchun makruh ishlarni qilmaslik lozim hisoblanadi. Ammo buning uchun narigi dunyoda jazoga tortilmaydi. Makruh asosan diniy marosimlarni ijro etish jarayoni bilan bog'liq (masalan, toza bo'limgan, noplari kiyimda namoz o'qimoq, tahorat shartlarining buzilishi, kasal odamning ro'za tutishi, diniy matnlar yozilgan qog'ozlarni oyoq osti qilish va narsa o'rash). Bulardan tashqari makruh musulmonlarning kundalik hayoti va axloqiga ham bog'liq. Masalan, birovning uyiga ijozatsiz kirish, o'g'irlangan narsani sotib olish, pishmagan ekinni sotish, qarzdorni majburan xizmatga olish va hokazolar.

**Mahzur** – yoki **harom** (arab. “man etilgan”, “ruxsat berilmagan”) musulmonlar uchun qat'iy ta'qiqlangan xatti-harakat, muomala, fikr, e'tiqod, narsalar, yejish ma'n etilgan oziq-ovqatlardir. Quyidagi narsalar va ishlar musulmonlarga harom hisoblanadi: cho'chqa (to'ng'iz), o'laksa, Allohdan o'zgaga atab qurbanlik qilib so'yilgan hayvon go'shtlari, it, vahshiy hayvonlar, qarg'a, o'laksaxo'r hamda yirtqich qushlarning go'shtlari, mast qiluvchi ichimliklar va giyohlar, zinokorlik, ota-onaga oq bo'lish, sudxo'rlik, o'g'rilik, qaroqchilik, qotillik, g'iybat, tuhmat, bohton, badgumonlik, chaqimchilik, yolg'onchilik, birovning haqqiga, omonatiga xiyonat qilish, savdo-sotiqla g'irromlik qilmoq, tarozidan urib qolmoq, sehr-jodu bilan shug'ullanmoq, ishga layoqatli bo'la turib ishsiz yurmoq va shu kabilar shar'an harom hisoblanadi.

Qur'onning “Moida” surasi 3- va 90-oyatlarida shunday deyiladi: “Sizlarga o'laksa, qon, to'ng'iz go'shti, Allohdan boshqa birovning yo'liga so'yilgan narsa, bo'g'ilib o'lgan, urib o'ldirilgan, baland joydan qulab o'lgan, (boshqa biron hayvon bilan) suzishib o'lgan va yirtqich hayvon tishlab o'ldirgan jonivorlar harom qilindi”, “Ey mo'minlar, aroq (mast qiladigan ichkilik ichish), qimor (o'ynash), butlar (ya'ni ularga sig'inish) va

cho'plar (ya'ni cho'plar bilan folbinlik qilish) shayton amalidan bo'lgan harom ishdir. Bas, najot topishingiz uchun ularning har biridan uzoqroq bo'lingiz!"


Haromning turi juda ko'p. Ba'zi hollarda esa harom narsa halol bo'lib qoladi. Masalan, hayotni saqlab qolish uchun yegulik boshqa narsa bo'lmasa va bemorga dorilik uchun harom qilingan narsalardan iste'mol qilishga ruxsat etiladi.

Shariatga asos qilib Qur'oni Karim, ikkinchi – Sunna, uchinchi – ijmo' va to'rtinchi – qiyos olingen.

### ***Toshkent shahri – islom madaniyatining poytaxti***

Islom Konferensiyasi Tashkilotining ta'lif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha ixtisoslashgan tuzilmasi (ISESCO) faoliyatida har yili Osiyo, arab dunyosi va Afrika bo'yicha islom madaniyatining poytaxtlarini e'lon qilish o'ziga xos an'ana aylangan. 2007 yilda bunday sharaflı unvonga Toshkent (O'zbekiston), Tripoli (Liviya), Fes (Marokash) va Dakar (Senegal) shaharlari munosib topildi.

Toshkent shahriga islom madaniyati poytaxti degan yuksak nomning berilishi nafaqat Toshkent, balki butun O'zbekiston xalqi uchun ulkan tarixiy va madaniy-ma'rifiy voqeа bo'ldi.



## **TOSHKENT SHAHRI BUNDAY YUKSAK UNVONGA**

O'zbekiston xalqining islom madaniyati, falsafasi, ilm-fani  
rivojiga qo'shgan ulkan hissasi

islomga oid qo'lyozma  
manbalarga  
boyligi

tarixiy obida va me'morchilik  
namunalariga cheksiz hurmat-  
e'tibori

**tufayli sazovor bo'ldi**

### **Savol va topshiriqlar**

1. Qur'on qachon vujudga kelgan va dastlab kim tomonidan yozilgan?
2. Qur'onning sura va oyatlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Hadis nima va nega hadislarni to'plash zaruriyatga aylangan?
4. Nima sababdan hadislar ishonchli, haqiqiy va yolg'on turlarga bo'lingan?
5. Quyidagi hadislarni davom ettiring:
  - Qo'li va tili bilan o'zgalarga ozor bermagan...
  - O'zi yaxshi ko'rgan narsalarni o'zgalarga...
  - Ota-onasiga la'nat o'qigan kishi...
  - Beshikdan qabrgacha...
  - Jannat onalar...

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T., "O'zbekiston", 1997.
2. Karimov I.A. Imon al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligida so'zlagan nutq. "Xalq so'zi". 24 oktabr, 1998.
3. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. –T., 1999.

4. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi/ Tarjima va izohlar muallifi A.Mansur.– T.: “Toshkent islom universiteti”, 2001.
5. Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik (yuz savolga – yuz javob). “Toshkent islom universiteti”. – T., 2009.
6. Dinshunoslikning dolzarb muammolari. II. “Toshkent islom universiteti”. – T., 2010.
7. Imom al-Buxoriy. Hadis. 1-4 jildlar. –T., 1991.
8. Islom ensiklopediyasi. –T., 2004.
9. Islom ma`rifati (nazariy-uslubiy qo'llanma). –T., 2005.
10. Jo'raev F., Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. –T.: “Sharq”, 1998.
11. Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. –T., 1996.
12. Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob. –T., 2000.
13. Мифы народов мира. В 2-х томах. –М., 1991.
14. Muhammad payg'ambar tarixi. –T., 1993.
15. Mo'minov A., Yo'doshxo'jaev X. va boshqalar. Dinshunoslik (darslik). –T., “Mehnat”, 2004.
16. Религиозные традиции мира. Буддизм, иудаизм, христианство, ислам. Справочник школьника. –Бишкек, 1997.
17. Tojiboeva D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. –T., TDYuI, 2010.
18. Usmon Keski o'g'li. Hazrati payg'ambar hayoti. Turkchadan Ibrohim Yo'dosh Jo'rabyo o'g'li tarjimasi. –T., 1997.
19. Фармanova Б. Религиоведение. Учебное пособие. –Т., 2006.
20. Hasanov A. Makka va Madina tarixi. –T., 1992.
21. Husniddinov Z. Islom: oqimlar, yo'nalishlar, mazhablar. –T., 2000.
22. Shokirov Yu. Islom shariati asoslari. –T., 1992.

## **VIJDON ERKINLIGI VA DINIY TASHKILOTLAR**

### **Reja:**

**1. Vijdon erkinligi – e`tiqod erkinligi** (vijdon erkinligi tushunchasi; O’zbekiston Respublikasida vijdon erkinligining qonun yo’li bilan kafolatlanishi; vijdon erkinligining kafolatlari).

**2. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni** (qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi sabablari; qonunning maqsadi; qonunda diniy tashkilotlarni ro’yxatga olish tartibi).

**3. Dunyoviy davlatda davlat va din munosabatlari** (O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat va din munosabatlarini mustahkamlanishi; dunyoviy davlat tushunchasi; O’zbekiston sharoitida dunyoviy davlatning din bilan o’zaro munosabatlari tamoyillari).

**4. O’zbekiston Respublikasida din va diniy tashkilotlarga bo’lgan yangicha munosabat.**

**5. Diniy konfessiya, diniy sekta.**

**6. Missionerlikning mazmun-mohiyati.**

**Tayanch so’zlar:** vijdon erkinligi, dunyoviy davlat, diniy tashkilot, diniy o’quv yurtlari, konfessiya, diniy jamoa, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi Qonun, dahriylik, konfessiya, missionerlik.

**Maqsadi:** vijdon erkinligi tushunchasi; dunyoviy davlat tushunchasi, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risidagi” Qonunni o’rganish; O’zbekistonda din va davlat munosabatlarini tahlil qilish.

**O’zbekiston Respublikasida davlat va din munosabatlari.** Mustaqillik ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan, ma’naviy hayotdagi yangilanish jarayonini, tub o’zgarishlar davrini boshlab berdi. Dinga bo’lgan munosabat tubdan o’zgardi: sobiq sovet tuzumining dinga ateistik hujumkorlik siyosatiga barham berildi, vijdon erkinligi qonun

orqali kafolatlandi. Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida gap ketar ekan, eng avvalo, *dunyoviy davlat tushunchasini* anglab olish zarur. Dunyoviy davlatning xususiyatlari quyidagicha:

- din davlatdan ajratiladi;
- din dunyoviy davlat ishiga, siyosatiga aralashmaydi;
- davlat diniy tashkilotlar zimmasiga hech qanday vazifa bajarishni yuklamaydi;
- davlat diniy tashkilotlarning davlat qonunlariga zid bo'limgan faoliyatiga aralashmaydi;
- fuqarolar uchun vijdon erkinligi e'lon qilinadi;
- biror dinga imtiyoz berilmaydi, barcha diniy tashkilotlarning qonun oldida tengligi ta'minlanadi;
- ta'lim tizimi dindan ajratiladi;
- diniy tashkilotlarning faoliyati davlat hisobidan mablag' bilan ta'minlanmaydi.

O'zbekiston dunyoviy davlat. Demak, dunyoviy davlatda amal qiladigan davlat va din munosabati tamoyillariga O'zbekistonda ham amal qilinadi. Birinchi navbatda dinning davlatdan ajratilishi tamoyilini, uning asosini ta'kidlash zarur. Bu haqda Konstitutsiyamizning 61-moddasida shunday deyilgan: "**Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirilar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi**". Mazkur moddada muhim qoidalar mustahkamlab qo'yilgan. Avvalo, diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat'i nazar, bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib boradilar. Bugungi kunda respublikamizda 15 ta noislomiy konfessiyaga mansub 186 ta tashkilot emin-erkin faoliyat olib borayotgani buning amaliy ifodasidir. Qolaversa, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davlat nazoratidan xolidir.

Diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, jamiyatdan ajratilgan emas. Zero, biror dinga e'tiqod qiluvchi fuqarolar ham jamiyatning tarkibiy qismi va shu sababli din fuqarolik jamiyatida o'z mavqeiga ega bo'ladi. Din va jamiyat hayotidagi aloqadorlikdan din va dunyoviy davlat munosabatini belgilab beruvchi boshqa bir tamoyil – din sohasida kechayotgan o'zgarishlarni xolis va ilmiy o'rGANISH, ijobiylar rivojiga yanada kengroq imkoniyat yaratish, salbiy holatlarning oldini olishdir. Davlatning dinga bo'lgan

munosabatini ifodalovchi yana bir tamoyil shundan iboratki, davlat dinni xalq ma'naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, dinning rivoji uchun tegishli shart-sharoitlar yaratadi. I.A.Karimovning Oliy Majlisning o'n to'rtinchi sessiyasida so'zlagan nutqida bu tamoyil o'zining yorqin ifodasini topgan: **"Mamlakatimizni demokratik tamoyillar, ilm-fan yutuqlari, yuksak texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish bilan birga, muqaddas dinimizni, milliy o'zligimizni asrab-avaylab yashashni maqsad qilib qo'yganmiz"**. Bu fikrlar hayotiy voqelikka aylanmoqda.

Dinning jamiyatimizdagi o'mni, eng avvalo, uning konstitutsion maqomi bilan belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bu masalalar o'z yechimini topgan. Har qanday dinga e'tiqod qiluvchi va hech qanday dinga e'tiqod qilmaydigan kishilar uchun bir xildagi shartlar qo'yilishi Konstitutsiyaning 31-moddasida, jumladan, shunday ifodalanadi: **"Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi"**. Ushbu kafolatlar xalqaro huquqiy hujjatlarga mos keladi. 1948 yili qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 18-moddasida har bir inson fikr, vijdon, din va e'tiqod erkinligi huquqiga egadir, deb ta'kidlangan. 1966 yili qabul qilingan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt"ning 18-moddasida "Biror odam ham o'z ixtiyori bilan o'z dini va e'tiqodiga ega bo'lish yoki ularni qabul qilish erkini kamsitadigan majburiy xatti-harakatlarga duchor bo'lmasligi kerak" deb ko'rsatilgan.

Shu bilan bir vaqtida, yurtimizda masalaning ikkinchi tomoniga ham katta ahamiyat berilgan. Konstitutsiyaning 57-moddasiga muvofiq **"Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi"**. Qur'oni Karim ham o'z tarafdarlarini turli yo'nalish

va partiyalarga tarqalib ketmaslikka da'vat etadi. “Ol-i Imron” surasida **“Va barchangiz Ollohnning arkoni (Qur'on)ga bog'laningiz va (firhalarga) bo'linmangiz”** deyilgan.

Prezidentimiz I.A.Karimovning “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” kitobida mamlakatimiz sharoitida dunyoviy davlatning din bilan munosabatlarini aniqlashtiruvchi asosiy tamoyillar qatoriga:

- dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;
- diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qadriyatlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, unga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;
- ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash;
- dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish kiritilgan.

Dunyoviy jamiyat qurishni ko'zlagan davlatimizning dinga munosabatini belgilovchi zikr etilgan konstitutsion mezonlar va Prezidentimiz fikrlaridan quyidagi ikkita asosiy xulosa kelib chiqadi:

birinchidan, O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik, huquqiy vaadolatli dunyoviy jamiyat qurish konsepsiyasida din madaniy-ma'naviy omillar umumiyligiga kiruvchi barcha milliy qadriyatlar qatorida teng huquqli qadriyat sifatida so'zsiz tan olinadi. Mustaqil rivojlanish yi'llarida ushbu mezoning hayotga nechog'lik izchil tatbiq etilayotganini faqat qalbi ko'r, adolatga xusumat bilan munosabatda bo'lgan kimsalargina inkor etishi mumkin;

ikkinchidan, sof diniy ehtiyojlarni qondirishdan tashqarida bo'lган har qanday g'arazga erishish yo'lida diniy omildan foydalanishga intilish qat'ian man etiladi.

Prezidentimiz haqli ravishda, dinning O'zbekiston fuqarosini tarbiyalashdagi katta imkoniyatlariga ishonadi va **“Biz din bundan buyon ham aholini eng oliv ruhiy-**

**axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilishi taraf dorimiz. Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'l shiga yo'l qo'yaymiz", deya ta'kidlaydi.**

***“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonunning qabul qilinishi***

**Vijdon erkinligi tushunchasi.** Vijdon erkinligi – ijtimoiy-falsafiy tushuncha. Har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmagan holda vijdoni buyurgani bo'yicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi. Siyosiy jihatdan vijdon erkinligiga demokratiya ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi. Yuridik nuqtai nazardan vijdon erkinligi insonning asosiy shaxsiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Vijdon erkinligi inson huquqlarinig eng muhim jihatlaridandir. Vijdon erkinligining kafolatlari ko'p qirrali bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasining *“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonunda* ta'riflab berilgan. Bular:

- avvalo, dirlarning va diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilganligi;
- barcha fuqarolar uchun maorif va madaniyat eshiklarining ochiqligi;
- maktabning dindan va diniy tashkilotlardan ajratilganligi;
- ta'lim tizimining o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo'l qo'yimasligi;
- dindorlarning diniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan muayyan sharoitlarni yaratib berilganligi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi fuqarolarning vijdon erkinligini himoya qilish, diniy tashkilotlarning xalq va davlat irodasi ifoda etilgan qonunlarga muvofiq faoliyat olib borishini ta'minlash maqsadida *1991 yil 14 iyunda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida” Qonun qabul qildi*. Ushbu qonun 1993 yilda kiritilgan ba'zi qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan 1998 yilga qadar amalda bo'lib keldi. Mustaqillikning dastlabki yillarida hukumatimiz tomonidan berilgan imkoniyatlarning suiiste'mol qilinishi, masjid qurish kampaniyabozlikka aylanib ketishi oqibatida ularning soni 89 tadan 5000 tagacha yetdi. Ularning aksariyati hujjatlari to'liq rasmiylashtirilmagani,

malakali imomlar bilan ta'minlanmagani (95,8 foizi diniy ma'lumotsiz) va zarur sharoitlar bo'limgani holda faoliyat yurgizib, turli din "peshvo"lari masjidlarni o'z uyalariga aylantirishga harakat qildi. Ba'zi diniy tashkilotlarning rahbarlari xorijiy fuqarolar bo'lib, aslida hech qanday diniy ma'lumotga ega bo'lmay, moliyaviy yordam ko'rsatish hisobiga respublika hududidagi diniy tashkilotlarga rahbarlik qilib olib, buzg'unchilik, missionerlik faoliyati bilan shug'ullanar edilar. Ularning asosiy maqsadi turli yo'l va usullar bilan o'z saflarini mahalliy millat vakillari hisobiga kengaytirishdan iborat edi. Ayniqsa, diniy fundamentalizm va din niqobi ostida keng harakat qilishga intilayotgan xalqaro ekstremizmning avj olishi mavjud qonunlarga to'ldirishlar kiritishni talab etdi. Davr talabi asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi *1998 yil 1 mayda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunning yangi tahririni qabul qildi.*

Mazkur qonun 23 moddadan iborat. Uning 1-moddasida ushbu qonunning maqsadi nimalardan iborat ekanligi ochiq va ravshan bayon etilgan: "Ushbu qonunning maqsadi har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat'i nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, shuningdek diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat".

Qonun respublikamiz e'tirof etgan xalqaro hujjatlar va davlatimizning Asosiy qonuni – Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan huquq normalaridan kelib chiqadi. Shuning uchun ham qonunning 3-moddasida "Vijdon erkinligi – fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir" deb ta'kidlanadi. Qonunda e'tiqod munosabatlarida majbur etishga yo'l qo'yilmaydi, deb qat'iy belgilab qo'yilgan. Qonun talabiga ko'ra, rasmiy hujjatlarda, masalan, pasport, tug'ilganlik shahodatnomasi, shaxsiy varaqalarda fuqaroning qaysi dinga e'tiqod qilishini ko'rsatishiga yo'l qo'yilmaydi. Hech kim e'tiqodini ro'kach qilib davlat oldidagi ijtimoiy va majburiy burchlarini ado etishdan bo'yin tovashi mumkin emas. Fuqarolarning dinga munosabatiga qarab huquqlari cheklanmaydi yoki ularga hech qanday imtiyozlar berilmaydi. Shuningdek, bir-biriga nisbatan dushmanlik va adovat qo'zg'atish, diniy yoki dahriylik his-tuyg'ulari uchun haqoratlash ta'qiqlanadi (4-modda). Bundan tashqari, voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, ularning

ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda diniy o'qishlarga yo'l qo'yilmaydi.

Vijdon erkinligi haqidagi qonunning 5-moddasida O'zbekiston Respublikasida din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilganligi ko'rsatilgan. Bu degani davlat diniy masalalar bilan shug'ullanmaydi, diniy tashkilot va diniy boshqarma ishlariga aralashmaydi. Din va diniy tashkilotlar ham davlat ishlariga aralashmasligi lozim.

O'zbekistonda maktab dindan ajratilgan. Qonunning 7-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi dindan ajratilgan, ta'lim tizimining o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. Respublikamizda davlat o'quv yurtlarida diniy ta'lim berilmaydi, ya'ni maktabgacha ta'lim, umumiyligida ta'lim, o'rta maxsus va oliv o'quv yurtlari o'quv rejalariga din dars sifatida kiritilmaydi. Chunki bu o'quv yurtlari dunyoviy bilimlar beruvchi maskanlardir. Lekin bundan, fuqarolar mutlaqo diniy ta'lim olish huquqiga ega emas, degan ma'no kelib chiqmaydi. O'zbekiston fuqarolari diniy ta'lim olishlari mumkin. Biroq bunda, albatta, qonunda belgilangan tartibga amal qilish shart. Fuqarolar o'z ixtiyorlariga qarab istagan tilda va istagan diniy ta'limlarni olishlari mumkin, biroq bu ta'limlar nafaqat Konstitutsiya va boshqa qonun normalariga mos kelishi, shu bilan birga, yon-atrofdagi kishilarga xalaqit bermasligi hamda shaxsning salomatligiga, erkin rivojlanishiga aks ta'sir etmasligi lozim. Bolalarni faqat mактаб yoshiga yetganda, maktabdagi mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarida ota-onalarining yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslarning yozma roziligi bilan, balog'at yoshiga yetganlarni esa o'z xohishlariga ko'ra tashkiliy ravishda diniy ta'limotga o'rgatishga yo'l qo'yiladi. Oliy va o'rta diniy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun fuqarolarga umumiyligida majburiy o'rta ta'limdan keyin ruxsat etiladi. Bu diniy o'quv yurtlari albatta davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lishi lozim. Diniy o'quv yurtlarida ta'lim beruvchilar, albatta, diniy ta'lim olgan bo'lishlari hamda diniy ta'lim berishga qonunda belgilangan tartibda ruxsat olgan bo'lishlari lozim. Xususiy yoki yashirin tarzda diniy ta'lim berish taqiqlanadi.

Diniy tashkilotlarni tuzishning huquqiy mexanizmlari, tartiblari mavjud. Qonunning 8-moddasiga ko'ra, diniy tashkilot O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan va respublika hududida doimiy yashayotgan yuz nafardan kam bo'limgan fuqarolarining tashabbusi bilan tuziladi.

Diniy ta'lif diniy o'quv yurtlariga berilgan binolarda, xonalarda olib boriladi. Qonunning 9-moddasiga muvofiq, diniy o'quv yurtlarini diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari tuzishga haqli. Diniy o'quv yurtlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilib, tegishli litsenziya olganidan keyin faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'ladilar. Oliy va o'rta diniy o'quv yurtlariga talabalar umumiy majburiy o'rta ta'lif olganidan keyingina qabul qilinadilar. Ular ham harbiy xizmatni o'tashni kechiktirish, soliq to'lash, ta'lif olish davrini mehnat stajiga qo'shib hisoblash yuzasidan davlat o'quv yurtlarining talabalari uchun belgilab qo'yilgan huquqlar va imtiyozlardan foydalanadilar.

Diniy tashkilotlar rasm-rusmlar, marosimlar o'tkazish uchun qulay joylar tashkil etish va ziyyaratgohlarni saqlab turish huquqiga ega. Ibodat, diniy rasm-rusum va marosimlar diniy tashkilotlar joylashgan manzillardagi ibodatxonalarda va ularga tegishli hududlarda, ziyyaratgohlarda, qabristonlarda, zarur hollarda fuqarolarning ixtiyoriga muvofiq ularning uylarida o'tkaziladi. Fuqarolarning (diniy tashkilot xizmatidagilar bundan mustasno) jamoat joylarida ibodat liboslarida yurishi taqiqlanadi. Xuddi shuningdek, diniy tashkilotlar majburiy pul yig'implari, to'lovlar undirishga haqli emas (14-modda).

Diniy tashkilotlar o'z mulkiga egadirlar. Ular davlatning ma'lum bir binolaridan shartnoma asosida foydalanishlari mumkin (16-modda).

Qonunning 17-moddasiga muvofiq, diniy tashkilotlar noshirlik, ishlab chiqarish, ta'mirlash-qurilish, qishloq xo'jalik va boshqa korxonalar, yetimxonalar, shifoxonalar ta'sis etishga haqlidirlar.

Qonunning diniy adabiyotlarga tegishli bo'lgan 19-moddasi orqali O'zbekiston Respublikasi hududiga diniy adabiyotlarning olib kirilishi tartibga solinadi.

Agar diniy tashkilotlar tugatilsa, ularning mol-mulki ustav va qonunlarga muvofiq egalariga qaytariladi, huquqiy vorislari bo'limgan mol-mulklar esa davlat ixtiyoriga o'tkaziladi (18-modda).

Diniy tashkilotlar xayriya tadbirlari o'tkazish, ularda ishtirok etish maqsadida qonun hujjatlariga muvofiq xalqaro aloqalar o'rnatish va olib borish huquqlariga ega.

Qonunning oxirgi 23-moddasida “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar” to’g’risidagi Qonunni buzgan kishilar qonun oldida javob berishlari ko’rsatilgan.

*O’zbekistonda diniy tashkilotlar faoliyati.* Respublikamiz fuqarolarining dinga e’tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko’ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o’quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) *diniy tashkilotlar* deb e’tirof etiladi. Diniy tashkilot – bu ma’lum dinga ishonuvchilar va ularning jamoalarining uyushmasidir. Diniy tashkilotlar, O’zbekiston Respublikasining 18 yoshga to’lgan va respublika hududida doimiy yashayotgan 100 nafardan kam bo’lmagan fuqarolari tashabbusi bilan tuzilishi mumkin.

Respublikamizda diniy tashkilotlarni tashkil etish, davlat ro’yxatidan o’tkazish yoki faoliyatini tugatish Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 20 iyundagi “O’zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro’yxatidan o’tkazish tartibi to’g’risida”gi qaroriga asosan olib boriladi. Tashkilot ustavi qabul qilingandan keyin bir oy muddatda barcha zarur ta’sis hujjatlari Adliya vazirligi yoki uning joylardagi idoralariga taqdim etilishi zarur. Bir diniy tashkilotning a’zosi bir vaqtning o’zida boshqa diniy tashkilotning a’zosi bo’lishi mumkin emas. Markaziy boshqaruv organi O’zbekiston Respublikasining kamida 8 ta hududiy tuzilmasi (viloyatlar, Toshkent shahri, Qoraqalpog’iston Respublikasi)da faoliyat ko’rsatayotgan tegishli konfessiyalarning ro’yxatdan o’tkazilgan diniy tashkilotlari va diniy o’quv yurtlari vakillari ta’sis konferensiyasi tomonidan tuziladi va Adliya vazirligi yoki uning joylardagi organlari tomonidan ro’yxatdan o’tkaziladi. Taqdim etilgan hujjatlar bir oy muddatda ko’rib chiqiladi hamda ustavni ro’yxatdan o’tkazish to’g’risida qaror qabul qilingan taqdirda diniy tashkilotlarga Adliya vazirligi yoki uning joylardagi idoralari tomonidan guvohnoma beriladi.

Tegishli diniy ma’lumotga ega fuqaro diniy tashkilotga rahbarlik qilishi mumkin. Diniy tashkilotlarning rahbari O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo’yicha qo’mita bilan kelishib qo’yiladi.

Tegishli hollarda diniy tashkilot faoliyatini tugatish va tarqatib yuborish to’g’risida qaror uni ro’yxatdan o’tkazuvchi organ tomonidan qabul qilinadi.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda diniy tashkilotlar soni sezilarli o'sdi. 1990 yilda respublikamizda 119 ta diniy tashkilot, 2 ta diniy o'quv yurti mavjud bo'lsa, bugungi kunda 2186 ta diniy tashkilot erkin faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan eng yirigi O'zbekiston musulmonlari idorasi, Rus Pravoslav cherkovining Toshkent va O'rta Osiyo Yeparxiyasi, Yevangel xristian-baptistlar cherkovi, Rim-katolik cherkovi, To'liq Injil xristianlari cherkovi, O'zbekiston Bibliya jamiyati. Shuningdek, 1987 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 8 ta yahudiy sinagogalari, 6 ta Bahoiylar jamiyati, 1 ta Krishnani anglash jamiyati, 1 ta Buddha ibodatxonasida fuqarolar emin-erkin ibodat qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

O'tgan yillar davomida diniy o'quv yurtlarining ishi ham rivojlantirildi. Mustaqillikgacha bor-yo'g'i 2 ta diniy o'quv yurti ishlagan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 13 taga yetdi. Ilk marotaba diniy o'quv yurtlari talabalariga stipendiya berish ta'sis etildi. 1999 yili Toshkent islom universiteti tashkil etildi. Har yili unga yuzdan ziyod talabalar o'qishga qabul qilinadi. Universitet qoshida Islomshunoslik ilmiy tadqiqot markazi, manbalar xazinasi va akademik litsey faoliyat ko'rsatmoqda.

**Diniy konfessiya.** "Konfessiya" so'zi (lotincha - "confessio") o'zbek tiliga aynan tarjima qilinganda "e'tiqod qilish", degan ma'noni anglatadi. Umuman olganda, diniy konfessiya deganda muayyan diniy ta'limot doirasida shakllangan va o'ziga xos xususiyatlarga ega e'tiqod va ushbu e'tiqodga ergashuvchilar jamoasi tushuniladi. Bir din doirasida yuzaga kelgan bo'lsa-da, aqidalar borasida farqlanadigan jamoalar ham diniy konfessiyalar jumlasiga kiradi. Hozirgi kunda dunyoda yuzlab diniy konfessiyalar mavjud.

**Diniy sekta.** Diniy sekta deganda e'tirof etilgan yirik diniy yo'naliishlarning rasmiy aqidalaridan farqli tarzda faoliyat olib boradigan diniy guruuhlar tushuniladi. Shuningdek, ushbu tushuncha mavjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi bo'limgan holda din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatadigan guruhlarga nisbatan ham ishlatiladi. Bugungi kunda har ikkala yo'naliishga mansub bo'lgan ko'plab sektalar faoliyat ko'rsatmoqda. Mutaxassislar ularning sonini dunyo bo'yicha taxminan 5000 atrofida, deb baholaydilar.

## *Missionerlikning mazmun-mohiyati*

Missionerlik so'zi lotincha "missio" fe'lidan olingan bo'lib, "yuborish", "vazifa topshirish", missioner esa "vazifani bajaruvchi" degan ma'nolarni anglatadi. Missionerlik esa belgilangan vazifalarni hal qilishga qaratilgan nazariy va amaliy faoliyat majmuini bildiradi. "Word Book" ensiklopediyasida "Missioner biror diniy guruh tomonidan boshqalarni o'z diniga targ'ib qilish va kiritish uchun yuborilgan inson", - degan izoh berilgan.

*Prozelitizm* to'g'ridan-to'g'ri biron bir dinga ishongan fuqaroni o'z dinidan voz kechishga va o'zga dinini qabul qilishga qaratilgan harakatlarni anglatadi. U o'z mohiyatiga ko'ra missionerlikning tarkibiy qismi hisoblanadi. Prozelitizm harakatlari boshqa dinni qabul qilgan tub millat vakillari oilalarida nizolar va janjallarning avj olishiga hamda xristianlikning ayrim yo'nalishlari vakillariga nisbatan dushmanlik hissiyotlarining paydo bo'lishi orqali dinlararo nizolarning kelib chiqishiga zamin yaratadi. Bugungi kunda missionerlar dunyodagi barcha mamlakatlarda faoliyat yuritadilar. Konkret mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan g'arazli maqsadlar yo'lida foydalanishga harakat qilish zamonaviy missionerlikning eng muhim xususiyati hisoblanadi. Zamonaviy missionerlikni, belgilangan maqsadlarning mohiyatidan kelib chiqib, shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhga missionerlikni o'ziga xos biznesga, shaxsiy boyish manbaiga aylantirgan tashkilotlarni kiritish mumkin. Bunday tashkilotlar asoschilari e'tiqod qiluvchilar sonini ko'paytirish orqali ularning mulki va boyligiga egalik qilish va shu yo'l bilan o'zlarining moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash va kengaytirishdek maqsadlarni ko'zlaydilar. Zamonaviy sektalarning mutlaq ko'pchilagini shu guruhga kiritish mumkin.

Ikkinci guruhga missionerlikdan siyosiy qurol sifatida foydalanayotgan tashkilot va uyushmalarni kiritish mumkin. Bunday guruhlar ortida muayyan hududlarga nisbatan o'zining aniq geosiyosiy rejalariga ega bo'lgan davlatlar va siyosiy kuchlar turadi.

Missionerlar o'z maqsadlariga erishish uchun xilma-xil va turli davrlarga mo'ljallangan dasturlar ishlab chiqqanlar. Xristian nazariyotchilaridan biri Luis Bush

xristian missionerlari alohida e'tibor qaratishi lozim bo'lgan hudud – shimoliy kenglikning 10 va 40-parallellari orasida joylashgan, deb hisoblab, uni "10/40 OYNA", deb atagan edi. Ushbu parallelar orasi esa buddaviylik, konfutsiychilik, hinduiylik, islom, sintoizm va daosizm dirlari keng tarqalgan hududlar hisoblanadi. Bu hududda Osiyoning 40ga yaqin, Afrika qit'asining 20 dan ortiq davlati joylashgan. Zamonaviy geosiyosatchilar ushbu hudud yirik davlatlar uchun hayotiy-amaliy va geostrategik ahamiyatga ega ekanini qayd qiladilar. Missionerlarning fikricha, ushbu hududda "Bibliya"dagi ko'plab voqealar sodir bo'lgan. Xudo ilk insonlar Odam va Havvoni shu hududga tushirgani, Iso Masih tug'ilib o'sib, o'z favoriylari bilan faoliyat olib borgani hamda ilk xristian cherkovi shu yerda paydo bo'lgani haqidagi fikrlar shular jumlasidandir. Bu hudud quruqlikning 1/3 qismini tashkil qilishi, injillashtirish zarur, deb hisoblanayotgan davlatlarning asosiy qismi shu hududda joylashgani ham bu xalqlarga "Najot keltiruvchi Xushxabar"ni yetkazish zarurligi "asos" sifatida keltiriladi. Bu gaplar asl maqsadni yashirish uchun bir niqob, xolos. Aslida asosiy maqsad ushbu hududlardagi xalqlarni injillashtirish yo'li bilan ularning birdamligiga putur yetkazish, ichki nizolarni keltirib chiqarish orqali ularning rivojlanishiga to'sqinlik qilish, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan qaram va tobe qilishdan iborat.

Din milliy ma'naviyatning tarkibiy qismi, millatni birlashtirib turuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bir tilda gaplashadigan, umumiylar tarix va yagona davlatga ega bo'lgan, ammo turli dinlarga yoki diniy yo'nalishlarga e'tiqod qiladigan millatlar hamon ichki milliy birlikni ta'minlay olmayotgani, kichkina bir sabab qayta-qayta nizoli vaziyatlar va fuqarolar urushining kelib chiqishiga zamin yaratayotgani va mamlakatlar o'z taraqqiyotida o'nlab yillarga orqada qolib ketayotgani ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi. Masalan, Livan aholisining 90 foizidan ortig'ini arablar tashkil etadi. Rasmiy til arab tili hisoblanadi. Ammo livanliklarning bir qismi islomga (sunnyi, shia, druz), qolgan qismi xristianlikka (maroniy, pravoslav, katolik) e'tiqod qilishi natijasida milliy birlikni ta'minlash qiyin kechmoqda. Mamlakatning amaldagi qonunchiligidagi davlat boshqaruv idoralarining diniy belgilar asosida shakllantirilishi mustahkamlab qo'yilgani esa, ko'pgina hollarda xilma-xil omillar ta'sirida uning to'laqonli faoliyatiga to'siq bo'lmoqda. Musulmonlar va xristianlar o'rtasida vaqt-i-vaqti

bilan kelib chiqayotgan fuqarolar urushi esa bu birlikni ta`minlashni yanada mushkullashtiradi.

Missionerlar o’z oldilariga qo’ygan maqsadlarga erishadigan bo’lsalar, ular faoliyat olib borayotgan mamlakatda ham xalqning parokandalikka yuz tutishi va ma`naviy tanazzulning kelib chiqishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

### ***Iegovo shohidlari.***

“Iegovo shohidlari” missionerlikka katta e’tibor beradi. Jamoa paydo bo’lgan davrdan boshlab, asosan uyma-uy yurish va adabiyotlar tarqatish bilan o’z izdoshlarini ko’paytirishga harakat qiladi. Ayrim ma`lumotlarga ko’ra, hozirgi kunda iegovochi missionerlarning soni 700 mingdan ortiq kishini tashkil etadi. Jamoa rahbariyati tomonidan missionerlarni tayyorlash ishlariga katta ahamiyat beriladi. AQShning N’yu-York shahrida, jamoaning bosh ofisi bilan bir joyda “Galaad” nomli missionerlar tayyorlash markazi mavjud. Ushbu markazda tashkil etilgan 5 oylik kurslarda butun dunyodan kelgan missionerlar tahsil olishadi. Missionerlik faoliyatini moliyaviy qo’llab-quvvatlash va adabiyotlarni nashr etish uchun “Qo’riqchi minora”, “Bibliya” va “Risolalar jamiyati” tuzilgan. Ushbu jamiyat korporasiya deb atalib, bosh qarorgohi tashkilot asosiy binosi bilan bir joyda, AQShning Bruklinida joylashgan. Korporasiyani yetti direktordan iborat boshqaruv kengashi boshqaradi va ular korporasiya prezidentini saylashadi. Hozirgi kunda “Iegovo shohidlari” 230dan ortiq mamlakatda faoliyat olib boradi va dunyo bo'yicha 111ta mintaqaviy vakolatxonalarga ega.

Iegovochilar missionerlikni o’ziga xos tarzda va tizimli tashkil etishgan. Ular o’z tarafdarlarini shakllantirishda jalb etishning 80dan ortiq usulidan foydalanadilar. Jumladan, ular o’z da`vatchilarining ovoz ohanglarida tinchlantirish va mehr tuyg’ulari bo’lishiga alohida e’tibor berishadi. Iegovochilikning o’ziga xos jihatlaridan yana biri shuki, unda missionerlik faoliyati tomonidan har bir a’zo 10 soatdan 150 soatgacha missionerlik faoliyatiga sarflashi talab etiladi. So’nggi paytlarda iegovochilikda maktab o’quvchilari va yoshlar orasida targ’ibot ishlarini olib borishga intilish kuchli namoyon bo’layotganini ta’kidlash zarur. Ma`lumotlarga ko’ra, hozirgi iegovochilar soni dunyo bo'yicha qariyb 7 millionni tashkil etadi. Ularning bosh tashkiloti tomonidan adabiyotlar

nashr etish, cherkovlar faoliyatini ta'minlashga ketadigan sarf-xarajatlardan tashqari missionerlarning kundalik xarajatlariga yiliga 100million AQSh dollariga yaqin mablag' sarflanadi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Dunyoviy davlat tushunchasining mazmunini ta'riflab bering.
2. Vijdon erkinligi nima?
3. Nima uchun respublikamizda fuqarolarga diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi?
4. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari qanday tamoyillarga asoslangan?
5. Vijdon erkinligi masalasiga yangicha yondashilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ijobiy jihatlari nimalardan iborat?
6. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunni buzganlik uchun qanday jazolar berilishi ko'zda tutilgan?

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida... –T., 1997.
2. Karimov I.A. Xushyorlikka da'vat. –T., 1999.
3. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. "Xalq so'zi". 6 mart, 1999.
4. Saidov A.X., Yunusova A.T. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga sharhlar. –T.: "Adolat", 1993.
5. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni. "Xalq so'zi". 1 may, 1998.
6. Mustaqillik jamiyatni demokratlashtirish va mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. –T., "O'zbekiston", 2005.
7. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik taraqqiyot yo'li. "Xalq so'zi". 31 avgust, 2007.
8. Karimov I.A. Ozod va obod yurt durdonasi. "Turkiston". 8 sentabr, 2007.

9. Ogoh bo'laylik. –T., Akademiya, 1999.
10. Dinshunoslik. –T., TDYuI, 2005.
11. Mo'minov A, Yo'ldoshxo'jaev X. va boshqalar. Dinshunoslik (darslik). –T.: "Mehnat", 2004.
12. Ochildev A., Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari (yuz savolga – yuz javob). "Toshkent islom universiteti". – T., 2009.
13. Tojiboeva D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. –T., TDYuI, 2010.

## **DINIY EKSTREMIZM, FUNDAMENTALIZM VA XALQARO TERRORIZMGA QARSHI KURASH**

*Xalqlarimizning tabiatiga mutlaqo yot bo’lgan siyosiy, diniy ekstremizm, aqidaparastlik va boshqa yovuz oqimlarning mintaqamizga kirib kelishi va tarqalishi tinchlik va osoyishtalikka, farzandlarimizning kelajagiga katta xavf tug’dirishini odamlar ongiga chuqur singdirib borish kerak. Xalqlarimiz tafakkurida yuksak axloqiy, ma’naviy qadriyatlarni qaror toptirish va mustahkamlash orqali ularni yovuz kuchlarga qarshi kurashga safarbar etish zarur.*

*Islom Karimov*

**Reja:**

**1. Prezident I.A.Karimov asarlarida diniy fundamentalizm va ekstremizmga qarshi kurashning asoslab berilishi** (I.Karimovning Oliy Majlis XIV sessiyasida so’zlagan nutqi; “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida terrorizm xatti-harakatlarining mazmuni va mohiyati haqida; asarning ahamiyati).

**2. Diniy fundamentalizm va ekstremizmning dunyo xavfsizligiga tahdidi** (fundamentalizm tushunchasi; diniy fundamentalizmning paydo bo’lishi; ekstremizmni keltirib chiqaruvchi omillar; aqidaparastlik va diniy mutaassiblik tushunchalari).

**3. Islomdagagi radikal oqimlar** (vahhobiylilik, salafiylik, tablig’, bahoiylikning yuzaga kelishi; hizb at-Tahrir jinoiy uyushmasi; akromiylar, nurchilar; diniy ekstremistik tashkilotlarning O’zbekistondagi faoliyati).

**4. Terrorizmga qarshi kurash – xalqaro hamjamiyatning muhim vazifasi** (terrorizm tushunchasi; xalqaro terrorizm; terrorizmning moliyaviy manbalari).

**Tayanch so’zlar:** ekstremizm, fundamentalizm, aqidaparastlik, diniy fanatizm, mutaassiblik, terror, terrorizm, Konvensiya, modernizm, traditsionalizm, vahhobiylilik,

salafiylik, tablig', vahdoniyat, jihod, shahid, bahoiylik, hizb at-Tahrir, akromiylar, nurchilar, Musulmon birodarlari.

*Maqsadi:* diniy fundamentalizm, ekstremizm va terrorizm tushunchalarini va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish; islomdagi radikal oqimlar: vahhobiylik, salafiylik, tablig', bahoiylik, hizb at-Tahrir, akromiylar, nurchilarning paydo bo'lishi, asosiy g'oyalari va jamiyat uchun havfini tahlil qilish; Prezident I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalaridagi dinning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni va roli, diniy fanatizm, ekstremizm va terrorizmning fojiali oqibatlari xususidagi fikrlarini o'rganish.

*Ekstremizmning mazmun-mohiyati.* Ekstremistik so'zi "aql bovar qilmas darajada", "haddan oshish" ma'nolarini bildiradi. Jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar va me'yorlarga zid qarashlarni ilgari surish, keskin qarashlar va choralarga moyillik *ekstremizmning asosiy xususiyati* hisoblanadi.

Ekstremistik qarashlarni barcha diniy ta'limotlar doirasida uchratish mumkin. Masalan, mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, hukmon feodal-katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kishilar papa hokimiysi dushmanlarini ta'qib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo'lishiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyatini ekstremizmning o'ziga xos ko'rinishi sifatida baholaydi.

Islomiy g'oyalardan tanlab foydalanadigan, dinning asl mohiyatini buzib talqin qiladigan ekstremistik tuzilmalar go'yoki keng xalq ommasi bilan uzviy birlik mavjudligini ko'rsatish, aslida esa jamiyatda tartibsizlik va parokandalikni yuzaga keltirish uchun mablag' yig'ish, asosiy tahdid manbai sifatida kishilar ongini egallash, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimiyatga erishishdek ehtiyojlarini qondirish maqsadini ko'zlaydilar.

*Diniy fanatizm (mutaassiblik)* – o'z diniy e'tiqodini birdan-bir to'g'ri nuqtai-nazar, ta'limot deb ishonish, boshqa e'tiqodlarni, diniy oqimlar mavjudligini tan olmaslikdir. Diniy fanatizm diniy ekstremizmga zamin tayyorlaydi.

*Diniy fundamentalizm (aqidaparastlik)* – ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish. Diniy fundamentalistlar diniy aqidaning o'zgarmasligini himoya qiladilar, e'tiqodni mantiqiy dalillardan ustun qo'yadilar va muayyan diniy e'tiqod shakllanishining

boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarni qat'iy, og'ishmay bajarilishini talab qiladilar. Fundamentalizm tarafdarlari nuqtai nazarida din o'zgarmas, qat'iy o'rnatilgan urf-odatlar, tushunchalar va tartiblardir. "Fundamentalizm" atamasi ilk bor XX asr boshlarida konservativ kayfiyatdagi amerikalik protestantlar orasida paydo bo'lgan. Fundamentalistlar xristianlikning an'anaviy aqidalariga, ayniqsa, Bibliyaning mutlaqo mukammalligiga ishonishni mustahkamlashni, uni so'zma-so'z sharlashni talab qilganlar. Asrimizning 70-yillaridan boshlab esa, bu so'z islomga nisbatan qo'llanila boshladi. Islom fundamentalizmining asosiy g'oyasi – "sof islom" prinsiplariga qaytish, maqsadi "islomiy taraqqiyot" yo'lini joriy etishdir. Fundamentalistlarning ta'biringa ko'ra, diniy qonunlarga asoslanmagan har qanday jamiyat, g'ayritabiyyina emas, balki Allohga qarshi qilingan jinoyatdir.

**Terrorizm tushunchasi.** Terrorizm – jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish, aholining keng qatlamlarida vahima va qo'rquv uyg'otishga qaratilgan siyosiy kurashning o'ziga xos yovuz usulidir. U yashirin ruhdagi tashkilotlar tomonidan beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadida qo'llaniladi. Terrorchi uyushmalar ommaviy bo'la olmagani uchun ham ko'p hollarda aholining keng qatlamlari nomidan harakat qilish taassurotini uyg'otish maqsadida diniy va boshqa shiorlardan niqob sifatida foydalanadi.

Terrorizmning eng asosiy xususiyatlaridan biri bunday harakat tarafdarlarining "zo'rlik bilan davlatni qulatuvchi va hokimiyatga erishishni osonlashtiruvchi parokandalikka olib keladi", - degan g'oyasiga asoslanib harakat qilishlarida yaqqol ko'rindi. Terrorizmning yana bir xususiyati hech qanday urush bo'lmayotgan, tinchlik hukmronlik qilayotgan, jamiyatda demokratik institutlar faoliyat ko'rsatayotgan bir sharoitda muqobil usullarni atayin inkor etgan holda, siyosiy masalalarni zo'rlik bilan hal qilishga intilishda ko'rindi. Amerikalik mutaxassis B.Jenkins terrorizmni eng avvalo, qurbanlardan ko'ra guvochlarga qaratilgan va vahima uyg'otishga yo'naltirilgan zo'rlik, deb baholaydi. Boshqa bir amerikalik siyosatshunos J.Lojning ta'rifiga ko'ra, terrorizm bevosita qurbanlardan ko'ra ko'proq odamlar fikriga ta'sir o'tkazish uchun qilinadigan tahdid yoki kuch ishlatishdir.

Zamonaviy terrorizmning ikkita alohida xatarli xususiyatini ajratib ko'rsatish mumkin: bir tomonidan, u tobora shafqatsizroq g'ayriinsoniy mohiyat, ikkinchi tomonidan, aqlga sig'dirish qiyin bo'lган jug'rofiy ko'lamlar kasb etib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi dunyoda 500 ga yaqin terrorchilik tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Har kuni dunyoning u yoki bu burchagida kimlarnidir qo'rquvga solish orqali muayyan maqsadlarga erishishni ko'zlagan, kamida ikkita qo'poruvchilik amalga oshirilmoqda.

**Xalqaro terrorizm.** Xalqaro terrorizm tushunchasi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtrishga qaratilgan siyosiy qo'poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. U alohida siyosiy arboblarni o'ldirish yoki ularga qasd qilish orqali xalqaro ijtimoiy-siyosiy aks-sado beradigan buzg'unchi siyosiy harakatlarni ifodalash uchun ham ishlataladi.

Terrorchilik harakatlarining:

- xalqaro huquq himoyasidagi ob'ekt yoki sub'ektlarga qarshi qaratilgani;
- mustaqil davlatlar chegaralarini buzish orqali amalga oshirilishi;
- a'zolari ikki yoki undan ortiq davlat fuqarolari, shu jumladan, yollanma shaxslar bo'lган ekstremistik guruhlar tomonidan sodir etilishi;
- ekstremistik guruhlar tarkibida qo'poruvchilik harakatlari bo'yicha xorijlik yo'riqchilarining qatnashishi;
- ekstremistik guruh a'zolarining boshqa davlatlar hududida tashkil etilgan maxsus lagerlarda tayyorgarlik ko'rishi;
- tayyorgarlik ko'rish va qo'poruvchilikni sodir etishda xorijiy davlatlar va ekstremistik uyushmalar yordamidan, xalqaro tus olgan noqonuniy quroq-yaroq savdosi va narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalanishi uning xalqaro terrorchilik xuruji ekanini ko'rsatuvchi asosiy belgilardan hisoblanadi.

**Terrorizmning moliyaviy manbalari.** Ayni paytda, terrorchi tashkilotlar daromad orttirish maqsadida bosqinchilik, tovon undirish, giyohvand moddalarning noqonuniy savdosi, qimmatbaho metall va toshlar kontrabandas, soxta pul va qimmatli qog'ozlar ishlab chiqish, shuningdek, fohishabozlik uylari va qimorxonalar ochish hamda totalizatorlar tashkil qilish kabi jinoiy usullardan keng ko'lamda foydalanadilar. Shu bilan bir qatorda, BMT ma'lumotlariga ko'ra transmilliy jinoiy guruhlar giyohvand

moddalar savdosidan yiliga 400 milliard dollar daromad oladi va ushbu mablag'ning bir qismi terrorchilik guruhlari ixtiyoriga o'tkaziladi. Homiy davlatlar, turli diniy, xayriya tashkilotlari va alohida shaxslar, shuningdek, Yaqin Sharq va G'arb davlatlaridagi ba'zi ijtimoiy guruhlar tomonidan maqsadli yig'iladigan pullar terrorchi guruhlarning tashqi moliyaviy manbalari hisoblanadi.

Xalqaro terrorizm bilan bir davlat o'zi kurasha olmaydi. Butun dunyo mamlakatlari bu "vabo"ga qarshi birgalikda kurashishlari zarur. Xalqaro va milliy qonunchilikni va huquq-tartibotni mustahkamlash hamda xalqaro terrorizmga qarshi kurashish samarali bo'lishi uchun xalqaro hamjamiyat tomonidan qator universal va regional *Konvensiyalar* qabul qilingan. Jumladan:

1963 yil 14 sentabrda qabul qilingan havo kemalari bortida sodir etiladigan jinoyatlar va ayrim boshqa aktlar haqidagi Konvensiya;

1970 yil 16 dekabrdagi havo kemalarini g'ayri qonuniy holda egallab olishga qarshi kurashish haqidagi Konvensiya;

1971 yil 23 sentabrdagi Fuqaro aviatsiyasining xavfsizligiga qarshi qaratilgan noqonuniy aktlarga qarshi kurashish haqidagi Konvensiya;

1979 yil 17 dekabrdagi Odamlarni garovga olishga qarshi kurash haqidagi Konvensiya;

1980 yil 3 martdagи yadro materiallarini himoya qilish haqidagi Konvensiya.

Respublikamiz terrorizmga qaratilgan ko'plab xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilib, ulardagi majburiyatlarni izchil bajarib kelmoqda.

Bugungi kunda terroristik harakatlarning xarakteri birmuncha o'zgargan. Ular yaqindagina fuqarolar yuragiga vahima va qo'rquv solishni maqsad qilgan bo'lsalar, bugun hukumatlarga, butun demokratik hamjamiyatga vahima solishni maqsad qilib qo'ygan. Diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm nafaqat tashqi, balki ichki xavfsizlikka ham daxldor masaladir. Chunki diniy ekstremistik xalqaro terrorchilik tashkilotlari jangarilik usullari bilan hokimiyat uchun kurashuvchi guruhlarni shakllantirish, ularni har tomonlama rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga intiladi. Markaziy Osiy davlatlari uchun diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning xavfi 1990 yilda Namangan va Andijonda, 1990-1996 yillardagi Tojikistonagi fuqarolik urushi va mojarolar davomida,

1999 yil 16 fevralda Toshkent shahrida, 1999-2001 yillari Qirg'izistonning Botken, O'zbekistonning Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida, 2004 yilning mart-aprel oylarida Toshkent shahri va Buxoro viloyatida hamda 2004 yilning iyul oyida Toshkent shahrida amalga oshirilgan terrorchilik harakatlari misolida o'zini ko'rsatdi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston Respublikasi diniy mutaassiblik, aqidaparastlik, ekstremizm va terrorchilikning mintaqaviy va umumbashariy miqyosdagi xavf ekanidan kelib chiqib, jahon hamjamiyati birgalikda unga qarshi kurashishi lozimligi to'g'risidagi g'oyani jahoning nufuzli tashkilotlari minbarlaridan e'lon qildi. O'zbekistonning diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurash siyosatining mohiyatini rivojlangan mamlakatlar va dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari kechroq angladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi *Prezidenti I.A.Karimov 1993 yil 28 sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida qilgan ma'rzasida* jahon hamjamiyatini Afg'oniston muammosini izchil o'rganish va yechishga chaqirdi. Diniy mutaassib va jangarilik faoliyatining jiddiy xavfi haqidagi ushbu haqqoniy fikr faqat AQShdagi 2001 yil 11 sentabr fojialaridan so'ng tan olindi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan 1998 yilda tashkil topgan "6+2" guruhinig BMT rahbarligida 1998-1999 yillarda olib borgan faoliyati Afg'onistonda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda katta ahamiyatga ega bo'lganini ta'kidlash zarur. Bu guruh Afg'oniston bilan chegaradosh olti davlat (Xitoy, O'zbekiston, Pokiston, Eron, Tojikiston, Turkmaniston) va mintaqa tashqarisidan Afg'onistondagi vaziyatga jiddiy ta'sir ko'rsatib turgan ikki davlat - AQSh va Rossiyaning yuqori darajadagi vakillaridan tashkil qilingan edi.

Respublikamiz ekstremizm va terrorizm bilan birga uni moliyalashtirish bilan uzviy bog'liq bo'lган narkobiznesga qarshi kurashda ham qat'iy siyosat olib bormoqda. 1999 yilda "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi, 2000 yilda "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonunlarning qabul qilingani bu fikrning tasdig'idir. Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimiz diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi tizimli va tadrijiy kurash olib bormoqda. Bu kurash mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini qurish va inson huquqlarini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

## ***Prezident I.A.Karimovning diniy fundamentalizm, ekstremizm va xalqaro terrorizmga bergen ta'rifi***

Prezident I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida, qator nutq va O'zbekiston milliy axborot agentligi muxbirining savollariga bergen javoblarida mamlakatimizga qarshi qanday kuchlar tomonidan xavf solinayotganini aniq ko'rsatib bergen. Bu kuchlarning maqsad va niyatları nimaligi, yovuz maqsadga erishish uchun ular qanday vositalardan foydalanishlari mumkinligi davlatimiz rahbarining O'zbekiston milliy axborot agentligi muxbiri savollariga bergen javoblarida sodda va lo'nda qilib ko'rsatilgan bo'lsa, Oliy Majlis XIV sessiyasida so'zlagan ma'rzasida bu fikrlar yanada oydinlashtirildi. Bunda xalqimiz e'tibori ikki jiddiy xavf-xatarga qaratiladi. Birinchisi, mamlakatimiz tashqarisidagi tajovuzkor, aqidaparast kuchlar bo'lib, ular islam dini xalqimiz uchun muqaddas qadriyat ekanidan foydalanib, ota-bobolarimiz dinini niqob qilib, O'zbekistonni demokratik, ma'rifiy taraqqiyot yo'lidan og'dirishga, uni orqaga qaytarishga urinmoqdalar.

Aqidaparastlikni faqat diniy yo'naliш emas, siyosiy yo'naliш yoki bir butun siyosiy mafkura deyish mumkin. Shuning uchun aqidaparastlikka qarshi kurashda uning diniy mohiyati, mazmuni, asoslarini o'rganish, diniy talqin qilish bilan bir qatorda uning siyosiy jihatlarini o'rganib, tarixiy voqelikka tayangan holda ob'ektiv baho berish, shu ma'noda aqidaparastlikning siyosiy oqim sifatidagi asosiy qirralari, maqsad va mohiyati nimada ekanligini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega.

*Islam fundamentalistlarining asosiy nazariy g'oyalari quyidagilardan iborat:*

Birinchidan, ularning talqinicha, *islom dini jamiyatdagi barcha jabhalarga aloqadordir*. Bu haqda Hasan al-Banna shunday deydi: "Kimki islomga itoat etishni faqat uning ma'naviy va madaniy qadriyatlariga aloqadorlik deb tushunsa, bu juda katta yanglishishdir. Illo, islam ibodat va hidoyat, din va davlat, ma'naviyat va amaliyat, ibodat va jihad, itoatkorlik va hokimiyat. Bularning hech birini bir-biridan ajratib bo'lmaydi". Ya'ni bunda islam faqat ma'naviy qadriyatlarning bir bo'lagi emas, siyosiy hokimiyat uchun kurash quroli sifatida ham talqin etilmoqda.

Ikkinchidan, *ilk islomga qaytish*, ya'ni go'yoki bir necha asrlar davomida yo'l qo'yilgan xatoliklar va o'zgarishlardan tozalanish, sof islomga qaytish g'oyasi. Bunday talqin, islomning rivojlanish bosqichlarini rad etishdir. Islom ekstremistlarida islomning yoyilishi faqat arab xalifaligi bilan bog'liq degan noto'g'ri tushuncha bor. Tarixdan ma'lumki, islom dunyo bo'yicha tarqalib, jahon diniga aylanishida boshqa millat vakillarining hissasi kattadir. Bu borada bizning ulug' ajdodlarimiz Saljuqiylar, Xorazmiylar, Temuriylar va boshqa turkiy sulolalarning, bundan tashqari buyuk islom ulamolari, tasavvuf shayxlarining xizmatlari katta bo'lgan. Hozir musulmon olami Qur'oni eng muqaddas kitob deb bilsa, undan keyin Imom Buxoriyning payg'ambarimiz hadislari jamlangan "Al-Jome' as-Sahih" asarini ulug'laydilar. Demak, ilk islomga qaytish, bunday asarlarni yaratgan bobokalonlarimiz, islom taraqqiyotiga hissa qo'shgan alloma va davlat arboblarinig xizmatlarini yo'q qilish demakdir.

Uchinchidan, islom fundamentalistlarining yana bir g'oyasi yagona millat, yagona Vatan tushunchasiga o'ziga xos yondashuvdadir. Ularning fikrlariga ko'ra, islom kurtaklari yoyilgan yerning har bir qarichi har bir musulmon uchun qadrli va uni kuch bilan himoya qilish zarur. Bunday noto'g'ri yondashuv XXI asr bo'sag'asida jahonda o'rnatilgan davlatlar, xalqlar o'rtasidagi tarixiy-huquqiy voqelikni tan olmaslik va VII asrdagi arab xalifaligiga qaytib kelishga da'vat bo'lib tushuniladi.

To'rtinchidan, sof islom boshqaruvi uchun kurash. Barcha turdag'i ekstremistik kuchlarning faoliyati va barcha orzu-umidi, qadamlaridan ko'zlangan maqsad yagona islom hukumatini tuzishdir. Unda hozirgi kunda barcha rivojlangan demokratik davlatlarda tan olingan umumbashariy demokratik tamoyillar, demokratik huquqiy davlat qurish qonun-qoidalari rad etiladi. Ular uchun islom ham hokimiyat, ham uni amalga oshirish, ham qonunchilik, ham ta'lim, ham qonun, ham sud. Bu narsa taraqqiyotning yana o'sha qadimiy, qotib qolgan aqidalar zanjiriga bog'lab qo'yishning o'zi bo'lib, butun hayotda o'tmishga qaytishga olib keladi.

Hayotda o'zining qat'iy pozitsiyasiga, mustaqil fikrlariga ega bo'limgan, voqelikka aql-idrok bilan emas, balki hissiyot bilan yondoshadigan odamlar havoyi da'vatlarga tez uchadilar. Terrorchilik harakati tashkilotchilari aholining xuddi ana shunday irodasi

bo'sh, iymoni sust, dunyoqarashi cheklangan, fe'l-atvori shakllanmagan qatlami ichiga kirib olishadi. Ularning zaif tomonlaridan ustamonlik bilan foydalanishadi.

Prezident I.Karimov mustaqillikning ilk kunlaridayoq xavfsizligimizga tahdid soluvchi omillar xususida gapirar ekan, diniy ekstremizm va terrorizmning dunyoviy fojia, taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi omil ekanligini xalqaro tashkilotlar minbarlaridan turib bir necha marta ta'kidladi.

Prezident Islom Karimov XX asr muammolari, odamlar dunyoqarashidagi jiddiy o'zgarishlar va uning oqibatlari haqida fikr yuritar ekan, ana shu yuz yillik oxirida "*Islom uyqonishi*", "*Qayta islomlashish*", "*Islom fenomeni*", "*Islom omili*" singari bir qator iboralarning paydo bo'lish sabablarini izlaydi va hammamizning diqqatimizni uning oqibatlari nimalarga olib kelishi mumkinligiga jalb etadi. Chunki davr sof islomiy nazariya, uning falsafasi insoniyatni komillika da'vat etuvchi buyuk ta'limot ekani bilan birga, uni soxtalashtiruvchilar, undan o'z manfaatlari yo'lida foydalanuvchilar ham yo'q emasligini, ayni shu salbiy hodisalar jamiyat taraqqiyotida kutilmagan fojalarni keltirib chiqarishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Prezident I.Karimov tasavvuridagi diniy taraqqiyot har qanday fanatizmdan xoli, inson taqdiri va olam bus-butunligi bilan bog'liq bo'lgan, mamlakat ichki muammolariga ham, dunyoviy masalalarga ham ilohiy quvvat, beqiyos aql-idrok va sog'lom fikr bilan yondoshishni taqozo etadigan, bunyodkorlik va yaratuvchanlikka da'vat etadigan ulkan falsafadir. Zotan, xuddi shunday yondoshuv, ana shunday dunyoqarash, dinni shunday anglash va unga e'tiqod qo'yish ulug' bobokalonimiz Bahouddin Naqshband ta'limotining mag'zi bo'lgan "*Dil ba yoru – dast ba kor*" degan ta'limotga mos tushadi.

Davlatimiz rahbarining BMT, YXHT va boshqa bir necha o'nlab tashkilotlar minbarlaridan turib, shuningdek, davlat tashriflari chog'idagi uchrashuvlar va suhbatlarda mintaqaviy mojarolar, xalqaro terrorizm xavfi xususida bildirgan butunlay yangi g'oyalari keyinroq, ya'ni 1997 yili yaxlit strategik konsepsiya – "**O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot kafolatlari va barqarorlik shartlari**" nomli asar sifatida dunyoga keldi. Xalqaro jamoatchilik e'tirofini qozongan ushbu kitob jahon siyosatida favqulodda yangilik sifatida qabul qilindi va dunyoning bir necha o'nlab mamlakatlarida tarjima qilinib, nashr etildi.

## *Islomdagi radikal oqimlar*

Diniy ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligiga va rivojiga salbiy ta'siri xalqaro terrorchilik tizimida yetakchi o'rirlarni egallab turgan ba'zi tashkilotlarning mazmun-mohiyati tahlil qilinganda yaqqol namoyon bo'ladi. Ular sirasida bunday tashkilotlar vujudga kelishiga asos va namuna bo'lgan, hozir katta munozara va tashvishga sabab bo'layotgan vahhobiylar oqimi va XX asrda tashkil etilgan "Musulmon birodarlar" guruhining faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

**Vahhobiylar.** Vahhobiylar islomdagi diniy-siyosiy oqim bo'lib, sunniylik yo'naliشining Hanbaliya mazhabiga mansubdir. Vahhobiylar o'zlarini "muвahiddun"lar, ya'ni yakka Allohni tan oluvchilar, vahdoniyatchi, tavhidchilar deb ataydilar. "Vahhobiy" degan nomni esa ularga bu oqimni tan olmaganlar bergen. Bu oqimga 1703 yilda Arabiston yarim oroli Najd o'lkasining al-Uayna shahrida tug'ilgan Muhammad ibn Abdulvahhob ibn Sulaymon asos solgan. Uning asosiy aqidasi vahdoniyat, ya'ni yakkaxudolikni qat'iy talab etish bo'lib, "dinni tozalashga", Payg'ambarimiz davridagi asl holatiga keltirishga, arablarni "chinakam Islom" yashil bayrog'i ostida birlashtirishga harakat qilgan. Muhammad yoshligidan diniy ilmlarni o'z otasi rahbarligida o'rgangan. U Qur'онни yod olgan, tafsir va hadis ilmlari bilan tanishgan. Bir necha bor Misr, Suriya, Iraq, Eron mamlakatlarida bo'lib, ko'pincha ulamolar suhbatida o'zining janjalkashligi va mutaassibligi bilan ajralib turgan. Muhammad diniy targ'ibotini taxminan 1730 yilda boshlagan, otasining vafotidan keyin (1740) uni faollashtirgan. Turk tilidagi tadqiqotlarda Abdulvahhobning ingliz josusi bilan hamkorlik qilgani haqida dalillar mavjud. Vahhobiylar ta'limoti o'sha paytdayoq norozilik tug'dirgan. Ibn Abdulvahhobni hatto Uaynadan quvib chiqarishgan. Ammo bu ta'limot Arabiston yarim orolining markaziy qismida o'sha davrdagi muhit uchun qo'l kelib qolgan. Zero, bu yerda bir necha mayda sulolalar tomonidan boshqarilgan amirliklar doimo nizolashib kelardilar. Shunday sulolalardan biri – Saudiylar – taxminan 4 asrdan beri ad-Dir'iyani o'zlariga markaz qilib olib, atrofdagi amirliklarni birlashtirishga harakat qilardi. Amir Muhammad ibn Saud (1725-1765) bu ishda vahhobiylar ta'limotidan foydalandi. Vahhobiylar o'zlarini xohlagan jamoani kuforda yoki shirkda ayblab, unga *jihad* e'lon qilishlari mumkin edi. Ibn Saud va

uning o'g'li Abdulaziz vahhobiylar bayrog'i ostida yarim orolning katta qismini kuch bilan egallab, birinchi *Saudiylar davlatini* barpo qildilar. 1932 yilda esa Saudiya Arabistoni davlati tuzildi.

Vahhobiylik tarafdarlarining fikricha, faqat Alloh ma'bud va islomning manbai faqat Qur'ondir. Muqaddas joylarni ziyorat qilish, aziz-avliyolardan, duolardan shafoat, yordam tilash shirk hisoblanadi. Abdulvahhob musiqa, qo'shiq, badiiy tomoshalar, tasviriy san'at va umuman ma'naviy madaniyat taraqqiyotiga qarshi chiqqan. Uning izdoshlari insoniyat ma'naviyatining eng yuqori cho'qqilariga – kamolotga yetaklovchi vosita – tasavvufga qarshi turadilar, avliyo-mashoyihlarni hurmat qilib, ularga ixlos qo'yishni kufr va gunoh deb biladilar. Muhammad payg'ambarimizning tug'ilgan kunlari – Mavlud kunlarini nishonlash, marhumlarning ruhlariga Qur'on tilovat qilishni, aziz-avliyolar qabrlarini, maqbaralarni ziyorat qilishni inkor etib, bu ishlarni shirk deb tushuntiradilar. Hozirgi zamон vahhobiylari bulardan tashqari kino, teatr, konsert kabi tomoshalarga ham qarshi chiqadilar. Doim Abdulvahhob bilan birga bo'lgan ingliz razvedkachisi Xamperning yozishicha, bu oqim ta'limotiga ko'ra, muhaddislar, shu jumladan, Imom al-Buxoriyning "Al-Jome' as-Sahih" hadislar to'plamida keltirilgan hadislarning yarmisi soxta va befoydadir. Vahhobiylar ijmo'ni, ya'ni shariatda munozarali masalalarni yechishda musulmon ulamolarining ko'pchilik bir bo'lib, maslahatlashib o'zaro yakdillik bilan bir qarorga kelib hukm chiqarishlarini ham bekorga chiqarganlar.

Vahhobiylikda g'ayridinlarga, "ilk islom ahkomlaridan chekingan" musulmonlarga qarshi kurash alohida o'rın tutadi. Ularning da'vatini qabul qilmaganlarning barchasini "kofir" deb atashadi.

Vahhobiylikning chet ellarda ko'plab tashkilotlari bo'lib, ular yashirin siyosiy faoliyat olib boradilar. Ish uslublari – diniy hissiyotlari kuchli bo'lgan fuqarolarni jamiyatlarga tortib, ularni qayta tarbiyalash, so'ng ulardan tashviqot va ijtimoiy tartibbuzarlik, ekstremistik harakatlarda foydalanish. Bu ishlarga, ayniqsa, yoshlarni, bolalarni, hayot tarzidan norozi bo'lgan shaxslarni jalb qiladilar. Xayriya fondlari orqali mayib-majruhlarga, yetim-yesirlarga yordam, diniy ta'lim berish, turli diniy adabiyotlarni tarqatish kabi yo'llar bilan keng targ'ibot ishlarini olib boradilar. Kishilarga fanatizm,

murosasizlik, o'zgalar fikrlari va manfaatlariga hurmatsizlik ruhini singdirishga urinadilar.

**Salafiylik.** Salafiylik (arabcha “ajdodlar”) – jamiyat hayotini Qur'on va sunnaga qat'iy moslashtirgan holda yangilash shiori bilan maydonga chiqqan diniy-siyosiy oqim. Salafiylik ijtimoiy hayotni dastlabki musulmonlar turmush tarziga monand ravishda o'zgartirishga da`vat qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi. Dastlabki salafiylar Ahmad ibn Hanbalning diniy-falsafiy maktabi tarafдорлари bo'lishgan.

“Salafiylik”ning asoschilaridan biri Ahmad ibn Taymiya hisoblanadi. U go'yoki, asrlar davomida islomga turli bid'atlar kirib qolganini ta'kidlab, jamiyat va musulmonlarning kundalik turmush tarzini Qur'on va sunnaga asoslangan holda qat'iy tartibga solish zarurligi haqidagi g'oyani ilgari surdi. O'z fatvolaridan birida u “davlatni shariat asosida boshqarmayotgan hukmdorga jihod e'lon qilish mumkinligini” yoqlab chiqqan edi. Ahmad ibn Taymiya ta'limotining mafkuraviy va uslubiy tamoyillari keyinchalik turli aqidaparast guruhlari, xususan, “vahhobiylar” asoschisi Muhammad Abdulvahhab va “ixvonchilik” harakati yetakchilarining mafkuralariga asos bo'lib xizmat qildi.

Salafiylar islom jamiyati qurilishi va u davlatchilikning asosi bo'lishi kerak, deb hisoblagan holda hokimiyat tepasiga “haqiqiy musulmonlar”ni chiqarish uchun faol harakat qilishni tashviq qiladilar. Bu yo'lida “salafiylik”ning zamonaviy yetakchilari:

- odamlar ongi, tafakkuri va turmush tarzidan milliy qadriyat va urf-odatlarni siqib chiqarish;

- shariat ahkomlariga ko'r-ko'rona amal qilinishini ta'minlash, amal qilmaganlarga nisbatan qattiq jazo qo'llash;

- muqaddas joylarni ziyyorat qilishni taqiqlash;

- davlat qonunlarini Qur'on va sunna talablari asosida o'zgartirishdek maqsadlarni ko'zlab harakat qilmoqdalar.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham yuqoridagi kabi g'oyalar bilan qurollangan salafiylik harakati tarafдорлари faoliyat olib borishga intilayotganini ta'kidlash lozim.

*Tablig’ jamoasi*. “Jamoati at-Tablig” oqimiga Hindistonda Muhammad Ilyos ibn Muhammad Ismoil Kondehlaviy asos solgan. Hindistonning janubida boshlangan bu harakat, Hindiston va Pokistonga tarqalgan. Tablig’chilar har yili 40 kun mobaynida targ’ibot-tashviqot ishlarini olib boradilar. Ular tashviqot ishlari uchun kishilar ko’p yig’iladigan joylarni tanlaydilar. Tablig’chilarning da`volariga ko’ra “Islomiy jamiyatda dahriy madaniyat hukm surayotgan hozirgi davrda umume’tirof etilgan ijtimoiy qoidalarga ahamiyat bermaslik zarur”. Jamoa a’zolari da`vatchilik faoliyatida ko’proq kishilarni xursand qilishga, muloyimlikka va odamlardagi namunali jihatlarni bo’rttirib ko’rsatishga harakat qilishadi. Tablig’chilarga ko’ra “birodarlarning ayblarini ochiqchasiga aytish shart emas”. Ular faqirlikda hayot kechirish, dunyoviy boyliklarni oxirat ne`matlari oldida arzimas hodisa, deb hisoblashlarini ta’kidlash orqali o’zlariga xayrixoh kishilarni ko’paytirishga intiladilar. Shu bilan birga, ular turli darajadagi rahbarlar bilan muloqotda jamoa faoliyatini keng tushuntirish va targ’ib qilish, mahalliy ulamolardan va xalqdan o’z ishlarini tashkil etish uchun duo olishga ham alohida e’tibor beradilar. “*Tablig’ jamoasi*”ning o’ziga xos xususiyati shundaki, ular mahalliy sharoitga moslashishga harakat qiladilar. Ushbu oqim vakillari mazhab jihatidan Arabiston yarim oroli markazida hanbaliy, Hindistonda hanafiy mazhabida bo’lgani kabi aqidaviy jihatdan Arabiston yarim oroli markazida asosan salafiy, Hindistonda esa asosan ash’ariylar hisoblanadilar. “*Tablig’ jamoasi*”ning asosiy maqsadi – salafiylikka asoslangan islom mafkurasini targ’ib qilish va uni butun dunyoga yoyish. Tablig’chilar jamoasi ko’rsatmalari so’zsiz bajariladigan amir tomonidan boshqariladi. Tashkilot boshqaruvida amirdan so’ng asosiy o’rin maslahat berishda muhim ahamiyatga ega bo’lgan “sho’ro”ga tegishlidir. Undan keyin alohida olingan mamlakatdagi mahalliy bo’linmalar turadi. Ushbu bo’linmalar tajribali tashkilot a’zosi – mahalliy amir orqali boshqariladi.

Tablig’chilar o’z da`vatlarida “siyosatdan so’z va amalda chetlanish lozim. Chunki u aka va ukani bir-biridan ayiradi, musulmonlar o’rtasida adovat urug’ini sepadi...”, shuning uchun mavjud tuzumni qo’llab-quvvatlamasliklarini ham, unga qarshi chiqmasliklarini ham ta’kidaydilar. So’zda siyosiy tuzilmalar faoliyatiga aralashmaslikni da`vo qilgan tablig’chilar, amalda har qanday muassasada o’zlarining sho’rolarini

tuzishga harakat qiladilar. Ularning “siyosatga aralashmaslik” haqidagi fikrlari bir niqob, soddadil odamlar uchun qo’ylgan tuzoqdir.

“Tablig’chilar” jamoasining qarashlari va faoliyati:

- islom arkonlarini bajarish yuzasidan keskin talablarni, jumladan, ularning nazarida diniy arkonlarni to’liq bajarmayotgan yoki noto’g’ri bajarayotganlar, shuningdek, boshqa dindagilarga nisbatan toqatsiz bo’lishning targ’ib qilinishi;

- mamlakatimizdagi an’anaviy va ma’rifiy islomga zid bo’lgan ma’lumotlarni tarqatishga intilishi;

- har bir “tablig’chi”ning yilda bir oy, oyda uch kun, haftada bir kunni da`vatga ajratishga majbur qilinishi va bunday talab oqibatida ko’plab oilalarning buzilib ketishi;

- oqim da`vatchilarining hech qanday ilmiy asoslanmagan dalillarni ham kishilarni islomga chaqirish uchun keltiraverishlari va bunday xatti-harakatning kishilarda islomga nisbatan salbiy dunyoqarashning vujudga keltrishi ehtimoli;

- “Tablig”” da`vatchilari safsatalariga uchgan kimsalar orasida terrorchi tashkilotlarga a`zo bo’lib qolganlarning ko’pligi kabi sabablarga ko’ra yurtimiz uchun xatarli hisoblanadi.

**“Jamoat al-ixvon al-muslimin” (Musulmon birodarlar jamoasi)** – XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida Misrda jamiyatda islomning o’rni masalasida turlicha yondashuv va qarashlar shakllandi. Jumladan, ba’zilar jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar denga bo’lgan munosabatda ham qo’llanishi zarur deb hisoblasalar, boshqalar, aksincha, o’tgan asrning 20-yillarda mamlakatda ro’y bergen iqtisodiy turg’unlikni musulmonlar hayotiga kirib kelgan G’arb sivilizatsiyasiga xos “yangiliklar” bilan bog’lab, mamlakatda shariatga asoslangan teokratik davlat tuzumini o’rnatish orqaligina erishish mumkin, degan da’vat bilan chiqdilar. Aynan so’nggi yo’nalish tarafdarlarining g’oyalari asosida Hasan al-Banno tomonidan 1928 yilda “Musulmon birodarlar” tashkilotiga asos solindi. Dastavval, islom alohida davlatda tinch (islom qadriyatlarini targ’ib qilish, xayriya ishlari o’tkazish, diniy ulamolarning shaxsiy namuna ko’rsatishi) yo’l bilan tantana qilishi mumkin, degan g’oyani ilgari surgan Hasan al-Banno keyinchalik faoliyatiga siyosiy tus berib, “Musulmon birodarlari”ni Qur’on va sunnani jamiyatni rivojlantirishning yagona asosi sifatida

ko'rvuvcchi siyosiy tashkilot, deb e'lon qildi. Shundan keyin "birodarlar" "Alloh – maqsadimiz, Payg'ambar – yetakchimiz, Qur'on – konstitutsiyamiz, jihad – buyuk orzumiz" degan shior asosida faoliyat yuritib, markazi Misrda joylashgan musulmonlarning yagona "buyuk islomiy davlati" qurishni asosiy maqsad sifatida e'lon etdilar. "Musulmon birodarlar" o'z tarixida bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. 1928-1936 yillardagi davrni xayriya va ma'rifatchilik bosqichi deb atasa bo'ladi. Keyinchalik u kurash uslubi sifatida terrorni qo'llay boshladi. Ko'plab davlatlarda uning faoliyati ta'qilandi. Keyingi davrda "Musulmon birodarlari"ning orasida bo'linish yuz berib, u uch yo'naliishga ajralib ketdi:

- 1) "mo'tadillar" – Hasan al-Banno va Sayyid Qutb tarafдорлари;
- 2) "islom demokratlari" – "Islom sotsializmi" та'limoti tarafдорлари;
- 3) "at-Takfir val-hijra", "al-Jihod", "hizb at-Tahrir al-islomiy" каби terror uslubini qo'llovchi tashkilotlar.

**Bahoiylik.** "Bahoiylik" – XIX asrda Eronda bobiylik oqimi zamirida vujudga kelgan diniy oqim. Sherozlik Sayid Ali Muhammad (1819-1850) 1844 yilda Bob (arabcha – "eshik") nomini olib, yaqin orada "Xudo elchisi"ning namoyon bo'lishi, kishilarga yangi davrning asosiy qonunlari va nizomlarini in'om etishini targ'ib qila boshlagan. Bahoiylik Hindiston, Uganda, Keniya, Eron, Misr, AQSh, Kanada kabi qator mamlakatlarda tarqalgan. Hozirgi vaqtda dunyoda bahoylarning 9 ta ibodat uyi, 200 ga yaqin milliy hamda bir qancha mahalliy diniy majlislari mavjud. Bahoylarning umumiyligi miqdori taxminan 6 million kishini tashkil etadi.

Mamlakatimizda bahoylar chet tillarini o'rgatish bo'yicha kurslar tashkil etish orqali yoshlar orasida o'z qarashlarini tarqatishga harakat qilganlari kuzatilgan. Bunday faoliyatni asosan chet el fuqarolari amalga oshirishgan. Bahoylarning missionerlik faoliyati haqida gap ketar ekan, ular o'z suhbatlarida "Alloh", "Alhamdulillah", "Bismillahir-rahmanir-rohim" kabi islomiy tushunchalarni tez-tez ishlatalishlarini, islom dinida tan olingen Ibrohim, Muso, Iso va Muhammad payg'ambarlar ularning ta'limotida tan olinishi hamda "Qur'on" ular uchun ham muqaddas manba hisoblanishini bot-bot takrorlashlarini alohida qayd etish lozim. Bunday uslub, bir tomonidan, musulmonlarning hushyorligini yo'qotish orqali e'tiqodiy ta'sir o'tkazishga

qaratilganini, ikkinchi tomondan, diniy bilimlari sayoz insonlar orasida targ'ibot olib borishni anchagina yengillashtirishini ta'kidlash zarur.

**Hizb at-Tahrir al-Islomiy.** Hizb at-Tahrirga 1952 yilda, Quddus shahrida tug'ilgan Taqiyuddin Nabihoniy tomonidan asos solindi. Partiyaning maqsadi – yer yuzidagi butun musulmon davlatlarining tuzumini o'zgartirib, ularni birlashtirib, yagona diniy boshqaruvdagi teokratik “Xalifalik” davlatini tuzish. Partiya dasturi 187 banddan iborat bo'lib, asosiy maqsadi hokimiyatga erishishdir. Bundagi asosiy yo'l – islomiy fikrlovchi shaxslarni shakllantirish. Buning uchun ular asosan ongi hali to'liq shakllanib ulgurmagan, tez ta'sirga beriluvchan, qiziqqon tabiatli yoshlarni tanlab olib, ularning ongini asta-sekinlik bilan o'zgartirib, o'z g'oyalarini singdirib ularda shunday davlat tuzilishiga intilish uyg'otishga harakat qiladilar. Ularning hujumkor g'oyalari asosan fikriy kurash orqali olib boriladi. Fikriy kurash esa, o'z navbatida, fikriy inqilobga olib boradi. Fikriy inqilobning ortida esa o'zlarining maqsadlarini amalga oshiruvchi siyosiy inqilob, ya'ni turli yo'llar bilan amaldagi konstitutsion tuzumni ag'darib tashlash orqali hokimiyatni egallash yotadi. “Vahhobiylar” va “hizb at-Tahrir” orasida katta farq bor. Masalan: aqida masalasida vahhobiylar “Xalifalik” davlat boshqaruvini g'oya qilib olmaydilar, din, e'tiqod masalasida yuqorida aytib o'tilganidek, jamiyatni Muhammad (s.a.v.) zamonlaridagi tartib-intizomga qaytarishni (fundamentalizm) talab qilib chiqadilar va ularning yo'liga kirmaganlarga shiddat ko'rsatib, hatto jihod e'lon qilib, qonli o'ch olishgacha borib yetadilar. Hizbchilar esa, xalifalik davlatini tiklashni g'oya qilib olib, demokratiyani butkul inkor etadilar. Ularning faoliyatları asosan uch bosqichda olib boriladi:

1. Hizbga din niqobi ostida da'vat qilib, o'z siyosiy maqsadlarini amalga oshiruvchi shaxsni shakllantirib yetishtirish.
2. Yoshlarni siyosiy fikrlantirgan holda, fikriy kurash, varaqalar tarqatish orqali davlatning boshqaruv idoralari bilan xalq o'rtasida ziddiyatlar keltirib chiqarish.
3. Hokimiyatni qo'lga olib, xalifalik davlatini tuzish.

Bu bosqichda asosiy e'tibor hukumat tuzilmalariga o'rnashib olish, jamiyat islomlashtirilgandan so'ng esa rahbarlardan hokimiyatni tark etish va xalifalikning tiklanishiga qarshilik ko'rsatmaslik talab qilinishiga qaratiladi. Dastlab xalifalikni arab

mamlakatlarida, so'ngra boshqa musulmon va musulmon bo'lmanan davlatlarda tiklash ko'zda tutilgan va aniq muddatlari – 13-30 yil deb ko'rsatilgan.

Hizb at-Tahrir tuzilish jihatidan piramida shaklidadir. Har bir guruh (halqa) alohida-alohida bo'lib, 5-6 "doris" deb ataluvchi o'quvchidan iborat. Guruhlarning o'quv ishlariga *mushrif* rahbarlik qiladi. Undan tashqari, guruhda yana bir rahbar – *amir* bo'lib, u mushrifga mashg'ulotlarni o'tkazishda bevosita yordam ko'rsatadi. Mushrif bir vaqtning o'zida bir necha guruhda ta'lim ishlarini olib borishi mumkin. Viloyatlardagi tashkilotlarning filiallarini *mu'tamadlar* boshqaradilar. Viloyatlar o'z maqomi jihatidan kelajakda xalifalik tarkibiga kiruvchi davlatlarni ifodalaydi. Hizb at-Tahrir tashkiloti ichidagi boshqaruv ierarxiyasiga butun dunyoning "*Amir ul-a'zami*" rahbarlik qiladi.

Hizb at-Tahrirning qarorgohi Londonda, tashkiliy tuzilmalari esa dunyoning bir qator mamlakatlarida, shu jumladan, G'arbiy Yevropa hamda Sharqning ba'zi mamlakatlarida joylashgan. O'zbekiston hududida 1992 yildan boshlab partianing boshlang'ich bo'linmalari tashkil etila boshlangan.

Hizb at-Tahrir ekstremistik partiyasi 400 a'zosining "jihod – muqaddas urush" yo'lini tutib konstitutsion tuzumga, kishilar ahilligiga tahdid solgani ichki ishlar idoralari tomonidan fosh etildi. Bir qator terroristlar chet el davlatlaridagi diniy ekstremistik tashkilotlar bilan aloqalar o'rnatib, turli kontrabanda materiallarini o'sha davlatlardan olib kelgan. Hatto ba'zi g'ayriqonuniy diniy tashkilotlarning markaziy shtabi Rossiya, Ukraina va Turkmanistonda ekanligi aniqlangan.

**Akromiylar.** Hizb at-Tahrir faoliyatining tamoyillari va yo'llari haqidagi masalani hal etishda turlicha yondashuvlar mavjud. O'zbekiston hududida xalifalikni o'rnatish uchun kurashning vosita va metodlarini tanlashda partiya yetakchilari o'rtasida turli kelishmovchilik mavjud bo'lib, bu holat partianing bo'linishiga olib keldi va "Akromiylar" guruhi ajralib chiqdi.

Diniy oqim ko'rinishidagii "Akromiylar" tashkiloti 1996 yili Andijonda tuzilgan. Tashkilotning nomi shartli tarzda diniy guruhning asoschisi – Akrom Yo'ldoshev (1960 yilda Andijonda tug'ilgan) nomidan olingan. A.Yo'ldoshev "Hizb at-Tahrir" g'oyalaringin ixlosmandi bo'lib (Andijon viloyatida bu tashkilotning muxlislari "iymonchilar" yoki "xalifachilar" deb atalgan), ulamolik bilan shug'ullandi va "Hizb at-

Tahrir”ning ishini iloji boricha mahalliy Farg’ona vodiysi sharoitiga moslashtirishga harakat qildi. Mahalliy amirlik uning takliflarini noo’rin deb bilgandan so’ng, u o’z guruhini tashkil qildi va Taqiyuddin Nabihoniy ta’limoti asosida shaxsiy ta’limotini ishlab chiqdi. 1992 yilda 12 darsdan iborat “Imonga yo’l” deb nomlangan dastur ishlab chiqdi. Mazkur ta’limot Andijonning taqvodor yoshlari ichida tarqaldi. Tashkilotning pirovard maqsadi O’zbekiston hududida kuch ishlatib, teokratik davlat qurishdir. “Akromiylar” o’z saflariga jalb qilinuvchi shaxslarga ruhiy ta’sir o’tkazish va ularni g’oyaviy jihatdan birlashtirish maqsadida faoliyatlarini 5 bosqichda olib borishni rejalashtirganlar:

“Sirli” yoki “Maxfiy” (o’z tarafiga munosib nomzodlar jalb qilish);

“Moddiy” yoki “Iqtisodiy” (iqtisodiy yordam va ish bilan ta’minalash, topgan foydadan 1/5 qismini jamoa uchun “baytulmol”ga ajratish;

“Ma’naviy” yoki “Siyosiy” (g’oyaviy jihatdan qayta ishlov, din va siyosatni qo’shib o’rgatish);

“Uzviy maydon” (tayyor bo’lgan a’zolarni zarur joylarga qo’yish, faoliyat doirasini kengaytirish);

“To’ntarish” yoki “Oxirat” (asosiy maqsad: vaziyat yetilgach, mavjud tuzum o’rniga o’z hokimiyatini o’rnatish);

Mazkur bosqichlar maxfiy, ijro muddati qat’iy belgilanmagan holda amalga oshirilgan.

Dasturda diniy taassubga moyilligi bor shaxs tanlab olinishi, uning moddiy hayoti yaxshilanishi, ekstremizm, terrorchilik ruhidagi adabiyotlar bilan tanishtirilishi, boshliqning topshiriqlarini so’zsiz bajarishi va nihoyat mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag’darib tashlab, o’z hokimiyatlarini o’rnatishi bayon etilgan. 1999 yilda A.Yo’ldoshev boshchiligidagi “akromiylar”ning bir qator rahbarlari jinoiy javobgarlikka tortilgandan keyin, oqim faoliyatida tub o’zgarishlar yuz bergen. Shu davrga qadar “birodarlar”ga “Imonga yo’l” kitobidan saboq berib kelingan bo’lsa, endilikda ushbu o’quv darsligi yo’q qilinib, darslar og’zaki ravishda, ammo ko’rsatib o’tilgan kitobning mohiyati bo’yicha olib borilgan. Shuningdek, ta’limot “birodarlar”ga o’zlarini yashirish maqsadida shariatda ta’qilangan ba’zi amallarni bajarishga ruxsat etadi.

“Akromiylar” o’zaro aloqalarni mustahkamlash maqsadida, tadbirkorlik bilan shug’ullanganlar hamda yangi a`zolarni, asosan, qarindoshlar hisobiga o’zlarining savdo do’konlari, sartaroshxona, novvoyxona, duradgorlik, qandolatchilik va boshqa sohalarni o’z ichiga olgan ishlab chiqarish tizimiga ishga jalb qilish orqali kengaytirishga harakat qilganlar.

Bu oqim g’oyalarining tarqalishiga bir qator omillar sabab bo’lgan. Jumladan, odamlarni ish bilan ta’minlash, moliyaviy muammolar echimi uchun “xolis” moddiy yordam ko’rsatish orqali ularning asl maqsadlaridan bexabar kishilarni o’zlariga iqtisodiy jihatdan bog’lab olishga va o’z tarafdarlariga aylantirishga harakat qilganlar. “Akromiylar” hokimiyatni qo’lga olish bilan bog’liq rejalarini haqiqiy a’zo bo’lmaganlardan sir tutganliklari hamda yangi tarafdarlar ularni siyosatga aloqasi yo’q deb bilganlari bois singdirilayotgan fikrlarga ko’nikib boraver ganliklarini ko’rsatadi. Bu yo’ldagi amaliy da`vat uslubi boshqa aqidaparastlar yondashuvidan farq qilib, ommaga mafkuraviy tuzoq qo’yishga asoslanadi. “Akromiylar”ning bu tamoyiliga ko’ra, mavjud konstitutsiyaviy tuzumni o’zgartirish, islam davlati qurish kabi gaplarni gapirish shart emas, “balki hayotdagi barcha muammolarning echimi Qur’on va Hadisda” deb uqtirilsa bas. Bu fikrdan “to’g’ri” xulosani odamlar o’zlari chiqarib olishlariga biroz “yordamlashib yuborilsa” yetarli. “Akromiylar” yangi a’zolarga ertayu kech mavjud tuzumning kamchiliklari, o’zlarining go’yoki siyosatdan yiroq, kichik bo’lsa-da, haqiqiy “birodarlar jamoasi” muhitining “go’zal” jihatlarini uqtirib borishga harakat qilganlar. Barcha mutaassib aqidaparastlar qatori “Akromiylar”ning ham fojiasi shundaki, ular imon, e’tiqod, tuyg’u, tushuncha, tushuncha va aql, ma’naviyat va ma’rifat, din va falsafaning mohiyatini o’zlarining g’arazli fikrlari doirasida talqin etadilar.

“Hizb at-Tahrir”, “Akromiylar” kabi adashgan firqalar turli tashviqotlar olib borishlariga qaramay, xalqimiz orasida e’tibor topa olgani yo’q. Chunki Payg’ambarimiz “mening ummatim zalolatda birlashmas”, degan hikmatni bekorga aytmaganlar. O’n to’rt asrdan buyon e’tiqodida mustahkam bo’lgan xalqni noto’g’ri yo’lga boshlash samarasiz kechishi turgan gap. Din-diyonatimizga shunchalar keng imkoniyatlar berilib turgan bir paytda bu kabi toifalar dinga faqat zarar keltirmoqdalar. O’zbekiston

musulmonlari bu oqimni islomga yot oqim deb baholadi. Oqim xalqning keskin qarshiligiga uchradi va faoliyati barham topdi.

**Nurchilar.** “Nurchilar” – diniy-millatchilik ruhidagi turk tashkilotidir. Asoschisi turkiyalik Said Nursiy Baddiuzzamon. 1903-1905 yildan boshlab islom qonunlarini shaxsiy talqini bo'yicha targ'ib qila boshlagan. Said Nursiyning g'oyalari fundamentalistik g'oyalarga juda yaqin bo'lgan, u dindoshlarini islom aqidalariga rioya qilishda mutaassib bo'lishga chaqirgan, Turkiyada dunyoviy davlat tuzumi o'rnatilishiga qarshi chiqqan. Mazkur tashkilotning asl maqsadi – mavjud hokimiyat uchun qarshi chiquvchi o'ta diniy, mutaassib kishilarni tarbiyalashdan iborat.

Oqim vakillari o'zlariga yangi a'zoni jalg etishda birinchi navbatda, nurchilar jamoasi faoliyati siyosatdan uzoq degan fikrni singdirishga harakat qiladilar. Aslida bu bir niqob bo'lib, ularning faoliyati negizida aynan siyosatga aralashuv yotadi. “Nurchilik” harakati saflarining asosini yoshlar tashkil qiladi. Harakat tomonidan tashkil etilgan ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilgan targ'ibot va tashviqot natijasida ularning saflari kengaymoqda. Mazkur oqim a'zolari Hindiston, Pokiston va Malayziya mamlakatlarida ham paydo bo'lgan. Shuningdek, Amerikada tahsil oluvchi turk talabalari orasida “Nurchilar” da`vatiga ergashuvchilar borligi sababli bu harakat AQSh hududida ham tarqalmoqda.

1942 yilda Turkiyaning Erzurum shahrida tug'ilgan F.Gyulen “Nur” harakatinig asoschisi Sayyid Nursiy vafotidan keyin uning o'rnini egallagach, nurchilarning Izmirdagi harakati rejalarini ishlab chiqqan va harakat ishtirokchilarining amaliy mashg'ulotlariga rahbarlik qilgan. F.Gyulen qalamiga mansub 24 ta kitob, 130 dan ziyod turli videokassetalar mavjud. Turkiyada F.Gyulen tashkil qilgan 90 ta turli jamg'arma, 103 ta xususiy maktab, 211 ta shirkat, 160 ta o'quv kurslari va 500 ga yaqin yotoqxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda “Nurchilik” harakati Turkiyada eng nufuzli oqimlardan biri bo'lib, ta'lim sohasida Turkiya milliy ta'lim vazirligidan keyingi mavqeini egallaydi. Harakat ta'lim sohasi bilan birga, mamlakatdagi OAV hayotida ham kuchli mavqega ega bo'lib, turk va ingлиз tilida chiquvchi 14 ta jurnal, “Zamon” kundalik ro'znomasi, “Somon yo'li” televizion kanali va 2 ta radiostansiya faoliyatini nazorat qilib boradi.

Bu oqimning yurtimizga kirib kelishi 1992 yildan boshlab kuzatilgan. Dastlabki oqim g'oyalari turkiyalik ekstremistlarning moddiy va ma`naviy ko'magida yetkazilgan. Respublikamizda nurchilar yig'iladigan manzillar aniqlanib, lozim bo'lgan choralar ko'rilib. Ayni damda ular mahfiy tarzda harakat olib borishga urinmoqdalar.

Yuqorida qayd etilgan diniy ekstremistik guruuhlar islom dinini "asl holatiga qaytarish" da`vati ostida bosqinchilik, talonchilik va begunoh insonlarning qonini to'kish kabi terrorchilik ishlarini amalga oshirmoqda. Mazkur guruhlarning g'oyalari jamiyat hayotining ajralmas qismi hisoblangan ma`naviy va madaniy taraqqiyotga ham salbiy ta`sir ko`rsatmoqda.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Fundamentalizm ilk bor qaysi din doirasida paydo bo'ldi?
2. Diniy ekstremizm deganda nimani tushunasiz?
3. Islomda qanday radikal oqim va guruuhlar mavjud?
4. Ekstremistik guruhlarning maqsadlari nimalardan iborat?
5. Markaziy Osiyo mintaqasida qaysi ekstremistik guruuhlar o'z noqonuniy faoliyatini olib boradi?
6. Vahhobiylar, akromiylar, nurchilarning maqsadi nima?

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2011.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. –T.: "O'zbekiston", 1996.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: "O'zbekiston", 1997.
4. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. –T., 1999.
5. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. –T., 1999.
6. Karimov I.A. Ogohlilikka da`vat. –T., 2000.

7. Afg'onistondagi voqealar munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning bayonoti. "Xalq so'zi", 2001.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2003.
9. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Nezavisimaya gazeta"si muxbir savollariga bergen javobi. 2004.
10. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik taraqqiyot yo'li. "Xalq so'zi", 2007.
11. Azimov A. Islom va hozirgi zamon. –T., 1992.
12. Mo'minov A., Yo'doshxo'jaev X. va boshqalar. Dinshunoslik (darslik). –T.: "Mehnat", 2004.
13. Rahmatov O. Ogohlilik – muqaddas burch. –T., 2000.
14. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. –T., 2005.

## ASOSIY TUSHUNCHA VA ATAMALAR

**Ajdodlarga sig'inish** – ibtidoiy din shakli. Ajdodlarga sig'inishning turli shakllari mavjud bo'lgan. Ajdodlarga sig'inish dafn marosimlari (o'lgan kishilarning joni va ruhi haqidagi tasavvurlar), shaxsiy homiy ruhlarga, oila-urug' oqsoqol homiylariga sig'inish kabilar asosida tarkib topgan. Ajdodlarga sig'inishda ajdodlarning ruhlari urug'ning a'zosi bo'lib qolishi, lekin ular odamlardan kuchli bo'lgani sababli urug'ning farovonligi shu ruhlarga bog'liq, degan tasavvur katta ahamiyat kasb etgan. Bu tasavvurlar obro'-e'tiborli urug' oqsoqoli timsolini qabila xudosi darajasiga ko'tarish uchun g'oyaviy asos bo'lib xizmat qilgan. Jamiyatda kishilarning ijtimoiy belgilariga ko'ra tabaqalashuviga mos ravishda ajdodlar ruhlarining ham tabaqalashuvi sodir bo'ladi, natijada qabila boshliqlari, urug' oqsoqollariga sig'inish birinchi o'rinni oladi. Buning asosida qadimiylardan qahramonlarga sig'inish, keyin esa, avliyolarga sig'inish vujudga kelgan. Markaziy Osiyo xalqlari orasida ham bu odat mavjud. Arvochlarni eslash, ularga sig'inib, madad so'rash, jonlik so'yish, is chiqarish kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Islomda ajdodlarga sig'inish qoralanadi.

**Aqida** (arab. "ahd" – bir narsani ikkinchisiga mahkam bog'lash, ko'plikda "aqoid") – balog'atga yetgan kishi e'tiqod qilishi, iymon keltirishi, islom dinining zaruratlari shaklida tasdiq qilishi, qalbiga mahkam bog'lab olib undan ajralishi mumkin bo'limgan shar'iy-e'tiqodiy hukmlar. Insonning ikki dunyodagi saodati aynan aqidasi qabul bo'ladi. Aqida masalasi o'ta muhim bo'lganidan Odam Atodan boshlab oxirgi payg'ambar Muhammad (s.a.v.)gacha bu masalani Alloh taoloning o'zi ko'rsatib bergen. Odam Atodan tortib hozirgacha aqida masalasi bir xil bo'lib kelgan. Islom aqidalarining asosi Qur'onda berilgan, hadislardagi ko'rsatmalar negizida ishlab chiqilib, tartibga solingan. Islomning sunniylik yo'naliishida e'tirof etiladigan aqidalar yoki imon talablari 7 ta: Allohnинг yagonaligiga, payg'ambarlariga, farishtalariga, ilohiy kitoblariga, oxiratga, taqdirga va qiyomat kuni barchaning qayta tirilishiga ishonish. Shialik yo'naliishi ilohiyotida 5 aqida tan olinadi: tavxid (Allohnинг yagonaligi), nubuvvat (payg'ambar)ga ishonish, adl (ilohiy

taqdirningadolatliligigaishonish), imomat(imomlarhokimiyatintanish),maod(oxiratgaiishonish).

**Bibliya** (yunon. “kitoblar”) – yahudiylik va xristianlikda muqaddas hisoblangandiniy kitoblar va risolalar majmuasi. Bibliya ikki asosiy qism – Qadimgi Ahd va Yangi Ahdga bo’linadi. “Ahd” so’zi Xudoninginsonlar bilan maxsus aloqasini ifodalaydi. Qadimgi Ahd yahudiylikda ham, xristianlikda ham muqaddas sanaladigan va eng qadimiy davrlarda yaratilgan diniy adabiyotlardan, Yangi Ahd esa, faqat xristianlar muqaddas deb biladigan, ular diniy shaklanishiga aloqador diniy asarlardan iborat. Mazkur dinlarningaqidalariga binoan, Bibliya – Xudoningkalomi, barchainsonlarga yo’llangan, dunyo va odamzodning paydo bo’lishi va “oxirat” sirini ohib beruvchi muqaddas kitobdir. Uning asosiy mavzusi – yagona Xudoningfazilatlari va insoniyat bilan munosabati haqidadir. Bibliya miloddan avvalgi VIII asr va milodiy II asrlar oralig’ida oromiy hamda yunon tillarida yozilgan. Bibliya matnlari tadqiq etilganda shunarsatasdiqlandiki, ularqariyb ming yil davomida xilma-xil joylarda yaratilgan.

Bibliya eng qadimiy adabiy yodgorliklardan biri bo’lib, diniy pand-nasihatlar, aqidalar, bashoratlar, duolar, solnomalar, masallar, ishqiy va falsafiy dostonlar, hikoyat, rivoyat va maktublardan iborat. Bibliyada, bir yoqdan, odamzodninggunohkorbo’lib, Xudo tomonidan rad etilishi, abadiy halokatga mahkum qilinishi to’g’risida gap ketsa, ikkinchiyoqdan Xudo insonniqutqarish uchun qanday rejalar tuzganihaqida hikoya qilinadi. Ayniqsa, odamlarga najotyo’lini ochgan Iso Masih to’g’risida to’laqonlixabar beriladi.

**Vahhobiylirk** – islom dinining Hanbaliya mazhabidagi oqim. Arabiston yarim orolininingmarkaziy qismida XVIII asr o’rtalarida paydo bo’lgan. Asoschisi – Muhammad ibn Abdulvahhob. U 1703 yili Najd o’lkasida, qozi oilasida tug’ilgan. Dastlabkita’limni o’z otasidan olgach, o’spirinlik yillari Arabiston va qo’shni o’lkalar bo’ylab ko’psafar qilgan. Ibn Abdulvahhob aqoidda ibn Taymiya, Ibn al-Kayyim va ibn Kasirga ergashdi. Muhammad ibn Abdulvahhob diniytarg’ibotni taxminan 1730 yilda boshlagan, o’z otasiningvafotidan(1740)so’nguni faollashtirgan, chunkiota-o’g’il o’rtasida da’vatning uslubi xususidaixtilofbo’lgan. Turk tilidagi tadqiqotlarda ibn Abdulvahhob uzoq yillar inglizjosusibilanhamkorlikqilganihaqida dalillar mavjud. Vahhobiylirk tarafdorlari

fikricha, faqat Alloh ma'bud va islomning manbai faqat *Qur'on* va *Sunnadir*. Muqaddas joylarni ziyorat qilish, aziz-avliyolardan, duolardan shafoat, yordam tilash shirk hisoblanadi. Musiqa, qo'shiq va umuman ma'naviy taraqqiyotning boshqa ko'p ko'rinishlari "bid'at" (keyin kirib kelgan yangilik) deb sanaladi. Vahhobiylar "dinni tozalashga, Muhammad davridagi asl holiga keltirish" ga harakat qiladi.

Vahhobiylidagi g'ayridinlarga, "ilk islom ahkomlaridan chekingan" musulmonlarga qarshi kurash alohida o'rinni tutadi.

**Vijdon erkinligi** – ijtimoiy falsafiy tushuncha; har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmagan holda vijdoni buyurgani bo'yicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi. Siyosiy jihatdan vijdon erkinligiga demokratiya ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi. Yuridik nuqtai nazardan vijdon erkinligi insonning asosiy shaxsiy huquqlari sirasiga kiradi va demokratik erkinliklardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda u O'zR Konstitutsiyasida, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunda (1991 yil 14 iyunda qabul qilingan, 1998 yil 1 mayda yangi tahriri tasdiqlangan) nazarda tutilgan. Konstitutsiyaga ko'ra, "hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki xech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega" (31-modda). O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bo'yicha diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Ayni vaqtda yangi tahrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, dinga munosabatidan qat'i nazar, fuqarolarning tengligi ta'minlanadi (4-modda).

**Dahriylik** (arab. dahr "vaqt", "taqdir", "falak") – islom paydo bo'lmasdan ilgari arab jamiyatida keng tarqalgan aqida. "O'lim", "taqdir", "ajalning yetishi" ma'nolarini anglatgan. Bu aqidaga ko'ra, insonning taqdiri oldindan belgilab qo'yilgan, u erkin iroda yoki ixtiyor egasi emas, peshonasiga "yozilgan" narsa albatta sodir bo'ladi va undan qutilishning iloji yo'q. Johiliya arablarida narigi dunyo borligiga, bu dunyoda zaxmat chekkanga u dunyoda ajr, gunoh ishlar qilganlarga azob berilishiga ishonch yo'q edi. Borliqning egasi, oliy hokimi sifatida muayyan bir xudo emas, qandaydir "dahr", taqdiri falak, inson irodasi bilan hisoblashmaydigan va undan yuqori turadigan tasodifiy o'zgarishlar jarayoni tasavvur qilinardi. Ularning e'tiqodicha, o'limdan so'ng hamma

narsa tugaydi, shuning uchun bugungi kun bilan yashab qolish kerak. Bunday hissiyot Qur’onda quyidagi so’zlar bilan ifodalangan: “Ular deydilar: faqat bitta – bu dunyodagi hayotimiz bor – yashaymiz va o’lamiz; bizni dahr (vaqt, taqdir) halok qiladi” (“Josiya” surasi, 24-oyat). Keyinchalik, islom adabiyotida dahriy so’zi “mo’mín” so’zining ziddi sifatida ishlatila boshlandi. XIX asrda D. atamasi “materialist” (moddiyunchi) tushunchasining sinonimi sifatida qo’llanilgan. O’rta asrlarda bir qancha olim, mutafakkir va shoirlar (masalan, Mansur al-Xalloj) D.da ayblanib, shafqatsiz jazolangan. Hozir ham musulmon dunyosida D. qoralanadi. D. va ateizm bir ma’noni anglatmasa-da, sho’rolar davrida ularni sinonim so’z sifatida ishlatish rasm bo’lib qolgan edi.

**Din** (arab. “mulk”, “hukm”, “hisob”, “jazo”, “tadbir”, “bo’ysunish”, “itoat qilish”, “ibodat”, “parvez”, “yo’l tutish”, “odat qilish”, “e’tiqod qilish” va b.). Arab tilida din so’zi juda keng ma’noda ishlatiladi. *Qur’onda* ham din turli ma’nolarda 100 dan ortiq marotaba ishlatilgan. Ana o’sha ma’nolarning hammasi urfdagi dinda ham o’z aksini topgan. D.da Allohnинг mulki, hukmi, qiyomatdagi hisob-kitobi, osiylarni jazolashi, tadbir qilish bor. Shuningdek, D.da bandaning bo’ysunishi, itoat qilishi, ibodati, parvezkorligi, Alloh ko’rsatgan yo’lni tutishi, ma'lum ishlarni odat va e’tiqod qilishi kabi ma’nolar bor. Bundan D. Alloh bilan banda orasida bo’lishi kerak bo’lgan aloqalarning to’plami ekanligi kelib chiqadi. Musulmon ulamolar mazkur ma’nolarni e’tiborga olgan holda D.ni “Sog’lom aql egalarini ularning o’z ixtiyorlariga binoan bu dunyoda salohiyatga, u dunyoda najotga eltuvchi ilohiy ko’rsatmalar” deb ta’riflaganlar. D. aqida, *shariat* va *tariqat* bobidagi ilohiy ko’rsatmalarning to’plamidir. Aqida musulmon kishi imon keltirib ishonmog’i lozim bo’lgan narsalarni o’z ichiga oladi. Misol uchun Allohga, ilohiy kitoblarga, payg’ambarlarga, farishtalarga, qiyomat kuniga, yaxshi-yomon, qadar Allohdan ekanligiga ishonish va boshqalar. *Shariat* D.ning amaliy qismidir. U *ibodat*, *muomalot* va *hududga* bo’linadi. Ibodatga namoz, ro’za, zakot, xaj kabi narsalar kiradi. Muomalotga insonlar orasida bo’ladigan savdo-sotiq, kasb-hunar, dehqonchilik kabi hayotiy aloqalar va ishlar kiradi. Hududda esa, yuqoridagi masalalarda xatoga yo’l qo’yib jinoyat qilganlarga belgilangan jazo chorralari haqida so’z ketadi. *Tariqat* esa, ruhiy va axloqiy tarbiyani o’z ichiga olgandir. Ana o’shalarning hammasining majmuasi D. deb ataladi.

**Diniy jamoa** – diniy tashkilotlarning boshlang’ich, asosiy va eng ommaviy turi. Diniy jamoalar dindorlarning ibodatda, diniy marosimlar va rasm-rusumlarda birqalashib ishtirok etishlari jarayonida ularning diniy extiyojlarini bevosita qondiradi. Muayyan jamoaga birlashgan dindorlarning diniy tasavvurlari, g’oyalari, e’tiqodlari, belgi va ramzları bir xil bo’ladi. Diniy jamoalar ijtimoiy hayotda va davlat bilan munosabatlarda mustaqil faoliyat ko’rsatadi. Fuqarolar diniy jamoa tuzilganligi haqida diniy markazlarini va diniy tashkilotlar nizomlarini ro’yxatga oluvchi davlat idoralarini xabardor qilib qo’yishlari shart. Diniy jamoa odatda ruhoniy va qavmlardan iborat bo’ladi.

**Diniy marosimlar** – fuqarolarning diniy ta’limotlardan, ularning qonun-qoidalari va aqidalaridan kelib chiqadigan diniy faoliyat va xatti-harakatlari. Diniy marosimlar har qaysi din vakillarining o’z diniy ta’limotlari asosidan kelib chiqqan. Islom dinida *aqiqa, amri ma'ruf, xatna, ro'za* va *amazon xayiti, qurbanlik* va *qurban xayiti, namoz, xaj* va b. marosimlar bor. O’zbekistonda diniy marosimlarning bemalol amalga oshirilishi ta’milanadi, ammo ular qonunlarni, jamoat tartibini buzmasligi va shaxsga hamda fuqarolarning huquqiga daxl qilmasligi kerak. Diniy marosimlarda qatnashish fuqarolarning xususiy ishidir va hech qanday huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarmaydi. Diniy marosimlarga amal qilinganlik haqidagi xujjatlar huquqiy kuchga ega emas. Diniy marosimlar ibodatxonalarda, diniy tashkilot muassasalarida, ziyoratgohlarda, qabristonlarda, fuqarolarning xonadonlari va uylarida o’tkaziladi. Maxsus binolardan tashqarida diniy marosimlar yoki ommaviy ibodatlar o’tkaziladigan holatlarda bu xaqda mahalliy xokimiyat ogohlantirib qo’yilishi va bunday tadbirlar qat’iy tartibga rioya qilingan holda tashkil etilishi lozim.

**Diniy tashkilot** – diniy ehtiyojlarni birqalikda qondirish yoki qondirishga ko’maklashish maqsadida tuziladigan va diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko’radigan ixtiyoriy, teng huquqli va o’z-o’zini boshqaruvchi uyushma. Ayni vaqtida fuqarolarning vijdon erkinligini kafolatlovchi tuzilmalardan biri hisoblanadi. Diniy tashkilotlarning eng muhim belgisi – ularning o’zini o’zi boshqarishdir, ya’ni ular ma’muriy jihatdan davlat idoralaridan ajratilgan. Diniy tashkilotlarning faoliyatiga, ularning ichki aqidaviy ishlariga, agar qonunlarga zid kelmasa, davlat aralashmaydi. Ular

o’z ustavlariga muvofiq tashkil topish va ish yuritish, xodimlarni tanlash, tayinlash huquqiga egadir.

**Diniy o’quv yurtlari** – ilohiyotni o’qitib, ruhoniylar tayyorlovchi maktablar. Islom dinida madrasalar ilk diniy o’quv yurtlari hisoblanib, ular diniy va tarixiy asarlarda IX asrdan tilga olish boshlagan. Ularda ko’p asrlar mobaynida ilohiyot, til va shariat darslari bilan bir qatorda falsafa, amaliy fanlar ham o’qitilgan. Keyinchalik madrasalarda, asosan, diniy ta’lim beriladigan bo’ldi. Faqat ayrim musulmon dorilfununlarida ta’lim avvalgisicha qoldi.

Hozir jahondagi ko’p mamlakatlarda oliy, o’rta va boshlang’ich ma'lumot beruvchi ko’plab diniy o’quv yurtlari mavjud. Islom mamlakatlarida hozir ham madrasalar asosiy diniy o’quv yurtlari hisoblanadi. Misr Arab Respublikasida al-Azhar, Tunisda Zaytuna, Hindistonda Aligarx, Pokistonda Panjob, Turkiyada Anqara diniy dorilfununlari va boshqalar mavjud. O’zbekistonda 12 ta diniy o’quv yurti faoliyat ko’rsatadi. Bular: Toshkentdagi Imom al-Buxoriy nomli islom instituti, “Ko’kaldosh”, Buxorodagi “Mir Arab” madrasalari, shuningdek, Toshkentdagi “Hadichai Kubro”, Buxorodagi “Jo’ybori Kalon”, ayol-qizlar islom o’rta maxsus bilim yurtlari, Namangandagi “Mulla qirg’iz”, Urganchdagi “Faxriddin ar-Roziy”, Nukusdagi “Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy”, Andijondagi “Said Muhiddin Mahdum” islom o’rta maxsus bilim yurtlari va boshqalar. O’zbekistonda din davlatdan ajratilgani uchun diniy o’quv yurtlari davlat xalq ta’limi tizimiga kirmaydi.

*Yevropa Islom Kengashi* – Yevropadagi 12 mamlakatda ish ko’rvuchi 30 dan ortiq islom markazlari va tashkilotlarining faoliyatini boshqarib turuvchi organ. 1973 yilda Londonda tuzilgan. Kengash islom tarixi muammolari, dolzarb siyosiy masalalar bo’yicha anjumanlar o’tkazadi, faol targ’ibot ishlari bilan shug’ullanadi, bir qancha vaqtli matbuot nashrlarini chiqarib turadi.

**Jixod, qazavot** (arab. “g’ayrat qilish”, “kuchni ishga solish”) – din yo’lida kurash. Dastlab jihod deyilganda islomni himoya qilish va yoyish uchun kurash tushunilgan. Bu kurashga nisbatan Qur’onda Muhammad (s.a.v.)ning Makka va Madinada kechgan hayot faoliyatlarining muayyan shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda turlicha ko’rsatmalar bor: 1) Ko’p xudoliklar bilan mojaroga bormaslik va ularni oqillik va odob bilan haqiqiy

dinga og'dirish; 2) Islom dushmanlariga qarshi mudofaa urushi olib borish; 3) G'ayri dinlarga hujum qilish, lekin muqaddas oylarda harakatlar olib bormaslik.

Islomda jihod ma'nosi, avvalo, urush ma'nosida emas, Allohning diniga so'z bilan da'vat qilish ma'nosida yuzaga kelgan. Insonning xavoiy nafs kuyiga kirmasligi, uni yengib shariyatga muvofiq, haq so'zni joyini topib aytmoqligi jihodga kiradi. Farzandini ota-onasi xizmatida bo'lishi ham jihoddir.

**Johiliya** (arab. “bilimsizlik holati”, “jaholat”) – arablar tarixining islomdan ilgari davriga nom, aniqroq qilib aytganda, odamlar hayotida Iso (a.s.) bilan Muhammad (s.a.v.) oralig'idagi payg'ambarsiz o'tgan davr tushuniladi. Johiliya tushunchasi Qur'onning bir necha suralarida uchraydi (“Oli-Imron”, 157; “Moida”, 50; “Ahzob”, 33; “Fatx”, 26.). Johiliya atamasining paydo bo'lismiga muayyan sabablar bor edi, zero, oldingi arablarning ko'pchiligidagi “jahl” tuyg'usi xos edi va u boshqalarga nisbatan beshafqat va vahshiyona munosabatda bo'lismida o'z ifodasini topardi (qasos olish zarurati, go'dak qizlarni tiriklayin ko'mish, o'zga qabila vakiliga dushman sifatida qarash va b.). Islomdan ilgari Arabistonda qonunsizlik, axloqsizlik, zo'ravonlik hukm surgani uchun ham keyingi avlod o'sha davrni haqli ravishda johiliya deb atagan. Bundan tashqari, johiliya davri arablarning diniy tasavvurlari ham kam taraqqiy qilgan, sodda holda bo'lgan. Johiliya arablari narigi dunyoga ishonmasdi. Islom g'alabasidan so'ng ular “Dahriy”lar yoki “Mushrik”lar (Allohga boshqa xudolarni sherik qiluvchilar) degan nomlarni oladi.

**Zabur** – diniy manbalarga ko'ra, *Dovud* (a.s.) ga nozil bo'lgan ilohiy kitob. *Bibliya* “Qadimgi Ahd” qismining bo'limi. Yunon tilida “psalom”, “psalterion” (“psaltir”), qadimiy yahudiy tilida “taxalim” deb atalgan. “Hazrati Dovudning sanolari kitobi” nomi bilan mashxur bo'lgan diniy-musiqiy oyatlar majmui. Mil.av. 1500-500 yillarga tegishli. Zabur sanolari, asosan, Xudoga bag'ishlangan madhiyalar, duolar, shukrona, iltijo, nolafig'on, dushmanlardan shikoyat va h.k.dan iborat. Ularga ko'ra, Xudo hamma narsalarni ko'rib-bilib, inson qalbini doim sinab-imtihon etib turuvchi zotdir, u Isroiil mamlakati tarixida ham g'aroyib mo'jizalarni namoyon qilgan. Ayrim sanolarda Iso (a.s.)ning dunyoga kelishi, azob chekib, jon taslim etishi, so'ng tirilib, yer yuzida abadiy hukmronligini o'rnatishi bashorat etilgan.

**Ilohiy kitoblar** – muayyan dinda muqaddas, ilohiy hisoblanadigan kitoblar. Diniy talimotga ko’ra, Alloh o’tgan payg’ambarlarning ba’zilariga sahifalar, ba’zilariga esa, kitoblar nozil qilgan. 100 sahifa va 4 kitob – 100 sahifadan 10 sahifani Odam (a.s.)ga, 50 sahifani Shis (a.s.)ga, 30 sahifani Idris (a.s.)ga, 10 sahifani Ibrohim (a.s.)ga yuborgan. Muso (a.s.)ga Tavrot, Dovud (a.s.)ga Zabur, Iso (a.s.)ga Injil va Muhammad (s.a.v.)ga Qur’onni nozil qilgan.

**Islom** – (arab. “bo’ysunish”, “itoat etish”, “o’zini Alloh irodasiga topshirish”) jahonda keng tarqalgan uch din (buddaviylik va xristianlik bilan bir qatorda)dan biri. Islom diniga e’tiqod qiluvchilar arabcha “muslim” (“islomni qabul qilgan”, “itoatl”, “sadoqatli”; ko’pligi “muslimun”) deb ataladi. “Muslim”, “muslimun” so’zining boshqa xalqlar orasida o’zgacha talaffuz etish (masalan, forslarda – musalmon, o’zbeklarda – musulmon, qozoqlarda – musurmon, Ukraina va Rossiyada – basurman) natijasida bu dinga e’tiqod qiluvchilar turli nom bilan ataladi. Lekin bularning ichida hozir musulmon iborasi keng tarqalgan.

**Islom Olami Kongressi (IOK)** – ko’plab musulmon mamlakatlari arboblarini birlashtirgan xalqaro islom tashkiloti. 1926 yilda Makkada tashkil etilgan. Qarorgohi Karachi shahri (Pokiston)da. Hozirgi vaqtda 36 davlat vakillarini birlashtirgan. IOK faoliyatiga musulmonlarning har yilgi xaj ziyorati tugagan vaqtida to’planadigan Oliy Kengash rahbarlik qiladi. IOK bir necha ilmiy tadqiqot markazlari orqali islom tarixi, aqidalari, falsafasi sohasidagi tадqiqotlarni amalga oshirishga rahbarlik qiladi, islom mavzuidagi nashrlarni (xususan, “Musulmon olami” jurnalini) chiqarib turadi, uning ixtiyorida “Islom ovozi” radiostantsiyasi mavjud.

**Islom Olami Uyushmasi** – xalqaro islom tashkiloti. Ruhoniylarning 1962 yil may oyida Makkada bo’lib o’tgan konferensiyasida asos solingan. Qarorgohi Makka shahrida, oliy rahbar organi Ta’sis kengashi bo’lib, unga turli mamlakatdan 60 nafar diniy arbob kiradi. Uyushma qarorlari tavsiya xarakteriga ega, majlisi yiliga bir marta chaqiriladi. Ta’sis kengashi ishini Bosh kotibiyat muvofiqlashtirib, boshqarib turadi. Saudiya Arabistonining 3 ta shahri – Ar-Riyod, Madina va Jiddada uyushmaning bo’limlari mavjud. Yana 13 ta joyda vakolatxonasi bor. Bu vakolatxonalar Ummon (Iordaniya), Jakarta (Indoneziya), Kuala-Lumpur (Malayziya), Nuakshot (Mavritaniya), Dakar

(Senegal), Parij (Fransiya), Nyu-York (AQSh) va boshqa bir necha xorijiy mamlakatlar poytaxtlarida joylashgan. Bundan tashqari IOUning barcha musulmon mamlakatlarida vakillari ham bor. Uyushma BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi hamda YUNESKO huzurida maslahat berish huquqini olgan. IOU BMTning Bolalar fondiga badal o'tkazib turadi. Uyushmaning asosiy e'tibori islomni targ'ib qilish, masjidlar qurilishiga ko'maklashish, xaj ziyyaratini uyushtirishga qaratilgan.

**Islom ekstremizmi** – islomning qadimgi g'oyalari va ideallarini qayta tiklashni kuch ishlatish yo'li bilan amalga oshirishga qaratilgan diniy-siyosiy harakat. Bunday harakat diniy mutaassiblikka asoslangan bo'lib, muayyan mazhab ta'llimotiga qattiq yopishib olish oqibatida yuzaga keladi va ko'pincha muayyan siyosat va iqtisodiy manfaatlarni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

**Islomshunoslik** – dinshunoslikning islom tarixi, manbalari va marosimlarini o'rghanuvchi, tadqiq qiluvchi sohasi. Islom dini va uning yozma manbalari paydo bo'lgandan keyin islomshunoslik islom tarqagan mamlakatlarda, xususan, Movarounnahrda rivojlandi. Ayniqla, hozirgi O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan Imam Buxoriy, Abu Iso Termizi, Hakim Termizi, Abu Mansur Moturidiy, Abu Lays Samarqandiy, Zamahshariy, Qaffol Shoshiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abdulxoliq G'ijduvoniy kabi faqih, ilohiyotchi, muhaddis, tafsirchilar boy ilmiy meros qoldirdilar. Islom tarixi va Qur'oni o'rghanish Yevropada IX asrdan boshlangan. Amerika, Yevropa va Rossiya islomshunosligi va Qur'onshunoslida olib borilgan tadqiqotlar ko'pligi, ma'lumotlarga boyligiga qaramay, ularda cheklanganlik, biryoqlamalik bor. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyingina islomshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borish imkoniyati tug'ildi. 1992 yilda Toshkent davlat Sharqshunoslik institutida islomshunoslik kafedrasi, 1995 yilda Toshkentda Xalqaro islom tashkilotlari markazi, 1999 yilda Toshkent islom universiteti ochildi. Universitet tarkibida islomshunoslik bo'yicha tadqiqot markazi tashkil qilindi. Bu ilm maskanlari islom dinini har tomonlama chuqur va puxta o'rghanish, uning asoslari, ahkomlari, jahon madaniyatining yuksalishiga qo'shgan ulkan hissasini tadqiq qilish va natijalarini keng jamoatchilik diqqat-e'tiboriga yetkazish yo'lida faoliyat ko'rsatmoqda. Islomshunoslik

fan sifatida Toshkent islom universiteti va Toshkent davlat Sharqshunoslik institutida o'qitilmoqda.

**Mutaassiblik** – o'z e'tiqodi to'g'rilingiga o'ta qattiq ishonish, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'lismaydi. Mutaassiblikka yo'liqqan odamlar yoki ularning guruhlari jamiyatda beqarorlikni vujudga keltirishga urinadi. Insoniyat tarixida bunday e'tiqoddan g'arazli maqsadlarda foydalanilgan. Mutaassiblikning paydo bo'lishiga diniy ziddiyatlar, shuningdek, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarning hal qilinmagani ham sabab bo'lishi mumkin. Islom dini mutaassiblikka hayrihohlik bildirmaydi. Aksincha, teran o'ylashga, boshqalarga nisbatan murosali bo'lishga chaqiradi.

**O'zbekiston musulmonlari idorasasi** – O'zbekiston musulmonlariga rahbarlik qiluvchi diniy tashkilot. 1943 yil 20 oktabrda Toshkentda bo'lib o'tgan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari qurultoyida ta'sis etilgan. Toshkentdag'i Baroqxon madrasasida joylashgan. Bu tashkilot 1992 yildan Movarounnahr musulmonlari idorasasi, keyinchalik esa O'zbekiston musulmonlari idorasasi deb ataladi. U davlatdan ajralgan mustaqil tashkilot sifatida ish yuritadi. Idora o'z hududidagi musulmonlar o'rtasidagi diniy ishlarni boshqarib turadi, fatvolar beradi, masjidlarga imom-xatiblar tayinlaydi, diniy xodimlar tayyorlaydi. O'zbekiston musulmonlari idorasasi moddiy jihatdan musulmonlardan, masjidlardan tushadigan xayr-ehsonlar, yordamchi xo'jaliklar va boshqalar hisobiga ta'minlanadi. Idora rahbar organi Oliy hay'at. Uning raisi muftiy hisoblanadi. Muftiy o'rinnbosari – noiblari bor. O'zbekiston musulmonlari idorasida masjidlar, xalqaro aloqalar, xayriya, fatvo, ta'lim va muhtasiblik bo'limlari bor. Buxorodagi Mir Arab madrasasida (1945) va Toshkentdag'i Buxoriy nomidagi Islom institutida (1971) va bir necha diniy bilim yurtlarida kadrlar yetishtiriladi.

**Ilohiyot** – Xudo to'g'risidagi ta'limot, bilim. Butun olamni, koinotni, borliqni, barcha maxluqotlarni yaratgan, ularni inson bila olmaydigan o'z qonunlari bilan boshqaradigan Allohning sifatlari, belgilari, xususiyatlari to'g'risidagi diniy ta'limot. Fan, falsafa olamni aql-idrok bilan bilish orqali haqiqatga yaqinlashsa, ilohiyot esa Haq taoloning payg'ambarlar orqali yuborgan vahiylari haqiqatni ochib beradi, deb hisoblaydi. Diniy aqidalar, ilohiy ko'rsatmalar bilan shuqullanuvchi fan. Teologiya.

**Pora** – Qur’oni Karim bo’laklari, parchalari, qismlari. Qur’on 30 pora (juz, bo’lak)dan iborat.

**Sura** – faqat Qur’ongagina xos atama. Qur’oni Karimning sarlavhali boblari sura deyiladi. Qur’onda jami 114 sura bor.

**Oyat** – ilohiy belgi, nishon, alomat, ibrat, mo’jiza. Qur’oni Karim suralarining misralari, bandlari.

**Vahiy** – Tangri taoloning nabiylar va rasullar orqali insonlarga yuborgan xabar, diniy hukmlari va amrlarining yetkazilishi.

**Islom** – yakkayu yagona Xudovandni tan olish, Unga ishonch, itoat, bo’ysunish va Unga o’zini topshirish, degan ma’nolarni anglatadi. Butun bashariyatni to’g’ri, xaq yo’lga boshlash uchun Alloh tomonidan o’zining rasuli va payg’ambari Muhammad (s.a.v.) orqali yuborilgan oxirgi diniy ta’limot. Islom batamom yangi e’tiqod emas, balki u Ibrohim (a.s.) ning tavhidga asoslangan, qayta tiklangan dindir.

**Imon** – ishonch, e’tiqod. Allohnинг borligiga, yakkayu yagonaligiga, Muhammad (s.a.v.) uning rasuli va payg’ambari ekanligiga chin dildan ishonib, til bilan tasdiqlashga iymon deyiladi.

Bundan tashqari diniy iymon sohibi Allohnинг farishtalariga, ilohiy kitoblariga, payg’ambarlariga, taqdirga, oxiratga va o’lgandan keyin qayta tirilishga ishonmog’i shart.

**Musulmon** (muslim, mo’min) – yakkayu yagona Xudoga, Islom diniga e’tiqod qiluvchi shaxs. “Musulmonlar” degan nomni Alloh bergen.

**Rasul** – Allohnинг yerdagi elchisi. Payg’ambar – arab tilidagi “nabiy” kalimasining forschaga aynan tarjimasi (xabar yetkazuvchi).

**Sahobalar** – Muhammad (s.a.v.)ning do’stlari, yaqin safdoshlari, shogirdlari, yordamchilari. Sahobaning ko’pligi – ashob.

**Muhojirlar** – milodiy 622 yili Makkadan Madinaga hijrat qilib ko’chib kelgan musulmonlar; o’z vatanidan uzoqda yurganlar.

**Ansorlar** – Makkadan Madinaga hijrat qilib ko’chib kelgan musulmonlarga yordam qilgan madinalik musulmonlar.

**Ummat** – Payg’ambar qavmi.

**Banda** – Xudoning quli.

**Hadis** – payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning so’zlari, nasihatlari, ko’rsatmalari. Islomdagi ikkinchi muqaddas manba.

**Axbor** – shia mazhabidagi musulmonlarning muqaddas rivoyatlari, Muhammad (s.a.v.) va Hazrat Alining so’zlari, faoliyatları to’g’risidagi rivoyatlar to’plami kitobi.

**Sunniylik** – islomning uch asosiy yo’nalishidan biri. Bu yo’nalishdagi musulmonlar Qur’oni Karim bilan birga Payg’ambarimiz hadislari, sunnatlari bo’lgan Sunnaga ham e’tiqod, rioya qiladilar. Sunniylikda hanafiya, molikiya, shofi’iya va hanbaliya mazhablari bor.

**Shialik** – islam dinining uch asosiy yo’nalishining ikkinchisi. Bu yo’nalishdagi musulmonlar Qur’oni Karim bilan birga o’zlarining hadislari to’plami bo’lmish “Axbor”ni e’tirof etadilar. Shialikda yagona ja’fariya mazhabi bor.

**Xorijiylar** (chetga chiqqanlar, tashqariliklar) – Payg’ambarimiz vafotlaridan keyin VII asrning ikkinchi yarmida paydo bo’lgan islomdagi uch yo’nalishning birinchisi. Xalifa Hazrat Ali va Muoviya o’rtasida taxt uchun kurashda har ikkiloviga ham babbaravar qarshi kurash boshlaganlar guruhi. Bu oqim o’sha paytlardayoq yo’q bo’lib ketgan.

**Mazhab** – oqim, yo’l, ta’limot, maslak. Islomdagi diniy-huquqiy yo’l, ta’limot, oqim.

**Fiqh** – musulmon huquqshunosligi, shar’iy dalillardan shar’iy hukmlar chiqarish. Shar’iy dalil – Qur’on va Sunnadir. Shar’iy hukm esa umumiylar shar’iy hukmdan kelib chiqadigan xususiy fikrdir. Faqih – qonunshunos.

**Ijmo’** – yakdillik bilan qabul qilingan qaror, jamoatning yagona fikri. Shariat manbalarining Qur’on va Sunnadan keyingi uchinchisi. Qur’oni Karim va Sunnada aniq ko’rsatilmagan huquqiy masalalarni hal etishda islam ulamolari va mujtahidlarining to’planishib, yagona fikrga kelib hukm chiqarishi – fatvo berishi. To’plangan ulamolarning birortasi chiqariladigan hukmga rizo bo’lmasa, u haq bo’lish ehtimoli borligi uchun hukm – fatvo qabul qilinmaydi.

**Qiyos** – taqqoslash, solishtirish. Shariat manbalarining Qur’on, Sunna va Ijmo’dan keyingi to’rtinchisi. Uch manba bo’yicha yechilmagan masalalar qiyoslash yo’li bilan yechiladi, tushuntiriladi.

**Shariat** – to’g’ri yo’l, ilohiy yo’l qonunchiligi, islom dinining qonun-qoidalar tizimi, majmuasi, kodeksi. Shariatda 6 asosiy kategoriya bor.

1) **Farz** – majburiyat. Shariatda barcha musulmonlar bajarishi shart, majburiy bo’lgan qat’iy talablar, huquqiy, axloqiy me’yorlar.

2) **Mandub** – tavsiya etilgan, lozim topilgan, lekin majbur hisoblanmaydigan xatti-harakatlar. Ixtiyoriy bajariladigan urf-odatlar. Uning ba’zi kategoriyalari sunnat tarkibiga ham kiradi.

3) **Muboh** – umumiy hech kimga taalluqli bo’lmagan, bajarilishi taqiqlanmagan va majburiy deb ham hisoblanmagan, shariatda qilsa bo’ladigan ishlar. Joiz-ijozat berilgan, yo’l berilgan ishlar. “Muboh” atamasining sinonimi, ya’ni gunoh hisoblanmaydigan, inson hayoti va turmushi bilan bog’liq bo’lgan oddiy xatti-harakatlar – ovqatlanish, uqlash, uylanish, dam olish va hokazolar. Muboh mohiyatan “Joiz” kategoriyasiga teng.

4) **Halol** – musulmonlar uchun ruxsat etilgan xatti-harakatlar va ishlar, toza va pok hisoblangan oziq-ovqatlar, ichimliklar, haromning ziddi.

5) **Harom** – shariatda musulmonlar uchun qat’iy taqiqlangan xatti-harakatlar, ishlar, oziq-ovqatlar, turli yumishlar, ichimliklar va hokazolar, halolning ziddi.

6) **Makruh** – musulmonlarning qat’iyan ta’qiqlanmagan, lekin nomaqbul deb hisoblangan xatti-harakatlari, yemishlari. Halol bilan harom o’rtasidagi narsa (haromga yaqinroq), xunuk, yoqimsiz ish.

**Gunoh** – savobning ziddi. Yaratganga yoqmaydigan ishlar. Gunohi kabira og’ir gunoh sanaladi.

**Duo** – Xudoga yolvorib, o’zi yoki boshqalar uchun tilak tilash, Qur’on sura va oyatlaridan o’qib, so’ngra Yaratganga iltijo qilish. Duo ins-jinslar, turli xil balolardan qutilishga yordam beradigan vosita hisoblanadi. Duoni dunyoviy fan: “Insonning makrokosm, ya’ni koinotga, aniqrog’i, Oliy fazoviy ongga murojaati”, deb tushuntiradi.

**Farishta** – (“malak”, ko’pligi – “maloika”) – Xudo amrini bajaruvchi, ko’zga ko’rinmaydigan, nurdan yaratilgan mavjudotlar. Ularning son-sanog’ini yolg’iz Xudoning o’zi biladi.

**Dahriy** – xudosiz. Ateist. Xudoning borligini tan olmaydigan, hech qanday dinga e’tiqod qilmaydigan shaxs.

**Majusiylik** – dastlab zardushtiylik musulmonlarda majusiylik deb atalgan. Tavrotda yahudiy bo’Imagan, Xudovandning yakkaligini tan olmagan barcha xalqlar majusiy deb atalgan. Majusiylik: butparastlik, ko’pxudolik, mushriklikdir.

**Butparastlik** – but, sanam, xoch, haykal, surat va boshqa narsalarga sig’inish, topinish, e’tiqod qilish. Hozir nasroniylar ikona (payg’ambarlar, avliyolar rasmi), salibga; buddaviylar kichkina haykalchalarga sig’inadilar.

**But** – forschada “but” (Budda so’zidan olingan), arabchada esa “sanam”dir. Yaratganni tasvirlaydigan va uning timsoli deb sig’iniladigan, Xudovandning tosh, yog’och, sopol va boshqa narsalardan yasalgan haykalchalari, rasmlari. Nasroniylardagi salib, xoch (krest) ham but hisoblanadi.

**Mujtahid** – intiluvchi, g’ayrat qiluvchi. Eng oliy din olimi, ulamo. Sunniylarda diniy huquq mazhablarining asoschilari: Imom A’zam, Imom Molik, Imom Shofi’iy, Imom Ahmad ibn Hanbal va boshqalar. Ijtihog darajasiga yetishgan buyuk bilimdon ruhoniylar va diniy huquqshunoslar mujtahid (ulug’ imom) deb ataladi.

**Ijtihog** – fiqhda oliy martabaga erishish.

**Tafsir** – Islom ilmlaridan biri; diniy tushuncha va atamalarning ma’nolarini tushuntirib berish. Qur’on oyatlarining sharxlari va izohlari.

**Ruhoniylar** – diniy ta’limotlarni targ’ib etuvchi, diniy marosimlarni amalga oshirishda boshchilik qiluvchi, maxsus tayyorgarlik ko’rgan diniy bilimlarga ega dindorlar. Ular barcha dinlarda mavjud. Shayxlar, pirlar, eshonlar, imomlar, domlalar, mullalar; poplar, yepiskoplar, kardinallar, papalar, kohinlar va hokazolar.

**Oxirat** – oxirgi kun, dunyo tugaydigan kun.

**Ibodat** – Parvardigorning yaratib qo’yaniga shukrona bildirib hamda Allah jamolini ko’rish va jannatga kirish maqsadida qilinadigan ma'lum bir amal, harakat. Xudoga sig’inish, masalan, musulmonlarda namoz o’qish, nasroniyarda butga cho’qinish va hakozolar. Bundan tashqari, Xudovandning buyurganlarini bajarib, savob ishlar qilib, man qilingan harom ishlardan tiyilib yurgan insonlar ham ibodatda yurgan bo’ladilar.

**Diniy timsol** – diniy marosimga oid ta’limotlar. Ma’nosи – ongsiz, bilimsiz kishilardan yashirin tutish uchun ko’zda tutilgan. Masalan, nasroniyarda qo’zichoq (agnets), Xudovandning qurbanlik qo’zisi ma’nosida Iso alayhissalomning timsoli.

Kabutar – Muqaddas ruhning timsoli. Buddizmda Triratna – buddaviylik troitsasi (muqaddas uchlik) timsoli. Ilon – yovuzlik timsoli. Cho’chqa – johillik timsoli. Ayrim timsollar dinning bayrog’iga aylanib qolgan. Masalan, salib – nasroniylik timsoli, chakra – (sakkizspitsalik qildirak) buddaviylik timsoli, oltiqirralik yulduz – yahudiylilik timsoli, hilol, ya’ni yarim oy – islom timsoli. Musulmonlarning yulduzi sakkiz qirralikdir.

**Haniflar** (haniflik) – chinakam e’tiqod qiluvchi taqvodorlar. Islom dini vujudga kelmasdan oldin yakka Xudoga e’tiqod qiluvchilar.

**Haj** – islom dinining besh ruknini oxirgisi bo’lib, qurbon oyida Makka shahriga borib, musulmonlarning qiblasi bo’lmish muqaddas Ka’bani ziyorat qilish va belgilangan tartibda ibodat va boshqa haj amallarini bajarib kelish.

**Umra** – haj mavsumidan boshqa vaqtida qilingan ziyorat, kichik haj.

**Ro’za** – islom dinida farz bo’lgan uchinchi rukn. Ro’zador 30 kun davomida erta sahardan shomgacha hech qanday ovqat yemasligi, ichmasligi, suvga sho’ng’ib cho’milmasligi, jinsiy aloqa qilmasligi talab etiladi. Ro’za Alloh uchun tutiladi.

**Al-Isro** (Tungi sayr) – Muhammad (s.a.v.)ning tunda Makkadan Quddusga Buroq otda bir zumda sayr qilib yetib borishlari.

**Me’roj** – 1. shoti, narvon, pillapoya; 2. yuqoriga ko’tarilish, yuksakka chiqish, parvoz. Muhammad (s.a.v.)ning Jabroil alayhissalom bilan Alloh oldiga tunda yettinchi osmonga ko’tarilib qilgan sayohati. Muhammad (s.a.v.) Buroq nomli uchar tulporda Makkadan Quddusga, u yerdan yettinchi osmonga chiqib, Alloh taoloning huzuriga borganlar. Idris, Xorun, Muso, Ibrohim alayhissalomlar bilan uchrashganlar. Alloh taolo u yerda musulmonlarga besh vaqt namoz farz qilgan. Bu haqda Qur’onda maxsus 17-“al-Isro” surasi bor.

Bu voqealrajab oyida bayram qilinadi. Payg’ambarimizning me’rojga ko’tarilgan kuni – milodiy 621 yil, 27 rajab oyi, juma kuni sodir bo’lgan.

**Mutaassib** – biror narsaga, g’oyaga, fikrga qattiq beriluvchi, yopishib oluvchi, o’jar, johil, aqidaparast odam (fanatik). Bunday nodon odamlar o’z g’oyalarini, e’tiqodlarini boshqalarga johillik va kuch bilan zo’rlab qabul qildirishga harakat qiladilar va o’zlari tushunmagan holda bid’atga yo’l qo’yadilar, shu tariqa razolat botqog’iga botadilar. Bundaylardan dinimiz dushmanlari ustamonlik bilan foydalanadi.

**Ibriy** (Ibroniy, yevrey) – Nuh payg'ambarning chevarasi, Somning esa evarasi, bo'lgan Ibr (Yever) avlodlari va undan tarqalgan xalqlar ibriylar, ibroniylar, ya'ni evreylar deb atalganlar. Hozirgi yahudiylarning eng qadimgi ajdodlari. Yahudiylar oldin Bani Isroil – Isroil avlodlari deyilar edi, undan oldin esa ular ibriylar, ibroniylar – evreylar deb atalgan.

**Isroil** – Hazrat Ibrohim (a.s.)ning nabirasi, ya'ni Ishoq alayhissalomning o'g'li Ya'qub alayhissalomga berilgan yangi nom, laqab. Ya'qub alayhissalomning o'g'lidan tarqab ketgan qabilalar ittifoqi va ular yashagan o'lkaning nomi.

**Bani Isroil** – Isroil avlodlari bo'lmish yahudiylar. Yahudiylarning miloddan avvalgi 928 yildan burungi nomlari.

**Apostollar** (havoriylar) – Iso alayhissalomning dastlabki 12 shogirdi, muridi. Nasroniylik dinini keng yoyuvchilar.

**Tarso** – nasroniy, xristian.

**Kan'on** (Xanaan) – Nux payg'ambarning nabirasi. Homning o'g'li. Hom otasi Nux alayxissalomning qarg'ishiga uchragan. Kan'ondan o'n bir o'g'il dunyoga kelgan va ular shuncha qabilaga bo'linib, Shom atroflarida yashaganlar. Ular yashagan yerlar Kan'on mamlakati (Falastin) deb yuritilgan. Rivoyatlarga qaraganda, Kan'on qabilasini chivinlar talab o'ldirgan. Nux alayhissalomning shu nomdag'i kenja o'g'li ham bo'lgan, lekin u to'fon vaqtida kofirligicha o'lib ketgan edi.

**Pasxa** — yahudiylar va nasroniylarning asosiy bayrami. Yahudiylarning Misr qulligidan qutilish kunini qutlab qilinadigan bayram. Bu bayramda ular qurbanlikka qo'zi so'yib, hamirturishsiz, tuzsiz yopilgan non eyishadi. Ularcha, hamirturush gunoh va buzuqlik ramzidir. Nasroniylar bu bayramni bahorda kun bilan tun baravarlashgan kundan keyingi birinchi yakshanbadan boshlab qirq kun bayram qiladilar.

**Inoyat** – odamlar savob ishlari bilan erisholmaydigan, faqat Parvardigorning mehri tufayli keladigan ilohiy marhamat.

**Hidoyat** – to'g'ri yo'l, Xaq taolo da'vat etgan, amr etgan yo'l.

**Hodiy** – to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi rahbar, rahnamo, peshvo.

**Shanba** – Tavrot bo'yicha yahudiylarning dam olish va ibodat kuni. Bu kuni ishlash yahudiylarda qat'yan man qilingan. Bu kunda ishlagan odamni hatto qatlga hukm qilganlar.

**Xoch (salib)** – Rim impyeriyasida ashaddiy jinoyatchilarni o'ldirish uchun qo'l-oyog'idan parchinlab qo'yishga mo'ljallangan "T" shaklidagi juda vahshiyona, dahshatli, ayovsiz jazo moslamasi. Nasroniylarning rivoyatlariga ko'ra, Iso alayhissalom shunday salibga parchinlab o'ldirilgan. Shunga ko'ra, bu qatl quroli tasviri nasroniylik dinini qabul qilish belgisi sifatida diniy timsolga aylangan va ular bu salibga cho'qinadilar.

**Fatvo** – hukm, qaror. Islomda diniy boshqarma boshlig'i – muftiy, shayxulislom, oyatulloh va ulamolar kengashi tomonidan diniy-huquqiy, siyosiy, ijtimoiy, shar'iy masalalarda chiqariladigan qaror, hukm yoki izoh. Fatvo musulmonlar, diniy jamoalar tomonidan bajarilishi shart, majburiydir.

**Tumor** – g'ayritabiiy sehrli kuchga ega bo'lgan, egasini ofat-balolardan, kulfatlardan, falokatlardan, yomon ko'zlardan – ko'z tegishdan asraydi, deb tushuniladigan, ko'pincha uchburchak shaklda tayyorlanadigan ashyo, buyum. Islomda Qur'on oyatlari, duolar yozilgan qog'ozlarni tumor qilib taqib yurishgagina ruxsat bor. Qolganlari noma'qul, bid'at hisoblanadi. Ba'zi mufassirlarning aytishicha, tumor taqib yurish hatto shirkka yaqin turadi.

**Hajar ul Asvat** – qora tosh. Bir necha bo'lakdan iborat, kumush chambar bilan birlashtirilgan. Bu tosh Ka'baning poydevoriga qo'yilgan, eshigining chap tomonidagi burchakka yelka barobarida joylashtirilgan. Osmondan tushgan meteorit degan faraz ham bor.

## IBODATXONALAR

(maqomiga ko'ra)

**Ibodatxona** – dindorlarning Xudoga muayyan tartibda sig'inadigan joyi, diniy ibodatlar, rasm-rusum va marosimlar o'tkazadigan bino va inshootlarning umumiyligi nomi; islomda – masjid, xonaqoh, madrasa; yahudiylarda – sinagoga, ma'bad, skiniya, sinendrion, kaliso; nasroniylarda – cherkov, sobor, monastir, sinod, kapella, kostel, savmaa, kirxa; buddaviylarda — tera, pagoda, zikkurat, dagoba, stupa, vihara, datsan va hokazolar.

**Ka'ba** (arabcha) – “balandlik”, “do'nglik” ma'nolarini bildiradi; musulmonlarning Arabiston yarim oroli Hijoz o'lkasidagi Makka shahrida joylashgan eng muqaddas ibodatxonasi; arablar shakliga qarab “ka'ba” (kub) deb atashgan; kulrang toshdan qurilgan; “Baytulloh” (Allohning uyi), “Bayt ul-haram” (Muqaddas uy), “Bayt ul-Otiq” (Qadimiyligi uy) deb sifatlanadi; Qur'oni Karimda “al-Masjid al-haram” (muqaddas masjid) deb nomlangan, ya'ni unda urush, janjal, gunoh ishlarni qilish harom sanaluvchi masjid; atrofi hashamatli devor bilan o'rالgan; keng hovlisi ham Ka'ba deb ataladi; Ka'baning devoriga tashqi tomonidan osmondan tushgan “Xajar ul-asvad” (Qora tosh) o'rnatilgan; ichida Qur'oni Karimning qadimiyligi qo'lyozmasi saqlanadi; hovlisi sahnida Zamzam buloqi, Maqomi Ibrohim deb atalgan tosh bor; milodiy 623 yildan boshlab musulmonlar uchun qibla hisoblanadi va jahondagi barcha musulmonlar shu tomonga qarab namoz o'qiydilar, Ka'bada esa xohlagan tarafga qarab namoz o'qiyveradilar.

**Makka** – Saudiya Arabistonidagi islom dini zuxur etgan muqaddas shahar; Xijoz viloyatining ma'muriy markazi; Ka'ba joylashgan; tub aholisi 300 ming kishidan ortiq; har yili butun dunyo musulmonlaridan 2 milliondan ziyod odam xajga keladi; “Makkai mukarrama” deb ham ataladi.

**Madina** – “shahar” degani; to'liq arabcha nomi: “Madinat ur-Rasululloh” yoki “Madinat an-Nabiy”, ya'ni Payg'ambar shahri; Xijoz viloyatida Makka shahridan 450 kilometr shimolda joylashgan; qadimgi nomi – Yasrib; Payg'ambarimiz bu shaharga milodiy 622 yilda hijrat qilganlar; Muhammad alayhissalomning uyi va qabri Madinada; “Madinai munavvara” deb ham ataladi.

**Quddus, Quddusi sharif** (Ierusalim) – Falastinda joylashgan shahar; miloddan avvalgi X asrda Dovud alayhissalom uni butparastlardan tortib olib, Isroilning tabarruk poytaxtiga aylantirgan; yahudiylar, nasroniylar va musulmonlar uchun birdek muqaddas shahar. Musulmonlarda Bayt ul-Maqdis, Bayt ul-Muqaddas deb ham ataladi.

**Masjid** – musulmonlarning jamoa bo'lib ibodat qiladigan joyi; birinchi masjidni Muhammad alayhissalom Madinada qurdirganlar.

**Xonaqoh** – darveshlar, qalandarlar, g'arib-miskinlar istiqomat qiladigan joy, g'aribxona.

**Tak'yaxona** – shi'alarda masjid.

**Madrasa** – islom o'rta va oliv diniy o'quv yurti.

**Sinendrion** – Qadimgi Yahudiyada oqsoqollar kengashi; Quddus inqirozga uchragunga qadar oliv diniy muassasa; hukumat va sud vazifalarini ham bajargan.

**Sinagoga** – yahudiylar ibodatxonasi, diniy-jamoa tashkiloti.

**Ma'bad** – yahudiyarning Quddusdagi hashamatli bosh ibodatxonasi; miloddan avvalgi X asrda Dovud alayhissalomning o'g'li Sulaymon alayhissalom qurdirgan; miloddan avvalgi 558 yilda bobilliklar uni vayron qilganlar; qayta tiklangan; milodiy 70 yillarda rimliklar uni butkul vayron qilib tashlaganlar; hozirgacha qayta tiklanmagan.

**Cherkov** – nasroniylarning diniy tashkiloti; nasroniylar ibodatxonasi; katolik, anglikan, presviterian ibodatxonalarining umumiy nomi.

**Sobor** – qadimgi Rusda davlat ahamiyatiga molik bo'lgan muhim masalalarni ko'rib, hal qiluvchi yig'in, masalan, Zemskiy sobor; cherkov sobori; shahardagi yoki monastirdagi bosh cherkov, jome'.

## **ISLOMDAGI DINIY LAVOZIMLAR, UNVONLAR VA MANSABLAR**

(maqomiga ko'ra)

**Xalifa** – butun dunyo musulmonlarining diniy va dunyoviy oliy hukmdori; Payg'ambarning noibi, o'rribbosari; hozirda tarixga aylangan mansab.

**Amir al-mo'minin** – mo'minlar amiri degani bo'lib, ilk islom davridagi xalifalar (Muhammad payg'ambar o'rribbosarlari)ning unvoni. Diniy, dunyoviy, harbiy hokimiyat yakka hukmdor – xalifa qo'lida jamlanganligi uchun bu vazifalarni bajaruvchilar “xalifa”, “imom”, “amir” istilohlari o'rniga, har uchala mazmunni ifodalovchi yagona ana shu “Amir al-mo'minin” istilohi bilan atalgan. Bu unvonni birinchi bo'lib xalifa Umar qabul qilgan. Undan keyingi barcha xalifalar ham shu unvon bilan atalganlar.

**Muftiy** – “fatvo beruvchi”, “diniy qarorlar chiqaruvchi” ma'nolarini anglatadi; sunniylikda oliy martabali ruhoni; uning fikr va qarorlari fatvolarda bayon etilib, musulmonlar uchun dasturilamal hisoblanadi; aqoid olimi, Qur'oni Karimni sharhlovchi, fatvo beruvchi, shariat hukmini bayon etuvchi qonunshunos; mamlakatning diniy rahnamosi. Diniy qurultoyda saylanadi.

# BOSHQA DINLARDAGI DINIY LAVOZIMLAR, UNVONLAR VA MANSABLAR

(maqomiga ko'ra)

**Papa** – katolik xristianlik cherkovining eng oliy bosh ruhoniysi; huzurida nasroniy mamlakatlarning oliy ruhoniyi vakillari – kardinallar Kengashi bo'lib, bu Kengashda Papa ko'pchilik ovoz bilan umrbodga saylanadi; qarorgohi Vatikan shahrida; Rim Papasi Innokentiy III zamonida (1198-1216) papalik eng qudratli cho'qqiga ko'tarilgan – papa hokimiyati xristian olamida oliy hokimiyat ekanligi, barcha qirol va imperatorlar uning vassallari ekanligi tan olingan.

**Kardinal** – “katta”, “bosh” ma'nolarini anglatadi; katolik cherkovida Rim Papasidan keyingi oliy ruhoniylar martabasi; Papaning maslahatchisi; G'arbiy Yevropa mamlakatlari tarixida diniy va dunyoviy hokimiyatga ta'siri benihoya bo'lган.

**Patriarx** – pravoslavie cherkovi boshlig'ining oliy unvoni; Rossiyada bu lavozim 1945 yildan Moskva va Butun Rus Patriarxi deb ataladi.

**Sinod** – 1. Rossiyada pravoslavie cherkovining yuqori boshqarmasi; 2. Protestant cherkovida – ruhoniylar yig'ini; 3. 1943 yildan Muqaddas sinod – Moskva va Butun Rus Patriarxi huzuridagi kengash; cherkovning ichki ishlarini nazorat qiladi, dinga taalluqli masalalarini hal etadi.

**Mitropolit** – Rus pravoslavie cherkovida Patriarxdan keyingi ikkinchi lavozim; yirik cherkov viloyatlari — mitropoliya yeparxiyalari guruhining boshqaruvchisi.

**Shomon** – ibridoiy shomonlik dini ruhoniysi; inson yaxshi va yovuz arvoхlar panohida yashaydi, odamlarning sog'lig'i, baxti va taqdiri shularning qo'lidadir, degan e'tiqodni targ'ib qilgan; shomonlik dinidagilar jinlar, arvoхlarga ham topinadilar.

**Brahman** – majusiyalar kohini, ruhoniysi; Hindistonda oliy ruhoniylar toifasi (kastasi)ga mansub shaxs.

**Lama** – buddaviylar dinida monax-ruhoniyi.

**Dalay** – Lama – lamaviylik (Buddaviylikning bir turi) cherkovning oliy boshlig'i; Tibetda diniy va dunyoviy hukmdor; Xitoy hukumati tomonidan tasdiqlanadi.

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

01.05.1998 y.

## “VIJDON ERKINLIGI VA DINIY TASHKIOTLAR TO'G'RISIDA”

(yangi tahriri)

### **1-MODDA. Ushbu Qonunning maqsadi.**

Ushbu Qonunning maqsadi har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat'i nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, shuningdek diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat.

### **2-MODDA. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari.**

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan, ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasida vijdon erkinligini va diniy tashkilotlar faoliyatini ta'minlashga oid munosabatlar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan boshqacha qoidalari belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

### **3-MODDA. Vijdon erkinligi huquqi.**

Vijdon erkinligi – fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir.

Fuqaro o'zining dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lim olishga o'z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi.

Voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitishga yo'l qo'yilmaydi.

Dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lган darajadagina cheklanishi mumkin.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lмаган shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda vijdon erkinligi va diniy e'tiqod erkinligi huquqidan foydalanadilar hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo'ладilar.

#### **4-MODDA. Fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar teng huquqliligi.**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari dinga munosabatidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar. Rasmiy hujjatlarda fuqaroning dinga munosabati ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmaydi. Fuqarolarning dinga munosabatiga qarab ularning huquqlarini har qanday cheklash va ularga bevosita yoki bilvosita imtiyozlar belgilash, dushmanlik va adovat uyg'otish yoxud ularning diniy yoki dahriylik e'tiqodi bilan bog'liq his-tuyg'ularini haqoratlash, diniy ziyoratgohlarni oyoq osti qilish qonunda belgilangan javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Hech kim diniy e'tiqodini ro'kach qilib qonunda belgilangan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishga haqli emas. Qonunga muvofiq bajarilishi majburiy bo'lган bir vazifani diniy e'tiqodi tufayli boshqasi bilan almashtirishga qonun hujjatlarida nazarda utilgan hollardagina yo'l qo'yiladi.

#### **5-MODDA. Dinning davlatdan ajratilganligi.**

O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat turli dinlarga e'tiqod qiluvchi va ularga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e'tiqodlarga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashadi, diniy va o'zga mutaassiblikka hamda ekstremizmga, munosabatlarni qarama-qarshi qo'yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlaydi. Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar

(prozelitizm), shuningdek boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o'zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamaydi, ularning qonun hujjatlariga zid bo'lмаган faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini hamda dahriylik targ'ibotiga oid faoliyatini mablag' bilan ta'minlamaydi.

O'zbekiston Respublikasida diniy mohiyatdagi siyosiy partiya va jamoat harakati, shuningdek respublikadan tashqarida tuzilgan diniy partiyalarning filiallari va bo'limlarini tuzishga va ularning faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmaydi.

Diniy tashkilotlar amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishlari shart. Dindan davlatga va Konstitutsiyaga qarshi targ'ibot olib borishda, dushmanlik, nafrat, millatlararo adovat uyg'otish, axloqiy negizlarni va fuqaroviylar tovvlikni buzishda, bo'hton, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalarni tarqatishda, aholi o'rtaida vahima chiqarishda hamda davlatga, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa xattiharakatlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko'maklashadigan, shuningdek boshqa g'arazli maqsadlarni ko'zlovchi diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar va boshqalarning faoliyati man etiladi.

Davlat hokimiysi va boshqaruv organlariga, mansabdor shaxslarga tazyiq o'tkazishga qaratilgan har qanday urinish, shuningdek yashirin diniy faoliyat qonun bilan taqiqlanadi.

## **6-MODDA. Davlat organlarining va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining diniy tashkilotlar bilan o'zaro munosabat borasidagi vakolatlari.**

Davlat organlari bilan diniy tashkilotlarning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish vazifasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita zimmasiga yuklanadi. Qo'mitaning huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizom bilan belgilanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, tuman va shahar hokimliklari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tegishli hududlarda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi uchun qonun bo'yicha javobgardirlar.

### **7-MODDA. Ta'lif tizimi va din.**

O'zbekiston Respublikasida ta'lif tizimi dindan ajratilgan. Ta'lif tizimining o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dunyoviy ta'lif olish huquqi ularning dinga bo'lgan munosabatidan qat'i nazar ta'min etiladi.

### **8-MODDA. Diniy tashkilotlar.**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalar (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) diniy tashkilotlar deb e'tirof etiladi.

Diniy tashkilot O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashayotgan yuz nafardan kam bo'limgan fuqarolari tashabbusi bilan tuziladi.

Tegishli konfessiyaga qarashli diniy tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va yo'naltirib borish uchun ularning O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yagona markaziy boshqaruv organlari (bundan keyin markaziy boshqaruv organlari deb yuritiladi) tuzilishi mumkin.

Markaziy boshqaruv organi O'zbekiston Respublikasining kamida sakkizta hududiy tuzilmasida (viloyat, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi) faoliyat ko'rsatayotgan, tegishli konfessiyalarning ro'yxatga olingan diniy tashkilotlari vakillari ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi) tomonidan tuziladi.

Diniy tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida yoki uning joylardagi organlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Tegishli diniy ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari diniy tashkilotlarning rahbarlari bo'lishlari mumkin. Diniy tashkilotlar rahbarligiga

O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lмаган shaxslarning nomzodi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan kelishib olinadi.

### **9-MODDA. Diniy o'quv yurtlari.**

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari ruhoniylar va o'zlariga zarur bo'lgan diniy xodimlar tayyorlash uchun diniy o'quv yurtlari tuzishga haqli. Diniy o'quv yurtlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilib, tegishli lisensiya olganidan keyin faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'ladi.

Oliy va o'rta diniy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun fuqarolar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq umumiylajburiy o'rta ta'lim olganidan keyin qabul qilinadi.

Diniy o'quv yurtlarida diniy fanlarni o'qitayotgan shaxslar diniy ta'lim olgan bo'lishlari va o'z faoliyatlarini tegishli markaziy boshqaruv organining ruxsati bilan amalga oshirishlari lozim.

Xususiy tartibda diniy ta'lim berish man etiladi.

### **10-MODDA. Diniy tashkilotning ustavi.**

Diniy tashkilotning ustavi quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak:

- diniy tashkilotning nomi, turi, joylashgan manzili, qaysi dinga mansubligi;
- maqsadi, vazifalari va faoliyatining asosiy turlari;
- faoliyatni tashkil etish va tugatish tartibi;
- tuzilishi va boshqaruv organlari;
- mablag'lari manbai hamda ushbu tashkilot ichidagi, shuningdek undan tashqaridagi mulkiy munosabatlari;
- ustavga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish tartibi;
- ushbu diniy tashkilotga taalluqli boshqa ma'lumotlar.

Markaziy boshqaruv organlariga ega bo'lgan diniy tashkilotlarning ustavlari mazkur boshqaruv organlari bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

### **11-MODDA. Diniy tashkilotlarni ro'yxatga olish.**

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlarini ro'yxatga olish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan, boshqa diniy tashkilotlarni esa tegishli ravishda

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotlarni ro'yxatga olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- diniy tashkilot tuzish tashabbuskorlari bo'lgan, yuz nafardan kam bo'limgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi imzolagan ariza;
- diniy tashkilotning ustavi;
- ta'sis yig'ilishining bayoni;
- tuzilayotgan diniy tashkilot joylashgan manzilni tasdiqlovchi hujjat;
- ro'yxatga olish yig'imi to'langani to'g'risidagi hujjat.

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organini ro'yxatga olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi)ning raisi va kotibi imzo qo'ygan ariza;
- diniy tashkilotlar markaziy boshqaruv organining ustavi;
- ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi)ning bayoni;
- ta'sischilar vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar;
- rahbar organ joylashgan manzilni tasdiqlovchi hujjat;
- ro'yxatga olish yig'imi to'langani to'g'risidagi hujjat.

Diniy tashkilotlar hamda ularning markaziy boshqaruv organlarini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza berilgan kundan e'tiboran bir oylik muddatda ko'rib chiqiladi.

Adliya organlari qo'shimcha materiallar talab qilib olishga hamda tegishli organlarning ekspert xulosasini olishga haqli. Bunday holda qaror ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza berilgan kundan e'tiboran uch oylik muddatda qabul qilinadi.

Diniy tashkilotning ustaviga kiritilgan qo'shimchalar va o'zgartishlar diniy tashkilotni ro'yxatga olish kabi tartib va muddatlarda ro'yxatga olinishi lozim.

Diniy tashkilotlar rahbarlarining tashkilot ustavini davlat organlarida ro'yxatdan o'tkazishdan bo'yin tovashi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortishga olib keladi.

Diniy tashkilotlarning faoliyati o'z ustaviga muvofiqligini nazorat qilish diniy tashkilotni ro'yxatga olgan organ tomonidan amalga oshiriladi.

Ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'ygan mansabdar shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

### **12-MODDA. Diniy tashkilotni ro'yxatga olishni rad etish.**

Agar diniy tashkilot ustavining qoidalari va boshqa hujjatlari ushbu Qonun yoki O'zbekiston Respublikasi boshqa qonun hujjatlarining talablariga zid bo'lsa, uni ro'yxatga olish rad etilishi mumkin.

Diniy tashkilotni ro'yxatga olish rad etilganda rad etish asoslari ko'rsatilgan qaror yozma ravishda arizachilarga yuboriladi. Diniy tashkilot tuzish tashabbuskorlari ustavlarini qonun hujjatlariga muvofiq holga keltirganlaridan so'ng, ustavni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza bilan tegishli tarzda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga yoki uning joylardagi organlariga qaytadan murojaat etish huquqiga ega.

Diniy tashkilotni ro'yxatga olishni rad etilganligi yoxud adliya organlari tomonidan ushbu Qonun talablari buzilganligi ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

### **13-MODDA. Diniy tashkilotning faoliyatini tugatish.**

Diniy tashkilotning faoliyati u o'zini-o'zi tarqatib yuborganda yoki ushbu Qonunning, shuningdek O'zbekiston Respublikasi boshqa qonun hujjatlarining qoidalari buzilgan taqdirda tugatilishi mumkin.

Diniy tashkilot faoliyatini tugatish to'g'risidagi qaror uni ro'yxatga olgan organ tomonidan qabul qilinadi. Ushbu qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

### **14-MODDA. Diniy urf-odatlar va marosimlar.**

Diniy tashkilotlar ibodat qilish yoki diniy rasm-rusumlar o'tkazish uchun qulay joylar tashkil etish va ularni saqlab turish, shuningdek ziyyaratgohlarni saqlab turish huquqiga egadir.

Ibodat, diniy rasm-rusumlar va marosimlar diniy tashkilotlar joylashgan manzildagi ibodatxonalarda va ularga tegishli hududlarda, ziyyaratgohlarda, qabristonlarda, zarur hollarda fuqarolarning ixtiyoriga binoan ularning uylarida o'tkaziladi.

Kasalxonalarda, gospitallarda, keksalar va nogironlar uylarida, dastlabki qamoq va jazoni o'tash joylarida ibodatlar va diniy rasm-rusumlar shu yerdagi fuqarolarning iltimoslariga binoan o'tkaziladi.

Diniy marosim va ibodat binolaridan tashqarida o'tkaziladigan ommaviy ibodatlar, diniy rasm-rusumlar va marosimlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining (diniy tashkilotlarning xizmatidagilar bundan mustasno) jamoat joylarida ibodat liboslarida yurishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Diniy tashkilotlar dindorlardan majburiy pul yig'implari va to'lovlar undirishga, shuningdek ularga nisbatan shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi choralar ni qo'llashga haqli emas.

### **15-MODDA. Diniy tashkilotlarning mulki.**

Diniy tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan sotib olingan yoki yaratilgan, fuqarolar, jamoat birlashmalari ehson qilgan (vasiyat qilib qoldirgan) yoxud davlat tomonidan berilgan, shuningdek chet elda joylashgan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarda olingan, o'z faoliyatlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan binolar, imoratlar, ibodat qilish anjomlari, ishlab chiqarish, ijtimoiy va xayriya inshootlari, pul mablag'lari va boshqa mol-mulklar ularning mulki bo'lishi mumkin.

Diniy tashkilotlarning mulkiy huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi.

### **16-MODDA. Davlat mulki bo'lgan mol-mulkdan foydalanish.**

Diniy tashkilotlar o'z ehtiyojlari uchun davlat organlari tomonidan shartnomaga asosida beriladigan binolar va mol-mulkdan foydalanishga haqlidir.

Tarixiy va madaniy yodgorliklar ob'ektlari va buyumlarini diniy tashkilotlarga foydalanish uchun berish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotlar uchun yer ajratish hamda ibodat binolari qurish tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ruxsati bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

### **17-MODDA. Ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati.**

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari ustavdagi maqsadlaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq, noshirlik, ishlab chiqarish, ta'mirlash-qurilish, qishloq xo'jalik korxonalari va boshqa korxonalarini, shuningdek xayriya muassasalarini (yetimxonalar, kasalxonalar) ta'sis etishga haqlidir.

## **18-MODDA. Faoliyatini tugatgan diniy tashkilotlarning mol-mulkini tasarruf etish.**

Diniy tashkilotlarning faoliyati tugatilgandan keyin ularga foydalanib turish uchun berilgan mol-mulk o'z egalariga qaytariladi.

Diniy tashkilotlarning faoliyati tugatilgan taqdirda, ularga qarashli mol-mulkka egalik qilish ularning ustavi va qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Kreditorlarning talablarini qondirish uchun undirish qaratilishi mumkin bo'limgan ibodatga oid mol-mulk ro'yxati diniy tashkilotlarning taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Huquqiy vorislari bo'limgan mol-mulk davlat mulki hisobiga o'tadi.

## **19-MODDA. Diniy adabiyot va diniy maqsadlarga mo'ljallangan buyumlar.**

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari diniy maqsadlarga mo'ljallangan buyumlar, diniy adabiyotlar va diniy mazmundagi boshqa axborot materiallarini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishlab chiqarishga, eksport va import qilishga hamda tarqatishga haqlidir.

Chet elda nashr etilgan diniy adabiyotlarni olib kelish va tarqatish, ularning mazmuni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ekspertizadan o'tkazilganidan keyin amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari tegishli lisenziya olganidan so'ng diniy ibodat buyumlarini ishlab chiqarish va tarqatish huquqiga faqat ular ega bo'ladilar.

Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan matbaa nashrlarini, kino-foto-audio-video mahsulotlarini va shu kabi boshqa mahsulotlarni tayyorlash, saqlash va tarqatish qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortishga olib keladi.

## **20-MODDA. Diniy tashkilotlarning xayriya faoliyati.**

Diniy tashkilotlar xayriya va mehr-muruvvat faoliyatini amalga oshirishga haqlidir.

**21-MODDA. Diniy tashkilotlarda mehnatga oid huquqiy munosabatlar.**

Diniy tashkilotlarda mehnat shartnomalari (kontraktlari) bo'yicha ishlayotgan fuqarolarga O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari tatbiq etiladi.

**22-MODDA. Diniy tashkilotlarning xalqaro aloqaları.**

Diniy tashkilotlar muqaddas joylarni ziyorat qilish yoki boshqa diniy tadbirda ishtirok etish maqsadida qonun hujjatlariga muvofiq xalqaro aloqalar o'rnatish va olib borishga haqlidir.

**23-MODDA. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.**

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar, diniy tashkilotlarning xizmatidagilar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.I. – T.: “O'zbekiston”, 1996.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: “O'zbekiston”, 1997.
3. Karimov I.A. Imam al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligiga bag'ishlangan yubileyda so'zlagan nutqi. 24 oktabr, 1998.
4. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. –T., 1999.
5. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. –T., 1999.
6. Karimov I.A. Ogohlikka da'vat. –T., 2000.
7. Afg'onistondagi voqealar munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning bayonoti. “Xalq so'zi”, 2001, oktabr.
8. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Nezavisimaya gazeta”si muxbiri savollariga bergen javoblari, 2004, dekabr.
9. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: “O'zbekiston”, 2005.
10. Karimov I.A. Yangi hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi. 17 fevral, 2005.
11. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. “Xalq so'zi”, 2005, 8 dekabr.
12. Karimov I.A. Orzu-umidlarimiz amaliy ifodasi. Prezident Islom Karimovning poytaxtda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan tanishish chog'ida (shu jumladan talabalar shaharchasida talaba yoshlar bilan uchrashuvida) suhbat. “Xalq so'zi”, 2005, 29 dekabr.
13. Prezident Islom Karimovning 2005 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng

muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 2006, 11 fevral.

14. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. –T.: "O'zbekiston", 2007.

15. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008.

16. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. –T.: "O'zbekiston", 2009.

17. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: "O'zbekiston", 2011.

### **O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy xujjatlari**

1. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni. "Xalq so'zi", 1998, 1 may.

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T., 2011.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Mo'minov A., Yo'doshxo'jaev X. va boshqalar. Dinshunoslik (darslik). –T.: "Mehnat", 2004.

2. Основы религиоведения. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. Под редакцией. И.Н.Яблокова. –М., 1994.

3. Радугин А.А. Введение в религиоведение: теория, история и современные религии. – М., 1996.

4. Яблоков И.Н. Религиоведение. Учебное пособие. Учебный словарь-минимум по религиоведению. М., 1998.

## **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi/ Tarjima va izohlar muallifi A.Mansur.– T.: “Toshkent islom universiteti”, 2001.
2. Abu Iso at-Termiziy. Sahihi Termiziy. Tanlangan hadislar. –T., 1993.
3. Diniy ekstremizm va fundamentalizm tarixi. –T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
4. Diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi, mohiyati va O'zbekistonga kirib kelishi. – T.: “Akademiya”, 2000.
5. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2005.
6. Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik (yuz savolga – yuz javob). – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2009.
7. Dinshunoslikning dolzarb muammolari. II. – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2010.
8. Jo'raev U., Saidjanov Y. Dunyo dinlari tarixi. –T., 2001.
9. Juzjoniy A. Islom huquqshunosligi. –T.: “Toshkent islom universiteti”, 2002.
10. Injil. – Stokgolm, 1993.
11. Injil. – Turkiya Muqaddas Kitob jamiyat. 1996.
12. Islom. Ensiklopediya. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004.
13. Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. – T., 1996.
14. Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob. –T., 2000.
15. Ochildev A., Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari (yuz savolga – yuz javob). –T.: “Toshkent islom universiteti”, 2009.

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
Dinshunoslik faniga kirish. Dinshunoslik fanini o'qitishning maqsad va vazifalari.....	4
Milliy dinlar.....	18
Buddaviylik.....	36
Xristianlik.....	49
Islom.....	68
Islomning asosiy manbalari.....	81
Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar.....	97
Diniy ekstremizm, fundamentalizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurash.....	111
Asosiy tushuncha va atamalar.....	133
Ibodatxonalar.....	151
Islomdagi diniy lavozimlar, unvonlar va mansablar.....	153
Boshqa dinlardagi diniy lavozimlar, unvonlar va mansablar.....	154
O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar" to'g'risida.....	155
Adabiyotlar ro'yxati.....	165